

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI**

**N.B.BAKAYEV, M.N.XAFIZOVA**

**LOTIN TILI VA TIBBIY  
TERMINOLOGIYA**

**Buxoro-2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI**

**N.B.BAKAYEV, M.N.XAFIZOVA**

**LOTIN TILI VA TIBBIY**

**TERMINOLOGIYA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari  
uchun o'quvqo'llanma sifatida tavsiya qilinadi*

Bilim sohasi:	500000	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
	—	
Ta'lim sohasi:	510 000	Sog'liqni saqlash
	—	
Ta'lim yo'nalishi:	5111000	– Kasb ta'limi (5510100 –davolash ishi)
	5510100	– Davolash ishi
	5510200	– Pediatriya ishi
	5510300	– Tibbiy profilaktika ishi
	5510400	– Stomatologiya
	5510900	– Tibbiy biologiya ishi

**Buxoro-2019**

**Tuzuvchilar: Bakayev N.B** - Ingliz tili kafedrası dotsenti

**Xafizova M.N.** Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

**Mas'ul muharrir: prof.Q.B.Shodmonov**-Ingliz tili kafedrası mudiri

**Taqrizchilar:Rajabov A.B.**-Buxoro Davlat tibbiyot instituti Anatomiya va klinik anatomiya (OXTA) kafedrası mudiri,dotsent

**Rasulov Z.I.** -Buxoro Davlat Universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n, dotsent

## ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma tibbiyot oliy o'quv yurtlarining Ikurs talaba yoshlari uchun tuzilgan. O'quv qo'llanma kirish va to'rt bo'limdan iborat:

1. Fonetika - anatomik, fiziologik, gistologik terminlar asosida
2. Morfologiya – anatomik, gistologik va tibbiy fanlar terminlari asosida
3. Klinik fanlar kompleksi va patalogik anatomiya terminshunosligi asosida
4. Farmatsevtika – biologiya, kimiyo, dori-darmon vositalari nomenklaturasi asosida.

Har bir bo'lim qisqa grammatik material, bilimlarni mustahkamlovchi mashqlar va mustaqil ishlash uchun mashqlar hamda fonetik, grammatik materiallarga tegishli leksik minimumlar shuningdek kasbga ta'luqli ibora, hikmatli so'zlar hamda maqollarni o'z ichiga olgan. Ayrim mavzularni chuqurroq va puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'quv –uslubiy vazifani bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar ham berilgan. Grammatik materiallarni qisqa va lo'nda ifodalash maqsadida jadvallardan o'rinli foydalanilgan.

## АННОТАЦИЯ

Это пособие для студентов 1-го курса медицинских вузов. Оно состоит из четырех разделов:

1. Фонетика - на основе анатомических, физиологических, гистологических терминов
2. Морфология - на основе терминов анатомической, гистологической и медицинской науки
3. На основании клинических дисциплин и терминологии патологической анатомии
4. Фармацевтические препараты - на основе номенклатуры биологии, химии, лекарственных средств.

Каждый раздел содержит краткий грамматический материал, упражнения для повышения знаний и самостоятельной работы а также лексические минимумы для фонетического, грамматического материала, а также словарный запас, мудрые выражения связанной с профессиональной деятельностью.

Есть также дополнительные материалы для углублённого обучения лексико-грамматического материала. Таблицы используются для краткого и чёткого описания грамматических материалов.

## ANNOTATION

This manual is for students of the 1<sup>st</sup>- course of medical institutes. It consists of four sections:

1. Phonetics - based on anatomical, physiological, histological terms
2. Morphology - based on anatomical, histological and medical science terms
3. Based on clinical disciplines and terminology of pathological anatomy
4. Pharmaceutical preparations - based on the nomenclature of biology, chemistry, medicines.

Each section contains a brief grammatical material, exercises for increasing knowledge and independent work, as well as lexical minimum for phonetic, grammatical materials, and vocabulary, wise expressions associated with professional activities. There are also additional materials for in-depth training of lexico-grammatical materials. Tables are used for a brief and clear description of grammatical materials.

## MUNDARIJA

So'z boshi.....	11
Shartli qisqartmalar.....	12
Kirish .....	13

### **FONETIKA - anatomik va biologik terminlar asosida**

§1. Lotin alifbosi.Unli va undosh harflar talaffuzi.Diftong, digraflar va harf birikmalari.....	21
§2.Urg'u qo'yish qoidalari.Bo'g'inlarning qisqa va cho'ziq o'qilishi .....	28

### **MORFOLOGIYA -anatomik va biologik terminlar asosida**

§3. Lotin tilida so'z turkumlari. Ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari. Lug'at shakli. Negiz.Moslashmagan aniqlovchi.....	33
§4.Sifat so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.Sifatlarning ikki guruhi. Lug'at shakli. Moslashgan aniqlovchi.....	40
§5.Sifat darajalari. Qiyosiy daraja. Lug'at shakli va negiz.Qiyosiy darajadagi sifatlarning turlanishi.....	45
§6. Sifat darajalari. Sifatlarning orttirma darajasi . Lug'at shakli, negiz va turlanishi .....	49
§7. Otlarning uchinchi turlanishi. Mujskoy roddagi otlar .....	53
§8. Otlarning uchinchi turlanishi. Jenskiy roddagi otlar .....	57
§9. Otlarning uchinchi turlanishi. Sredniy roddagi otlar .....	59
§10.Ot va sifatlarning Nominativus Pluralis shaklining yasalishi.....	62
§11. Ot va sifatlarning Genetivus Pluralis shaklini yasalishi .....	67
§12. O'tilgan grammatik materiallarni takrorlash va mustahkamlash uchun mashqlar .....	71
§13. Otlarning uchinchi turlanishi. Nominativus va Genetivus Pluralisga doir mashqlar .....	73
§14. Son so'z turkumi. Lotin tilida sanoq, tartib, taqsim va ravish sonlar. Lotincha va yunoncha old qo'shimchali sonlar.....	75
§15. O'rganilgan grammatik materiallar va anatomik terminlar bo'yi cha bilimlarni takrorlash va mustahkamlash .....	78
§16. <b>KLINIK TERMINOLOGIYA - klinik atamalar asosida.....</b>	84
§17. Prefiksatsiya - klinik atama yasash usullari .....	91
§18. Klinik atamalar yasashda qo'llaniladigan atama elementlar.....	97
§19. Organlar va to'qimalardagi patologik o'zgarishlarni, terapevtik hamda	

xirurgik usullarni ifodalovchi yunon atama elementlari.....	100
§20. To'qimalar, organlar, suyuqliklar va sekretlar, jins va yoshni ifodalovchi yunon-lotin dubletlari. Funksional va patologik holat va jarayonlarni ifodalovchi yakka atama elementlar.....	104
§21. Turli fizik xususiyatlar, sifat, munosabat va boshqa belgilarni ifodalovchi yakka atama elementlar .....	109
§22. Klinik atamashunoslik bo'limi bo'yicha yakuniy dars .....	112

### **§23. FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIK – biologik va kimyoviy terminlar asosida**

Dorivor moddalarning trivial nomlariva so'z yasovchi trivial nomlar. Preparat nomlarida dori shaklining ifodalanishi.....	115
§24. Preparat nomlarida dori shaklining ifodalanishi .....	122
§25. Fe'l so'z turkumi. Grammatik kategoriyasi. Lug'at shakli. Aniqlik, buyruq va shart mayllari.....	124
§26. Lotin tilida predloglar va bog'lovchilar .....	131
§27. Ko'makchilar va ular bilan qo'llaniladigan retseptura formulirovkalari.....	135
§28. Retsept va uning tuzilishi. Retsept yozish qoidalari .....	137
§29. Tabletka, shamcha va ko'z plyonkalarini yozishda Akkuzativ kelishigining qo'llanilishi.....	139
§30. Lotin tilida kimyoviy elementlar va ularning nomlari. Kislotalar. ....	145
§31. Oksidlar va tuzlar .....	150
§32. Retseptdagi asosiy qisqartmalar .....	155
§33. Farmatsevtik terminologiya bo'yicha umumlashtiruvchi dars uchun amaliy mashqlar .....	159
§34. O'tilgan va o'rganilgan mavzular bo'yicha mustahkamlovchi mashqlar.....	162

### **MUSTAQIL O'QIB O'RGANISH UCHUN MATERIALLAR**

§35. Gaugeamus Igitur –Shodu xurram bo'laylik" talabalar madhiyasi .....	166
§36. Lotin aforizmlari va maqollari .....	168
§37. Lotincha - o'zbekcha lug'at .....	170
§38. O'zbekcha - lotincha lug'at .....	212

## СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие.....	11
Список условных сокращений.....	12
ВВЕДЕНИЕ.....	13
РАЗДЕЛ I. Фонетика.	
§1. Латинский алфавит. Произношение гласных. Особенности произношения дифтонгов и согласных звуков.....	21
§2. Правила постановки ударения. Краткость и долгота предпоследнего слога..	28
§3. Части речи и грамматические категории слов, составляющих термины. Имя существительное. Грамматические категории имени существительного. Словарная форма. Общие сведения о склонениях и основе. Несогласованное определение.....	33
§4. Имя прилагательное. Грамматические категории имени прилагательного. Две группы прилагательных. Словарная форма. Принципы согласования прилагательных с существительными.....	40
§5. Степени имен прилагательных. Образование сравнительной степени. Словарная форма и основа. Склонение прилагательных в сравнительной степени.....	45
§6. Превосходная степень прилагательных. Обобщение сведений об имени прилагательном. ....	49
§7. III склонение существительных: их родовые признаки и характер основ. Существительные мужского рода III склонения. ....	53
§8. Существительные женского рода III склонения.....	57
§9. Существительные среднего рода III склонения.....	59
§10. Именительный падеж множественного числа (Nominativus pluralis) существительных I-V склонений и прилагательных.....	62
§11. Родительный падеж множественного числа (Genetivus pluralis) существительных I-V склонений и прилагательных .....	67
§12. Упражнения на определение достижения цели занятия.....	71
§13. III склонение существительных. Упражнения по переводу медицинских терминов в формах именительного и родительного падежей множественного числа.....	73
§14. Имя числительное. Порядковые и количественные числительные.....	75
§15. Самоподготовка к итоговой контрольной работе по I разделу курса по материалу анатомио-гистологической терминологии.....	78
§16. РАЗДЕЛ II. Терминологическое словообразование. Клиническая терминология.....	84
§17. Префиксация. Префиксально –суффиксальное словообразование.....	91

§18. Словообразование в клинической терминологии. Греко-латинские дублетные обозначение тканей, органов, секретов, выделений, пола, возраста. Одиночные ТЭ, обозначающие функциональные и патологические состояния, процессы.....	97
§19. Греческие ТЭ, обозначающие патологические изменения органов и тканей, терапевтические и хирургические приемы.....	100
§20. Греко-латинские дублетные обозначения тканей, органов, секретов, выделений, пола и возраста.....	104
§21. Одиночные ТЭ, обозначающие различные физические свойства, качества, отношения и другие признаки.....	109
§22. Самоподготовка к контрольной работе по II разделу курса по материалу словообразования и клинической терминологии.....	112
§23. Общее представление о фармацевтической терминологии. Номенклатура лекарственных средств. ....	115
§24. Названия препаратов, включающие в свой состав обозначение лекарственной формы.....	122
§25. Глагол. Грамматические категории и словарная форма глаголов. Представление о 4 спряжениях и основе. Повелительное наклонение (Imperativus). Сослагательное наклонение (Conjunctivus).....	124
§26. Винительный падеж и аблятив. Предлоги.....	131
§27. Наиболее употребительные рецептурные формулровки с предлогами.....	135
§28. Рецепт. Структура рецепта.....	137
§29. Употребление винительного падежа при прописывание табюеток и свечей.....	139
§30. Химическая номенклатура на латинском языке. Названия химических элементов и кислот.....	145
§31. Названия солей.....	150
§32. Важнейшие рецептурные сокращения. Частотные отрезки с химическим значением.....	155
§33. Самоподготовка к контрольной работе по материалу фармацевтической терминологии.....	159
§34. Образцы практических заданий для подготовки к итоговому контролю...	162
§35. Студенческий гимн «Gaudeamus».....	166
§36. Латинские афоризмы, специальные выражения, пословицы, относящиеся к медицине.....	168
§37. Словарь.....	170



## CONTENTS

Preface .....	11
List of conditional abbreviation.....	12
INTRODUCTION.....	13
SECTION §1. Phonetics.Latin alphabet. Latin vowels and consonants. Digraph and diphthongs.....	21
§2. Duration and brevity of the syllable in Latin language. Stress rules.....	28
§3. Noun. Grammar categories of the noun. Dictionary for of noun. Declension and base. Inconsistent definition.....	33
§4. Adjective. Grammar categories of adjective. Two groups of adjectives. Dictionary form of adjective. Rules of alignment adjectives and nouns.....	40
§5. Degrees of adjective. Origin of comparison of comparison degree. Common comparison degrees of adjectives in anatomical terminology, their definition and usage.....	45
§6. Superlative degree of adjective. Summary of adjective. ....	49
§7. III declension of noun: its genus features and base. III declension of noun. Genus masculinum.....	53
§8. III declension of noun. Genus femininum. ....	57
§9. III declension of noun.Genusneutrum.....	59
§10. Nominative plural of adjectives and nouns in I-V declension (Nominativus pluralis).....	62
§11. Genetive plural of adjectives and nouns in I-V declension (Genetivus pluralis).....	67
§12. Revision of anatomical terminology and exercises .....	71
§13. Summarizing the anatomical and histological terms .....	73
§14. Numerals.Ordinal and cardinal numbers.....	75
§15. Self-preparation for the final control work on the first section of the course on the material of anatomical and histological terminology.....	78
§16. Terminological word formation. Clinical terminology.....	84
§17. Prefixation.Prefixally-suffix word formation.....	91
§18. Word building . Greek – latin dublets and TE. Building of clinical terms.....	97
§19. Word building and and clinical word buildingexercises for revision.....	100
§20. Tissue, organ, excretions, genus, age describing words in greek- latin dublets. Functional and pathologic form, process describing alone TE. Various physical features. Adjectives, relations and other signs describing alone TE.....	104
§21. Alone TE, denoting various physical properties, qualities, relationships and other signs.....	109

§22. Self-preparation for the final control work on the first section of the course on the material of word formation and clinical terminology.....	112
§23. III Section. Formulation related grammar elements. Pharmaceutical terminology and receipt .....	115
§24. Names of drugs that include the designation of the dosage form.....	122
§25. Verb. Grammar categories of verb.....	124
§26. Prepositions in Latin. ....	131
§27. The most common prescription formulations with prepositions.....	135
§28. Structure of prescription.....	137
§29. Prescription regulations for tablets, suppositories and ophthalmic films solid and other pharmaceutical forms in prescriptions.....	139
§30. Latin names of chemical elements. Names of acids.....	145
§31. Naming oxides, peroxides, hydroxides and Latin names of salts in prescriptions.....	150
§32. The common abbreviations used in prescriptions.....	155
§33. The usage of Accusative case in prescription .....	159
§34. Strengthening exercises on topics that have been taught and learned.....	162
§35. Students' Anthem Gaudeamus' .....	166
§36. Aphorisms in Latin language, special word combinations, proverbs.....	168
Dictionary.....	170

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3151 – sonli Qarorning qabul qilinganligi butun mamlakatimizda fan va texnikaning jadal suratlar bilan to'xtovsiz rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

Ushbu Qaror fan va texnikaning barcha sohalarida amal qilganidek xorijiy tillarni o'qitishda, jumladan, Respublikamizdagi barcha tibbiy oliygothlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini ham chetlab o'tmaydi.

Jahon tibbiyoti sohasidagi to'xtovsiz ijobiy turli-tuman o'zgarishlar, faoliyatda xilma-xil yangi texnologiyalarni tadbiq etilishi va yaratilgan zamonaviy o'ta yangi asbob-uskunalarni shifokorlarimiz tomonidan faol qo'llanilishi tabiiyki, yangi tibbiy terminlarni kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, bo'lg'usi shifokorlik kasbini egallash, kasb tilini o'rganish, shuning bilan bir qatorda kasbiy tushunchalar va ularni ifodalovchi atamalar shodasini har tomonlama puxta o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Hozirgi globallashuv davri tibbiy atamashunosligi tom ma'noda keng va murakkab atama terminlar tizimi hisoblanib, bir necha minglab so'z va so'z birikmalarni o'z ichiga qamrab olgan. Tibbiy va biologik atamashunoslikning o'ziga xos xususiyati ko'p asrlik davom etib kelayotgan "an'anaviy" tibbiy lotin tilini qo'llanishidadir.

Ushbu o'quv qo'llanma tibbiyot oliy o'quv yurtlarining I kurs talaba yoshlari uchun tuzilgan.

Qo'llanma kirish va to'rt bo'limdan iborat:

1. Fonetika - anatomik, fiziologik, gistologik terminlar asosida
2. Morfologiya – anatomik, gistologik va tibbiy fanlar terminlari asosida
3. Klinik fanlar kompleksi va patologik anatomiya terminshunosligi asosida
4. Farmatsevtika – biologiya, kimyo, dori-darmon vositalari nomenklaturasi asosida.

Har bir bo'lim qisqa grammatik material, bilimlarni mustahkamlovchi mashqlar va mustaqil ishlash uchun mashqlar hamda fonetik, grammatik materiallarga tegishli leksik minimumlar, shuningdek kasbga talluqli ibora, hikmatli so'zlar va maqollarni o'z ichiga olgan. Ayrim mavzularni kengroq va puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'quv – uslubiy vazifani o'taydigan qo'shimcha topshiriqlar ham berilgan. Grammatik materiallarni qisqa va lo'nda

ifodalash maqsadida jadvallardan o'rinli foydalanilgan. Ushbu qo'llanma yuzasidan bildiriladigan fikr – mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

### SHARTLI QISQARTMALAR RO'YXATI

*AE* – atama element  
*gram.* – grammatika  
*mus.* - muskul  
*b. k.* - bosh kelishik  
*f.* - jenskiy rod  
*m.* - mujskoy rod  
*n.* - sredniy rod  
*h.* - hokazo  
*hoz. zam.* - hozirgi zamon  
*lot.* - lotincha  
*q. k.* - qaratqich kelishigi  
*qiy. d.* - qiyosiy daraja  
*s. t.* - so'z turkumi  
*turl.* - turlanish  
*tusl.* - tuslanish  
*yun.* - yunoncha  
*Abl.* - Ablativus  
*Abl. Sing.* - Ablativus singularis  
*Acc.* - Accusativus  
*Acc. pl.* - Accusativus pluralis  
*Acc. sing.* - Accusativus singularis  
*Demin.* - Deminutio  
*Gen. pl.* - Genetivus pluralis  
*Gen. sing.* - Genetivus singularis  
*Nom. pl.* - Nominativus pluralis  
*Nom. sing.* - Nominativus singularis



## ***In via est in medicina via sine lingua Latina***

***Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q***

### **KIRISH**

1. Lotin tili va tibbiy terminologiya fani
2. Asosiy tibbiy atamalarning manbalari
3. Lotin til tarixidan qisqacha ma'lumotlar
4. Lotin tili o'qitilishining ahamiyati

#### **1. LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANI**

Hozirgi kunda lotin tili va tibbiy terminologiyaning fanligiga hech kim shubha qilmaydi. Chunki, bu til fan sifatida bir necha asrlardan buyon dunyo tibbiyoti oliygohlarida va tibbiyotga tegishli barcha o'quv muassasalarida o'qitilib kelmoqda. Bu fan **Siz** o'quvchi-talabalar uchun yangi fan hisoblanadi. Lotin tili nafaqat fan sifatida, balki aniq fan (biologiya, kimyo, anatomiya, genetika, gistalogiya, fiziologiya, botanika) larni ilmiy tahlil etib o'rganishda ham imkoniyatlari bisyor.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanining asosiy maqsadi o'quvchi talaba yoshlarni bo'lg'usi shifokorlik kasblariga tegishli bilim, ko'nikma va malakalarini shakillantirishdir. Buning uchun o'quvchi-talaba, avval atama, definitsiya va atamalar tizimi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lmog'i darkor (shart).

#### **Atama - maxsus leksika**

Fan-texnika va xalq xo'jaligining barcha sohalarida, ishlab chiqarishda ham muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqchi bo'lgan har bir mutaxassis (shifokor) o'z sohasiga tegishli maxsus leksikani, so'z birikmani, ya'ni atamani to'g'ri tushunishi va faoliyati davrida uni og'zaki yoki yozma nutqda qo'llay olish malakasiga ega bo'lmog'i darkor.

Atamaning asosiy vazifasi (lotincha **terminus-chegara**) ilmiy tushunchani bir ma'noda aniq ifodalab berishdan iborat. Atama so'z ham (fan, to'qimagen, kasallik, appenditsit, flyurografiya), so'z birikmasi ham (ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi,

gipertonik kasallik, gigiyena) bo'lishi mumkin. Tibbiyotda qo'llaniladigan atamalar kundalik faoliyatda qo'llaniladigan adabiy tildagi so'zlardan farq qilib, ilmiy va ilmiy texnika tushunchalarini ifodalaydi. U ilmiy nazariy xulosa natijasi, ma'lum bir ilmiy nazariy parcha aksidir (bilimlar ilmiy tizimi).

### **DEFINITSIYA YOKI QISQACHA ANIQLIK KIRITISH**

Fan va texnikani beqiyos rivojlanib borishi o'quvchi – talabalardan hushiyorlik hamda sergaklikni talab qiladi. Chunki kundalik hayotda bo'layotgan o'zgarishlar ularni tinimsiz mehnatga, o'rganishga, aqlan o'zlashtirishga undaydi. Shunday ekan lotin tilini amaliy o'rgatishda fonetik, grammatik va kasbiy terminlarga oid qoida – umumlashmalarni cho'zib o'tirmasdan, ularni qisqa, lo'nda tushuntirish imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kundalik hayotda qo'llaniladigan so'z va iboralardan farqli o'laroq, ilmiy tushunchaga definitiya(lotinchada –**definito**) yoki qisqacha tushuntirish qo'shimcha ravishda yoziladi. Bunda tushuntirilishi darkor bo'lgan ilmiy tushunchaning ayrim muhim tomonlari ochib beriladi.

Ma'lumki, maxsus lug'atlarda atamashunoslikka va ensiklopediyaga oid atamalar izohlar bilan beriladi, masalan:**Pnevmoniya**-bu o'pka to'qimalarida mustaqil holda yoki biror kasallik asorati sifatida hosil bo'luvchi shamollash jarayonidir. Talaba yoshlar ilmiy tushuncha mohiyatini bilishlari, bu bir tushunchani ikkinchisi bilan bog'lay bilish esa fanning tushunchalar tizimida uning o'rnini belgilab berish tushuniladi.

### **ATAMASHUNOSLIK TIZIMI**

Dunyo tilshunosligida ma'lum bir fan, atamashunosligi tushunchalar tizimidagi ilmiy tushunchani ifodalashda o'zaro bir – biri bilan aloqada va o'zaro munosabatda turgan nomlar, so'zlar, so'z birikmalari tizimidir. Atamashunoslik lug'atning boshqa qatlamlaridan farq qilib tartibga, normaga solish fani hamdir.

Mamlakatimiz, O'zbekiston Respublikasi batamom mustaqillikning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston Sog'liqni Saqlash vazirligi huzurida o'zbekcha tibbiy atamalarni tartibga solish bo'yicha atamashunoslik qo'mitasi ish olib bormoqda.

Ma'lumki, umumiy tilshunoslikning boshqa sohalari kabi atamashunoslik predmeti ham har doim harakatda, unda nimadir o'zgaradi, qo'shiladi, iste'moldan chiqariladi, chetlashadi. Ko'plab avvaldan tanish maxsus atamalar ( so'zlar, so'z birikmalar ) yangi ilmiy tushuncha ( mazmun ) kasb etadi. Atamashunoslik fan sifatida, ilmiy adabiy tilning ajrakmas tarkibiy qismidir.

Atoqli tilshunos olim, akademik V. X. Vasilenko ta'kidlashicha "aniq bir atamashunoslikning yo'qligi fan uchun nomunosibdir". Shifokorlik diplomini qo'lga olgan har bir yosh mutaxassisning tibbiy xodim kasbiga tegishli bo'lgan ya'ni lotin tilini mukammal o'zlashtirganligi haqida guvohlik beradigan yuridik hujjat hisoblanadi.

O'quvchi – talaba o'rta umumta'lim maktabda ona tili, rus tili va xorijiy tillardan birini o'rganadi, ammo tibbiyot oliygohi hamda kollejda, maktabda o'rganilgan tillar bilan bir qatorda lotin tilini o'rgana boshlaydilar. Albatta, yangi tilni har tomonlama puxta o'rganishdagi o'ziga xos nozik qiyinchiliklarini bartaraf etishda yuqorida zikr etilgan tillarni egallashda to'plangan bilim va tajribalar yordam beradi.

## **BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCH IMASHQLAR**

### **1. Quyidagi savollarni o'qing va ularga yozma, og'zaki javob bering**

1. Atama so'zining lotincha ma'nosini tushuntirib bering.
2. Definitsiya so'zining ma'nosini tushuntirib bering.
3. Siz ilmiy mohiyatni qanday tushunasiz?
4. Atamashunoslik so'zining ma'nosini tushuntirib bering.
5. So'z, so'z birikma bo'la oladimi ?
6. Lotin tili nima sabablarga ko'ra "o'lik til" deb aytiladi?

## **2. ASOSIY TIBBIY ATAMALARNING MANBALARI**

*Tibbiy atamalar* - tibbiyot bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, tibbiy biologik va boshqa bir necha fanlarga oid alohida atamashunoslik tizimlaridan iboratdir. Ular orasida o'z tushuncha va obyektlariga lotincha nom bergan uchta asosiy yo'nalishdagi tizim bor bo'lib, ular lotin tili so'z boyliklaridan turli hajm va darajada foydalanadi. Ushbu tizimlar quyidagilardan iborat :

### ***1. Anatomik va gistologik nomenklatura.***

Maskur turkum hozirgi kunda ma'lum bo'lgan barcha anatomik va gistologik atamalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon xalqaro anatomik nomenklaturasi ( Nomina anatomica ) birinchi marta Parijda 1955–yilda anatomlarning VI xalqaro kongressida qabul qilingan va lotincha so'zlarning bosh harfidan iborat qisqartma shakl -RNA tarzida ifodalangan. O'sha vaqtdan beri u bir necha bor to'ldirilgan va o'zgartirishlar kiritilgan. Birinchi kengash nashri so'z boshisida bu fan tarixida birinchi bo'lib xalqaro tan olingan lotincha anatomik atamalar ro'yxati sifatida qayd etilgan. Hozirgi kunda ham lotin tili

fanning barcha sohalari tili bo'lib qolmoqda. RNA 5600 dan ortiq anatomik sohani qamrab olgan. 1965–yil Sobiq Sovet gistologlari tomonidan lotin tilida tuzilib, anatomlarning Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan IX Xalqaro Kongressida rasmiy ravishda qabul qilingan Xalqaro gistologik nomenklatura ( atamalar-terminlar **majmuasi**) paydo bo'ldi. 1970 – yilda Leningrad gistologik nomenklaturasi (INH) yana ham to'ldirildi, o'zgartirishlar kiritildi, hozirgi kunda u 2750 dan ortiq atamalarni o'z ichiga oladi.1980–yilda Meksikada bo'lib o'tgan anatomlarning Xalqaro Kongressi (RNA)da, (INH)da to'ldirildi va o'zgartirildi. Nomenklaturalarning lotincha matni asosida ishlab chiqilgan, keyinroq 1986–yilda bo'lib o'tgan Butunittifoq anatomlar, gistologlar, embriologlar syezdida tasdiqlangan ruscha ekvivalent atamalar ro'yxati ham hozirgi kunda ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bu nomenklaturadan unumli va to'g'ri foydalanish uchun, lotincha atamalarning to'g'ri talaffuzini bilish uchun, mustaqil holda lug'atlarsiz lotincha atamalar yasay olish uchun lotin tili bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda yetarli darajada bilim va ko'nikmalarni egallash zarur.

## 2. *Klinik atamalar.*

(Yunoncha **klinike techne**-hakimlik san'ati, yotib davolanuvchi bemorlarga qarash). U turli klinik mutaxassislikka oid **pathos** - kasallikni o'rganuvchi fanlar, jumlasidan, patologik anatomiya va patologik fiziologiya atamalarini o'z ichiga oladi. Eng avval, xirurgiya(**cheirurgia**), ish faoliyat, kasalliklarning nomlari, patologik jarayon va holatlar, kasallik belgilari,simptomlar (yunoncha **symptome** - belgi) va sindromlar (yunoncha **syndrome**-belgilar hosil bo'lishi), operatsiya nomlari, tadqiqot va davolash usullari, tibbiy uskunalar, asboblari va boshqalar ham lotincha nomlanadi. Klinik atamashunoslik bu **SIZ** ma'ruzalarda, kasallarni tekshirishda, kasallik tarixini yozishda, darslik va yo'riqnomalar bilan ishlashda to'g'ri keluvchi minglab nomlar va atamalardir. Tibbiy atamashunoslikning bu tizimchasida lotin tilini qo'llash majburiy emas. Bu narsa ko'proq maktabga, an'analarga, madaniyat darajasiga va asosiy tibbiyot xodimi faoliyatini qamrovchi maxsus adabiyotlarning ( darslik, lug'at va bosh.) turiga bog'liq. Klinik atamashunoslikda qo'llangan kasalliklarning rus va o'zbekcha nomlari bilan birga lotincha ekvivalentlari ham ishlatilaveradi: churra tushish (hernia), suyak sinish (*fractura*), rak (*carcinoma*), ich terlama (*typhus abdominalis*) va boshqalar.Klinik atamalardan mohirona, unumli va samarali foydalanish uchun qadimgi yunon tili so'z yasash vositalarini bilish zarur, chunki klinik atamashunoslikda ulardan keng foydalaniladi. Bu haqidagi ma'lumot bilan **SIZ** lotin tili kursida tanishib chiqasiz.



### 3. *Farmatsevtik atamalar*


Bu o'simliklardan va kimyoviy moddalardan tayyorlangan dori-darmonlar nomi. O'zbekistonda tayyorlanayotgan har bir dori bir vaqtning o'zida ham o'zbekcha, ham lotincha nom oladi. Keyingisi lotin tilida retsept yozilganda qo'llaniladi. Bizning mamlakatimizda dori preparatlarining minglab nomi bor. Bularga dorivor o'simliklar, noorganik va organik kimyo, kimyoviy, sintetik va yarimsintetik birikmalar kiradi.

### 3. LOTIN TILI TARIXIDAN QISQACHA MA'LUMOT

Lotin tili (*Lingua Latina*) hindiyevropa oilasining italyan guruhiga taalluqlidir. Bu til juda qadimda paydo bo'lgan. Avval bu tilda lotinlar-Italiya markazidagi Latsiya orolida yashovchilar, shuningdek, qadimgi Rimda yashovchilar so'zlashgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili Rim regionlari bilan qadimgi madaniyat o'choqlari bo'lmish Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va boshqa mamlakatlarga hamda Yevropaning o'sha davrda madaniyati kam taraqqiy etgan qabilalariga kirib boradi. Asta-sekin lotin tili territoriyasi hozirgi Ruminiya va Portugaliya yerlarini ham egallagan ulkan Rim imperiyasining hukumron tiliga aylandi. Ammo, agar Yevropaning g'arbiy qismida lotin tili hech qanday qabila tili qarshiligiga uchramay yetarli darajada tez tarqalgan bo'lsa, O'rta yer dengizi huzurida-Yunoniston, Kichik Osiyo, Misrda uzoqroq davr davomida yozma shakllangan, lotin tiliga nisbatan yuqori madaniyat darajasiga erishgan tillar qarshiligiga uchraydi.

Yevropa tibbiyoti "otasi" **Gippokrat (Buqrot)** (taxm. miloddan avvalgi 460–370-yillarda) yashagan va ijod qilgan. Uning asarlarida ilmiy tibbiy atamashunoslik boshlanganligi aniqlangan.

Buqrot o'z asarlarida qo'llagan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lug'atga kiritilgan. Buqrot dan so'ng qadimgi yunon tilidagi tibbiy




atamashunoslikning shakllanishida Aleksandriya tibbiyot maktabidan **Gerofil III, Erozistrat, Ruf Efesskiy va Klavdiy Galenlar** eng ko'p hissa qo'shganlar. Bular Buqrot bilan birga bo'lg'usi ilmiy tibbiy atamashunoslikka asos solganlar va uning birinchi qavatini ko'targanlar.

Shunday qilib, antik davrdan boshlab atamashunoslik yunon-lotin tillari asosida shakllana boshladi. Bu ikki til tibbiy atamashunoslikning

butundavrlari mobaynida an'anaviy tus oldi va hozirda ham davom etmoqda.

Miloddan avvalgi 476 yil G'arbiy Rim imperiyasi ag'darilgandan so'ng og'zaki lotin tili asta-sekin o'zining rasmiy rolini yo'qota bordi. Eski roman (lot. Romanus) tillari o'rtasidagi farq tobora kuchaya boshladi. Roman tillariga asos vazifasini og'zaki lotin tili bajardi. Shu bilan birga adabiy lotin tili kitobiy, "ilm" tili sifatida sun'iy ravishda o'sishni G'arbiy Yevropada yana 100 yillar mobaynida o'rta asrlar davrida – o'rta asr lotini, yuksalish ( XIV –XVI asrlar ) davrida gumanitar lotin nomi bilan davom ettirdi. Lotin tilida o'qitildi, ilmiy asarlar yaratildi. Qadimgi yunon va arab hakimlari asarlari lotin tiliga o'girildi.

**Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari"** asari XII asrdayoq lotin tiliga o'girilib, qariyb XVI asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi. Rossiyada fanning dastlabki qadamlari lotin tilida bitilgan asarlarning tarjimai bilan ham bog'liq. Rus ma'rifatchi olimi Yepifanit Slavineskiy ma'lumotlariga qaraganda, Andrey Vezaliyning anatomiya



haqidagi asarining qisqartirilgan variantini Rossiyada engbirinchi tashkil topgan tibbiyot maktabi o'quvchilari uchun tarjima qilgan. Buyuk rus olimi M.V.Lomonosovning ko'pgina asarlari ham lotin tilida yozilgan. Rus tarjimonlari rus tibbiy atamashunosligi yaratilishida faol mehnat qilganlar, Rossiyada birinchi anatom professor, akademik F.P. Protasov rus tilidagi anatomik atamashunoslikka asos soldi.

XIX asrda lotin tili ilmiy, yozma, kitobiy muloqotning xalqaro vositasi sifatida hamma joylarda milliy tillarga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Lekin shu bilan birga nominatsiya ( lot. **nominatio** – ism, nom, atama) uchun xalqaro vosita sifatida o'z vazifasini saqlab qoldi.

**Nominatsiya** - bu anatomiya, gistologiya, embriologiya, mikrobiologiya, qisman patologik anatomiya va klinik fanlar hamda farmakologiya fanlarida tushuncha va obyektlarni bildiruvchi nomlardir.

Qadimgi yunon va lotin tillarining leksik va so'z yasovchi boyliklari (o'zak, prefix, suffikslar ) hozirgi kunda ham minglab atamalar yasash uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi.

#### 4.LOTIN TILI O'QITISHNING AHAMIYATI

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Aloqa vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada,jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda darsda amaliy egallash mumkin.

Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan, globallashtirish davri o'z hukumronligini o'tkazayotgan bir davrda tillarni har tomonlama puxta egallash ulkan ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hududida tibbiyot oliygohlari va kollejlarida tahsil oladigan o'quvchi-talabalar odatda to'rt tilni (ona tili, rus tili, ingliz tili,lotin) o'rganadilar. Bu esa o'quvchi-talabalardan nafaqat kasbiy fanlarni, shuningdek tabobatda eng ko'p qo'llaniladigan lotin tilini ham har tomonlama yetarli darajada o'rganishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan tibbiyot oliygohlari va kollejlarida o'rganilayotgan lotin tili shunchaki til emas,u dunyo tibbiyoti ilmidagi va amaliyotida shuningdek, aniq (biologiya, kimyo, zoologiya, botanika, anatomiya, gistologiya, genetika) fanlarda ham keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham Siz bo'lg'usi shifokorlar o'z maqsadlaringizni og'ishmay amalga oshirish umidida bo'lsangiz, albatta, lotin tilini chuqur o'rganish faqat foydadan xoli emas. Kelajak yetuk mutaxassislarning terminologiyasini tayyorlash asoslari, talabalarni lotin tilida tibbiy terminlarni bilish va malakali ravishda qo'llash, shuningdek, lotin tilidagi grammatika elementlarini tushunish va lotin tilidagi terminlarni to'g'ri tushunish uchun zarur bo'lgan elementlarni o'rgatish, o'quvchilarni uchta asosiy tibbiy terminlar asoslarini, jumladan anatomo-gistologik, klinik va farmatsevtikani o'rganish, Yevropa tillariga xos bo'lgan umumiy tillardagi qonunchilik talablarining tushunchalarini shakllantirish va o'quvchilarning ilmiy adabiyotlarni o'rganishda to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, tezislar tayyorlash, zamonaviy ilmiy muammolarni o'rganish, o'quvchilarni o'zbek tilidan lotin tiliga va lotin tilidan o'zbek tiliga berilgan terminlarni tez va sifatli tarjima qilish qobiliyatini shakllantirish, qadimgi madaniyat va tarix bilan zamonaviy madaniyatning aloqasi to'g'risida talabalarining g'oyalarini shakllantirish; o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Innovatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish: interfaol taxtalar yordamida slaydlar, prezentatsiyalar, davra suhbatlari (muhokamalar, treninglar, miya hujumi, amaliy tadqiqotlar va boshqalar), tibbiyot tarixida yunon va lotin tillarining roli va klassik tillarning tibbiyotning professional tilini shakllantirishdagi hissasini o'rganishni talab etadi.

Dunyoda ikkita klassik til bor, shuni bittasi, albatta, lotin tilidir. Bu nufuzli tilning ajoyib imkoniyatlaridan talaba yoshlarni nafaqat yetuk mutaxassis (shifokor)

etib tayyorlashda balki, ularning dunyoqarashlarini kengayishiga va komil inson darajasida tarbiyalanishlarida mashhur antik yozuvchilar, faylasuflarning qisqa ko'rinishdagi tugal mazmunli hikmatli so'zlari va maqollar hamda siyosiy arboblarning nutqidan olingan alohida iboralar, shuningdek keyingi yangi avlod olimlariga tegishli lotincha aforizmlar o'ziga xos o'rin egallaydi.

Tanlab olingan ko'pgina hikmatli so'zlar, maqollar va aforizmlar nuqul bemorning hayoti, kasalliklar, o'lim va umuman sog'lig'i, shuning bilan bir qatorda bo'lg'usi shifokorning butkul faoliyatiga taalluqli bo'lib tibbiyot deontologik ta'limotiga aylanib ketgan. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, lotin tili o'lik til bo'lishiga qaramasdan, shu kecha-kunduzda jahonning ko'pgina tillari fondidagi baynalmilal lug'atlarda turli-tuman ma'nodagi lotinizmlar og'zaki va yozmanutqda keng qo'llanilmoqda. Masalan: communal, kommunikatsiya, kredit, diskreditatsiya, dekret, kredo, kurs, kurator, prokuror, kursant, konkurent, konkurs, ekskursiya, ekskursant, gradus, gradatsiya, degradatsiya, agressiya, congress, progress, regress, yurist, yuristkonsult, kollega, kolleksiya, repetitsiya, appétit, kompetensiya, repetitor, konservator, konservatoriya, observatoriya, rezerv, rezervatsiya, valeriana, valyuta, invalid, ekvivalent, monument, ornament, stil, illustratsiya va shularga o'xshagan boshqa ko'p so'zlar.

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI SAVOLLAR***

**Quyidagi savollarni o'qing va og'zaki javob bering.**

1. Tibbiy atamashunoslikda o'z tushuncha va obyektlariga nechta lotincha nom bergan asosiy yo'nalishdagi tizimni bilasiz? Ularni nomlab bering.
2. Nomenklatura so'zi ma'nosini tushuntirib bering.
3. Klinik atama deganda nimani tushunasiz?
4. Farmatsevtik atamalar deganda nimani tushunasiz?
5. Siz kim bo'lmoqchisiz va lotin tilini nima uchun o'rganasiz?
6. Lotin tilining qanday tarbiyaviy imkoniyatlari bor?
7. Baynalmilal so'z ma'nosini tushuntirib bering.
8. Lotin tilini Siz o'rgangan xorijiy, rus va ona tillarining qanday o'xshash tomonlari bor?



## F O N E T I K A-ANATOMIK VA BIOLOGIK TERMINLAR ASOSIDA

### §1.LOTIN ALIFBOSI. UNLI VA UNDOSH HARFLAR TALAFFUZI. DIFTONG, DIGRAFLAR VA HARF BIRIKMALARI

**Maqsad.** Lotin til alifbosi harflari yozilishi va talaffuzi, o'qilishini eslab qolish; harf va harf birikmalari ifodalaydigan tovushlar talaffuzi ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish.

#### *LOTIN ALIFBOSI*

Lotin alifbosida 25 ta harf bor.

Harflarning yozilishi	Harflarning nomlari	Harflarning yozilishi	Harflarning nomlari
<b>A a</b>	<b>a</b>	<b>N n</b>	<b>n</b>
<b>B b</b>	<b>b</b>	<b>O o</b>	<b>o</b>
<b>C c</b>	<b>ts / k</b>	<b>P p</b>	<b>p</b>
<b>D d</b>	<b>d</b>	<b>Q q</b>	<b>k</b>
<b>E e</b>	<b>e</b>	<b>R r</b>	<b>r</b>
<b>F f</b>	<b>f</b>	<b>S s</b>	<b>s / z</b>
<b>G g</b>	<b>g</b>	<b>T t</b>	<b>t</b>
<b>H h</b>	<b>h</b>	<b>U u</b>	<b>u</b>
<b>I i</b>	<b>i</b>	<b>V v</b>	<b>ve</b>
<b>J j</b>	<b>y</b>	<b>X x</b>	<b>ks</b>
<b>K k</b>	<b>k</b>	<b>Y y ( epsilon )</b>	<b>i</b>
<b>L l</b>	<b>l</b>	<b>Z z</b>	<b>z</b>
<b>M m</b>	<b>m</b>		

#### *TOVUHLAR TASNIFI*

**a, e, o, i, u, y** lar unli harflardir.

**b, c, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z** harflari esa undosh harflardir.

Unli harflar o'z navbatida bir unlilar (monoftonglar) va ikki unlilar (diftonglar) ga bo'linadi.

#### *UNLI HARFLAR VA ULARNING TALAFFUZI*

Lotin tilida 6 (oltita) unli harf bor. Ularning talaffuzi quyidagicha:  
**A, a** unli harfi o'zbek tilidagi [a] unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: **amarus** [amarus] - achchiq, **albus** [albus] - oq, **abdomen**[abdomen] -qorin.  
**E, e** unli harfi o'zbek tilidagi [e] unli tovushidek talaffuz qilinadi.  
 Masalan: **pes** [pes] - oyoq, **elasticus**[elastikus]-bukluchan, **derma**[derma] - teri.  
**I, i** unli harfi o'zbek tilidagi [i] unli tovushidek talaffuz qilinadi. Masalan: **internus** [internus] - ichki, **intestinum** [intestinum] - ichak.  
**O, o** unli harfi o'zbek tilidagi [o] unli tovushidek talaffuz qilinadi.  
 Masalan: **organum**[organum] - a'zo, **lobus** [lobus] -bo'lak, **oculus** [okulus] –ko'z.  
**U, u** unli harfi o'zbek tilidagi [u] unli tovushidek talaffuz qilinadi.  
 Masalan: **uterus**[uterus] - bachadon, **ulcus** [ulkus] - yara, **urina** [urina] - siydik.  
**Y, y** unli harfi o'zbek tilidagi [i] unli tovushidek talaffuz qilinadi.  
 Masalan: **symptom** [simptoma] - belgi, alomat, **Amygdala** [amigdala] - bodom. Bu harf grek tilidan o'zlashgan so'zlardagina uchraydi.

### «Y»HARFINING QO'LLANILISHI

#### Unli “Y” harfining tibbiy atamalarda qo'llanilishi

Unli “Y” harfi yunon tilidan o'zlashtirilgan atamalarda uchraydi. Y” unlisi old qo'shimchalarda, o'zak va qo'shimchalarda uchrashi mumkin. Buning uchun quyidagi old qo'shimcha, o'zak va qo'shimchalarni esda saqlash kifoya.

<b>oxy</b> -	taxir; Oxygenium - kislorod	<b>hydr</b> -	
<b>hyper</b> -	yuqori, ko'proq : <i>hypertonia</i> - qon bosimining ko'tarilishi	<b>pyo</b> -	
<b>hypo</b> -	past, kamroq ; <i>hypotonia</i> - qon bosimining pasayishi	<b>pyr</b> -	
<b>glyc</b> -	shirin; Glycyrrhiza - shirinmiya	<b>syn</b> -	
<b>-yl</b> -	modda; amylum,	<b>myc</b> -	
<b>hydr</b> -	suv; Hydrogenium - vodorod	<b>myo</b> -	
<b>pyo</b> -	yiring; <i>pyorrhoea</i> - yiring oqishi		
<b>myo</b> -	mushak; myocardium - yurak mushagi		
<b>pyr</b> -	issiqlik; Antipyrinum - haroratni tushiruvchi dori		
<b>myc</b> -	qo'ziqorin; Biomycinum - biomitsin		

**dys** - kasallik holati yoki a'zo faoliyatining buzilishi; *dysuria* - qovoqdan siydik chiqishining qiyinlashuvi  
**syn[sym]** - ulash; *symphysis* - qo'shilish  
**poly** - ko'p; *polyvitamina* - polivitamin

### Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing

#### **A,a [a]**

**ac** [ak]; **ad** [ad]; **addo** [addo]; **animal** [animal]; **ars** [ars]; **amo** [amo]; **amor** [amor]; **avi** [avi]; **atum** [atum]; **ago** [ago]; **aditus** [aditus]; **ala** [ala]; **avis** [avis]; **alter** [alter]; **arena** [arena].

#### **E,e [e]**

**edo** [edo]; **edi** [edi]; **esum** [esum]; **ego** [ego]; **et** [et]; **pes** [pes]; **derma** [derma] **tego** [tego]; **rego** [rego]; **gero** [gero]; **veto** [veto]; **peto** [peto]; **stella** [stellya].

#### **O,o [o]**

**octo** [okto]; **olla** [ollya]; **opus** [opus]; **orbita** [orbita]; **orno** [orno]; **ovis** [ovis]; **ob** [ob]; **servo** [servo]; **octo** [okto]; **odi** [odi]; **odor** [odor]; **olyim** [olim].

#### **I,i [i]**

**ibi** [ibi]; **illa** [illya]; **in** [in]; **intra** [intra]; **inter** [inter]; **intro** [intro]; **lavo** [lavo]; **lago** [lago]; **laboro** [laboro]; **lado** [lado]; **margo** [margo]; **mors** [mors]; **os** [os].

#### **U,u [u]**

**ubi** [ubi]; **ulna** [ulna]; **unus** [unus]; **una** [una]; **urina** [urina]; **urtica** [urtika]; **ursus** [ursus]; **usura** [usura]; **usus** [usus]; **ut** [ut]; **uva** [uva]; **ursi** [ursi].

#### **Y, y [i]**

**symptoma** [simptoma]; **Amygdala** [amigdala]; **Gossypium** [gossipium]; **cystis** [tsistis]; **zygomaticus** [zidomatikus]; **hygiene** [gigiene]; **cytus** [tsitus].

### ***DIFTONG, DIGRAFLAR VA HARF BIRIKMALAR***

Bir tovushni ifodalochi ikki unli harf birikmasi **diftong** deb ataladi. Lotin tilida asosan to'rtta diftong bor:

“**ae**” unli harflar birikmasi o'zbekcha “e” deb o'qiladi. Masalan, **aegrotus** [egrotus] – bemor, **gangraena** [gangrena] – tirik to'qimalarning o'lishi, **diaeta** [dieta] – parhez, **dieta**

“**oe**” unli harflar birikmasi o'zbekcha “e” deb o'qiladi. Masalan, **oedema** [edema] – shish. **Foeniculum** [fenikulum] - ukrop, fexel

“**au**” unli harflar birikmasi [ay] dagi [y] harfi qisqa o'qiladi.

**Aurum** [aurum] – oltin, **trauma** [trauma] – shikastlanish, **auris** [auris] - quloq

“**eu**” unli harflari birikmasi [ev] deb talaffuz qilinadi.

Masalan: **neuralgia** [nevralgiya] -asab kasalligi, **pneumonia** [pnevmoniya] o'pkaning yallig'lanishi, **Leucomycin** [leykomitsin] – leykomitsin dori.**Eucommia**[evkommia]-evkommiya, **Eucalyptus** [evkalipt] – evkalipt o'simligi

Ba'zi hollarda qator kelgan ikki unli harf birikmasi diftong hosil qilmaydi, u holda ikkinchi unli harfning ustiga ikki nuqta qo'yiladi va unlilar ayrim-ayrim o'qiladi. Masalan:

**aër** [ayer] - havo, **Aërosolum** [ayrozolum] - aerosol, **Aloë** [aloe] –sabur, aloe vera

### Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing

**ae** [e] – **aeger** [eger], **aegre** [egre], **aegrotus** [egrotus], **aetas** [etas], **aetatis** [etatis], **aestimo** [estimo], **aether** [eter]

**oe** [e] – **oedema** [edema], **oesophagus** [esofagus], **oeto** [eto], **oetoti** [etoti], **oestrogenus** [estrogenus], **foeniculum** [fenikulyum]

**au** [au] – **aurum**[ayrum], **trauma** [trauma], **auctor** [ayktor], **audio** [audio], **auditivus** [auditivus], **auricular** [aurikula], **auris** [auris], **aurum** [aurum]

**eu** [eu] – **neuralgia** [nevralgiya], **pneumonia** [pnevmoniya], **leukomycin** [leykomitsin], **Eucalyptus** [evkalipt], **eucommia** [eukomya], **Euphyllinum** [evfilinum].

### *UNDOSH HARFLAR VA ULARNING TALAFFUZI*

**Cc**-harfi ikki xil o'qiladi: **e, i, y** – yumshoq unli harflari va **ae, oe** diftonglari oldida [ts] deb o'qiladi. Masalan: **cerebrum**[tserebrum], **cystis**[tsistis], **cito**[tsito], **caecum** [tsekum], **coelia** [tselya].

Boshqa hollarda, ya'ni **a, o, u** - unlilari oldida, undoshlar oldida va so'z oxirida kelsa **c** harfi [k] deb o'qiladi. Masalan: **caput**[kaput], **costa**[kosta], **Cuprum** [kuprum], **lac** [lyak], **medicus**[medikus].

**H h** – o'zbekcha [h] kabi talaffuz qilinadi. Masalan: **herba** [herba], **humanus** [humanus], **hepar** [hepar], **humerus** [humerus]

### **Eslatma:**

**H h** harfi yunon tilidan olingan so'zlarda, diftong yoki “y”unlisidan oldin kelsa [g] deb o'qiladi: **haemo**, **hypotonia**, **hypertonia**

**K k**- harfi tibbiy lotin tilida kam qo'llaniladi; faqatgina yunon va arab tilidan kirib kelgan atamalarda uchraydi. Masalan: **Kalium**[kalium], **keratoma** [keratoma], **keratitis** [keratitis]

**Ll**-harfi yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan: **ala**[alya], **luna**[lyuna], **labium** [lyabium].



**S s** - harfi ikki unli yoki har qanday bir unli bilan **m, n** undosh harflari o'rtasida [z] deb, boshqa hollarda esa [s] deb o'qiladi. Masalan: Rosa [roza], Vaselinum [vazelinium], neoplasma [neoplazma], mensis [menzis]

**X x** - harfi ikki unli o'rtasida kelsa [gz] deb o'qiladi, qolgan hollarda [ks] yoki [ks] deb oqiladi. Masalan: apex [apeks], exitus [egzitus], lex [leks], radix [radiks].

**Z z** - harfi yunon va boshqa tillardan o'zlashtirilgan atamalarda [z] deb o'qiladi. Masalan: zona [zona], zygoma [zigoma], zonula [zonula]. Lekin Zinkum va influenza atamalaridagi "z" harfi [ts] kabi talaffuz etiladi.

### ***HARF BIRIKMALARI***

**Q, q** - harfi doimo "u" harfi bilan birgalikda kelib, unli harf oldidan kelganda [kv] deb talaffuz qilinadi: aqua [akva] – suv, quinque [kvinkve]- besh.

**ngu** - harflar birikmasi unli oldida kelganda [ngv], boshqa hollarda esa [ngu] deb o'qiladi: lingua [lingva] – til, unguentum [ungventum]-surtma, angulus [angulus] - burchak.

**su** -harf birikmasi **a, e** unli harflari oldida kelsa [sv], boshqa hollarda [su] deb o'qiladi: suavis [svavis] yoqimli, consuetudo [konsvetudo]-odat, suasor [svasor], consumor [konsumor]

**ti**-harf birikmasi unlilar oldida kelganda [tsi] deb o'qiladi, lekin **s, x** undoshlaridan keyin kelganda esa [ti] deb talaffuz qilinadi:

Articulatio [artikulatsio] -bo'g'im, solutio [solutio] – eritma, ostium [ostium]-teshik, mixtio [mikstio] - aralashma.

**sch**-harflar birikmasi [sx] deb o'qiladi: Schizandra [sxizandra]- limono't, ischium [isxium] -quymich suyagi.

### ***DIGRAFLAR***

Lotin tilidagi digraflar asosan yunon tilidan o'zlashtirilgan atamalarda uchratish mumkin. Digraf bu bitta tovush beradigan ikkita undosh birikmasi. Lotin tilida 4 (to'rtta) digrafda **h** harfi mavjud.

**ch** – harf birikmasi [x] deb talaffuz qilinadi: chirurgus [xirurgus], china [xina]

**ph** - harf birikmasi [f] deb o'qiladi: Phosphorus [fosforus].

**rh** - harf birikmasi [r] deb oqiladi: rhamnus [ramnus], Rheum [reum], rhaps [rafe].

**th**- harf birikmasi [t] deb o'qiladi: Mentha [menta], thermometrum [termometrum].

## **BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI**

### **MASHQLAR**

#### **1. Diftonglar va unli harflarning talaffuz qilinishiga e'tibor qilib, ovoz chiqarib o'qing.**

anaemia, amarus, auris, bacca, bacterium, caecum, cito, cutis, dens, decoctum, emulsum, falx, gaster, haema, internus, intercain, Juniperus, lobules, medulla, nasus, oedema, papilla, rubor, scabies, scapula, sutura, suceus, tabuletta, tuberculum, ureter, uterus, vagina.

#### **2. Undosh harflarning o'qilishiga e'tibor qilib, ovoz chiqarib o'qing.**

activatus, leucaemia, haematogenum, occipitalis, contagiosus, nasalis bacteriaemia, costalis, roentgenum, suppositorium, conjunctivus, sternum, gargarisma, spirituosus, paralysis, densitas, auris, laryngitis, symptoma, auscultare, Crataegus, hyperaemia, gangraena, paediatr, haemostaticus, oestrogenus, aestimare, vaccinum, officinalis, pancreas, cellula, hygiene, cera, cito, statim, preparatum, prognosis, medicamentum, diagnosis.

#### **3. Quyidagi atamalarda C harfining o'qilishini tushuntiring.**

canalis, cerebrum, costa, occipitalis, conjunctivus, tuberculum, Crataegus, collum, cranium, cytus, ductus, processus, tuberculum, rectum, facies, tinctura, caecum, cella, calvaria, decoctum, cerebellum, causticus, ventriculus medicinalis, columna, scapula, abducens, abductor, acidum, acetum, bacca, bacterium, cancer, cartilago, cutis, cystis, elasticus, fascia, hepaticus, lac, medicamentum, mucilago, narcosis, oculus, pancreas, rectalis, scabies, succus, tuberculum, Urtica, vaccinum.

#### **4. Quyidagi tibbiy atamalarni o'qing va S harfining qanday o'qilishini tushuntiring.**

abdominalis, Anisum, amarus, amnesia, bacillus, blastoma, calcaneus, cardiacus, cutis, cystis, dosis, narcosis, naturalis, nasus, obductus, otitis, optimus, spasmus, tabes, usus, vaselinum, vesica, virus, auris, abducens, compositus, dens, dentalis, depuratus, dilutus, destillatus, durus, dysuria, dysenteria, emulsum, fissura, fibrosus, genus, hydrops, incisura, intestinum, internus, lobus, mastitis, mollis, morbus, neurosis, ostium, paries, percussio, Ricinus, rosa, siccus, sternum, succus, species, tonsilla, ulcus, vaginalis, vomitus

#### **5. Quyidagi atamalarni o'qing, X va Z harflarining o'qilishiga e'tibor bering.**

zona, exoderma, Xeroformium, eczema, extractum, zygoma, dexter, mixtura, Zincum, Taraxacum, radix, influenza, cortex, maxilla, externus, zygomaticus, zonula, Oryza

## ***MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN MASHQLAR***

### ***1. Atamalarni o'qing va digraflarning talaffuziga e'tibor bering.***

Althaea, aether, bronchus, camphora, chirurgus, bronchialis, Morphinum, encephalon, cephalgia, metaphysis, nephritis, phlegmone, physiotherapia, physiologia, thorax, xerophagia, Rheum, phalanx, rheumatismus, saccharum, rhaphe, erythema, therapia, diaphoreticus, phosphorus, Mentha, concha, cirrhosis, Helianthus, Phenolum, Chamomilla, Schizandra, diaphragma, Ephedra, lethargia, Strophanthus, pharmacologia, chronicus, terebinthina.

### ***2. Quyidagi atamalarni o'qing va ti, qu, ngu, su harf birikmalari talaffuziga e'tibor bering.***

angulus, pinguis, essentia, lingua, suasor, articulatio, costio, operatio, equisetum, Sanguisorba, unguentum, Liquiritia, unquis, aqua, quadriceps, suavis, Suinsulinum, ostium, mixtio, longus, acqualis, Quercus, sanguis, squama, combustion, injectio, substantia, solutio, liquor, sublingualis.

### ***3. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.***

Lotin alifbosini yoddan aytib bering.

1. Qaysi harf [i] tovushidek talaffuz qilinadi?
2. Qanday diftonglarni bilasiz?
3. Ae, oe, au, eu harf birikmalari qanday talaffuz o'qiladi?
4. Ai, ei, ou harf birikmalari qanday talaffuz qilinadi?
5. C harfi qaysi hollarda [s] va [z] deb o'qiladi?
6. S harfi qaysi hollarda [s] va [z] deb o'qiladi?
7. X va Z harflarining o'qilish qoidasini aytib bering.
8. Qu va ngu harf birikmalari qanday o'qiladi?
9. Ti va su harf birikmalari qanday o'qiladi?
10. Sch, ch, ph, th, va rh harf birikmalari qanday o'qiladi?

## ***MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN LOTIN MAQOLLARI***

1. Non scholae, sed vitae discimus.

*Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyamiz.*

2. In via est in medicina via sine lingua Latina.

*Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.*

3. Radix litterarum amararum sunt, fructus dulces.

*Ilmning ildizi achchiq, mevasi esa shirin.*

## LEKSIK MINIMUM

atlas - I bo'yin umurtqasi	axis- II bo'yin umurtqasi
caput -bosh, boshcha	cerebrum -katta bosh miya
collum - bo'yin	columna -pog'ona
corpus - tana	cranium - kalla suyagi
dorsum - orqa	encephalon - bosh miya
homo -inson, odam	os - suyak
skeleton - skelet	substantia -modda
thorax - ko'krak	truncus - tana, gavda
vertebra - umurtqa	costa - qovurg'a

## §2.URG'U QO'YISH QOIDALARI. BO'G'INLARNING QISQA VA CHO'ZIQ O'QILISHI

1. Lotin tilida so'zlarning bo'g'inlarga ajratilishi.
2. Bo'g'inlarning cho'ziq va qisqalik qoidalari.
  - a) cho'ziqlik qoidasi
  - b) qisqalik qoidasi
3. Lotin tilida urg'u

**Maqsad.** Lotin tilida urg'u qo'yish qoidalari bilan tanishish; so'zlarning bo'g'inlarga ajratilishi; asosan so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq va qisqa o'qilish qoidalarini bilish;

O'zbek tilida urg'u odatda ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'inidagi unli tovushga tushadi. Masalan: jigar, yurak.

Lotin tilida esa urg'u so'zning oxiridan ikkinchi yoki uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi.

1. Lotin tilida urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi.

2. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi : Costa - qovurg'a; caput - bosh
3. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'in cho'ziq bo'lsa, urg'u o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi : Medicina-tibbiyot; tinctura -spirtli eritma, destillatus-tozalangan; solutus - eritilgan.
4. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa , urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi: Medicus-shifokor; pilula-hab dori; cranium - kalla suyagi.

## **LOTIN TILIDA SO'ZLARNING BO'G'INLARGA AJRATILISHI**

Lotin tilida o'zbek tilidagidek so'zlar bo'g'inlarga ajratiladi va so'zda necha unli harf bo'lsa , shuncha bo'g'in bo'ladi.

Masalan: **Com - po – si – tus, de – pu - ra - tus, mas – ti – tis.**

Tovushlar cho'ziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning cho'ziqligini belgilash uchun harf ustiga to'g'i chiziqcha , qisqaligini belgilash uchun yoysimon chiziqcha qo'yiladi:

**ă ā, ǒ ō, ĭ ī, ŭ ū, ě ē**

Tovush va bo'g'inlarning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlash uchun harf ustiga urg'u belgisi ( ' ) qo'yish kerak

Lotin tilida urg'u so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi.

- ex – trac-tum
- ver - tēb - ra
- co - la - te – ra- lis
- pi- lū – la

## **BO'G'INLARNING CHO'ZIQ VA QISQALIK QOIDALRI**

### **a) Cho'ziqlik qoidasi**

1. Agar bo'g'inda diftong bo'lsa, o'sha bo'g'in cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *gangrāena* - to'qimalarning o'lishi; *diāeta* - parhez; *lagōena* - shisha idish.
2. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki “x” va “z” undoshlari oldida kelsa, shu bo'g'in cho'ziq o'qiladi.  
Masalan: *maxīlla*-yuqori jag', *tabulēta*–tabletka, *unguēntum*-surtma, *Glycyrrhīza*-qizilmiya,shirinmiya, *reflēxus*- reflex.

3. Agar bo'g'inda **ur, in, at, ut, ar, al, os** qo'shimchalari bo'lsa, bu bo'g'inlar cho'ziq o'qiladi. Masalan: *fissūra* - tirqish; *Analgīnum*-Analgin; *medicīna*-tibbiyot *nitrātis*-nitrat; *acūtus*-o'tkir; *aquōsus*- suvli; *musculāris*-mushakga oid; *costālis*-qovurg'aga oid.

### ***Bo'g'inlarning cho'ziq talaffuz etilishiga misollar***

1. **ae, oe** diftonglari so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inda kelsa :

di – āe – ta	gan – grāe - na
3 2 1	3 2 1

2. Unli harf ikki yoki uchta undoshdan oldin kelsa :

li - ga - mēn -tum
4 3 2 1

3. Unli harf z va x undoshlaridan oldin kelsa :

re - flē - xus
3 2 1

4. **ur, -in** ot yasovchi suffikslari :

in - ci - sū- ra	of - fi - c ī-na
4 3 2 1	4 3 2 1

5. **at, -ar, -al, -os** sifat yasovchi suffikslari :

ar – cu – ā - tus	oc – ci - pi - tā - lis
4 3 2 1	5 4 3 2 1
ar - ti - cu - lā – ris	ner - vō sus
5 4 3 2 1	3 2 1

### ***b) Qisqalik qoidasi***

1. Agar unli harf unli harf oldida kelsa, o'sha bo'g'in qisqa o'qiladi.

Masalan: *Olēum* -moy; *labīum* - lab; *foīum*–barg .

2. Agar unli harf **bl, br, cl, cr, di, dr, pl, pr, tl, tr** harf birikmalari oldida kelsa, shu unli qisqa talaffuz qilinadi: *vertebra* - umurtqa; *cerebrum*- bosh miya; *cicatrix* - chandiq ; *palpebra* - qovoq .

Agar unli harf **ch, th, ph, rh, qu** harf birikmalari oldida kelsa qisqa o'qiladi: *stomachus* - oshqozon; *reliquus* - qoloq; *Amaphos*-Amafos; *choledochus* - o't (safro) ga oid.

3. Agar bo'g'inda **ul, ol, ib, il, id** harf birikmalari bo'lsa, bo'g'in qisqa o'qiladi: *scapula*-kurak; *gracilis*-nafis; *solubilis*- eruvchan; *fluidus* - suyuq.

4. **ia** qo'shimchasiga ega bo'lgan ayrim yunon atamalarida urg'u **i** harfiga tushadi: *Dysenteria*-ichburug'; *anaemia* -kamqonlik; *therapia*-davolash; *hypertonia* - qon bosimining ko'tarilishi.

### ***Bo'g'inlarni qisqa talaffuz etilishiga misollar***

1. Unli "br" birikmasi oldida kelsa :

ver - te - bra	ce - re - brum
3 2 1	3 2 1

2. Unli unlidan oldin kelsa :

o - le - um	fo - ve - a
3 2 1	3 2 1

3. -ol, -ul ot yasovchi suffikslari :

sca - pu - la	al - ve - o -lus
3 2 1	4 3 2 1

4. -il, -it, -id, -ic sifat yasovchi suffikslari :

so - lu - bi - lis	flu - i - dus
4 3 2 1	3 2 1
com - po - si - tus	tho - ra - ci - cus
4 3 2 1	4 3 2 1

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

***1. Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qing.***

costa- qovurga; apex-cho'qqi; arcus-yoy; bursa-xalta; cauda-dum; barba-soqol; cavum-bo'shliq; minor-kichik; cornu-shox; situs-holat; ramus- tarmoq, collum-bo'yincha, manus- qo'l, vomer-dimog'; sternum-to'sh; atlas-1-bo'yin umurtqasi; sella-egar.

***2. Quyidagi so'zlarni bo'g'inga ajrating va urg'u qo'ying.***

bronchialis	oxycoccus	epigastrium
Belladonna	Crataegus	Kalium
bacterium	species	vitaminum
spongila	intravenosus	Helichrysum
suppositorium	region	cerebralis

***3. Qo'shimchalarning cho'ziq va qisqaligini aniqlab urg'u qo'ying***

hiatus sacralis, incisura vertebralis, clavicularis, hyomandibularis, mentalis, sulcus pulmonalis, foramen spinosum, fossa glandulae lacrimalis, processus zygomaticus, incisura supraorbitalis, pars squamosa, nodi pancreatici, pelvinus, pubicus, hamulus pterygoideus, fossa pterygopalatina



**4. Urg'u qoidasiga rioya qilgan holda quyidagi tibbiy atamalarni ovoz chiqarib o'qing**

ligamentum, extractum, vertebra, complexus, Glycyrrhiza, cerebrum, pilula, pneumonia, cella, musculus, acidum, femur, pectoralis, clavicula, medicatus, therapia, scabies, palpebra, oleum, medicina, dystonia, fractura, anaemia, aethereus, tuberculum, folium, solutio, decoctum, tinctura, depuratus, signatura, operatio

**5. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering**

1. Urg'u qoidasini gapirib bering.
2. Bo'g'inlarning cho'ziqlik qoidasini aytib bering.
3. Bo'g'inlarning qisqalik qoidasini aytib bering.
4. Tibbiy atamalarda urg'u qaysi bo'g'inga qo'yiladi?
5. Unli tovush qachon cho'ziq o'qiladi?
6. Unli tovush qachon qisqa o'qiladi?

**MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN LOTIN MAQOLLARI**

1. Omne principium difficile est.

*Har bir ish boshlanishidagina qiyin.*

2. Qui scribit, bis legit.

*Yozmoq, ikki qayta o'qimoqdir.*

3. Alit lectio ingenium.

*O'qish aqlni peshlaydi.*

**LEKSIK MINIMUM**

acromion- akromion

articulation-bo'g'im

brachium-yelka

canalis - kanal

clavicular-o'mrov

scapula-kurak

costa-qovurg'a

dens-tish

fissura-yoriq

foramen-teshik

fossa- chuqurcha(uzunchoq)

fovea-chuqurcha(aylana)

hiatus-yoriq,tirqish

humerus-yelka suyagi

incisura-o'yma

tuberculum-do'mboqcha

**MORFOLOGIYA – ANATOMIK  
VA BIOLOGIK TERMUNLAR ASOSIDA**



### § 3. LOTIN TILIDA SO'Z TURKUMLARI. OT SO'Z TURKUMI VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI. LUG'AT SHAKLI. NEGIZ. MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI.

**Maqsad.** Lotin tilida otlarning grammatik kategoriyalari bilan tanishish; otlarning rodlari, kelishiklar, otning lug'at shaklini bilish, otlarning negizini topish, 5ta asosiy turlanishini va moslashmagan aniqlovchi bilan kelgan atamalarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila olish; leksik minimumni o'zlashtirish

Jahon tillarida bo'lganidek lotin tilida ham so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan o'xshashliklariga ko'ra ayrim leksik-grammatik turlarga bo'linishi natijasida hosil bo'lgan guruhlariga so'z turkumlari deyiladi.

Lotin tilidagi so'zlar ham mustaqil hamda yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi.

#### Mustaqil so'z turkumlari

Nomen Substantivum	-	ot
Nomen Adjectivum	-	sifat
Nomen Numerale	-	son
Pronomen	-	olmosh
Verbum	-	fe'l
Adverbium	-	ravish

#### Yordamchi so'z turkumlari

Praepositio	old ko'makchi
Conjunctio	bog'lovchi
Interiectio	undov
Particulae	yuklama

Predmetning nomini ifodalaydigan va grammatik son, egalik, rod, kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, **kim? nima?** so'roqlariga javob beradigan mustaqil so'z turkumiga **ot** deyiladi.

Otlar lotin tilida rus tilidagidek uchta rodga ega :

Genus masculinum	-	mujskoy rod,
Genus femininum	-	jenskiy rod,
Genus neutrum	-	sredniy rod.

Otlarning rodlari lug'atda maxsus harflar yordamida belgilanadi:

<b>m</b>	-	mujskoy rod,
<b>f</b>	-	jenskiy rod,

**n** - sredniy rod.

Otlar lotin tilida ikki songa ega:

Numerus Singularis - birlik son,

Numerus Pluralis - ko'plik son.

Otlar lotin tilida quyidagi beshta kelishik bo'yicha turlanadi:

Casus Nominativus **-kim? nima?** - bosh kelishik

Casus Genetivus - **kimning? nimaning?** - qaratqich kelishigi.

Casus Dativus - **kimga? nimaga?**- jo'nalish kelishigi

Casus Accusativus - **kimni? nimani?**- tushum kelishigi

Casus Ablativus - **kimdan? nimadan?** - o'rin payt kelishigi

Lotin tilida otlar **beshta** turlanishga bo'linadi. Turlanish tipi qaratqich kelishigining Genetivus Singularis birlikdagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi. Quyida keltirilgan Genetivus Singularisning turlanish qo'shimchalarini yodlab oling:

<b>Turlanish</b>	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>	<b>IV</b>	<b>V</b>
<b>Rod</b>	f	m n	m f n	m n	f
<b>Nom. Sing</b>	a	us um er on	har xil	us u	es
<b>Gen.Sing</b>	<b>ae</b>	<b>I</b>	<b>is</b>	<b>us</b>	<b>ei</b>

### **LOTIN TILIDA OTLARNING TURLANISHI**

Ma'lumki, ot so'z turkumi beshta turlanishga ega bo'lib **I turlanish** otlari bosh kelishikda "a", qaratqich kelishigida "ae" qo'shimchasini oladigan jenskiy rod kiradi.

ala, ae, f -	qanot	vena, ae, f	vena qon tomiri
aorta, ae, f	shox tomir	vertebra, ae, f	umurtqa
arteria, ae, f	arteriya qon tomiri	patella, ae, f	tizza qopqog'i
concha, ae, f	chig'anoq	sutura, ae, f -	chok
costa, ae, f	qovurg'a	tuba, ae, f -	nay, truba
crista, ae, f	qirra	bucca, ae, f	lunj
lamina, ae, f	plastinka	gingiva, ae, f	milk
lingua, ae, f	til	lingula, ae, f	tilcha
orbita, ae, f	ko'z kosasi	papilla, ae, f	so'rg'ich
protuberantia, ae, f	-bo'rtma	scapula, ae, f	kurak

**II turlanishdagi** otlar bosh kelishikda mujskoy rodda **us, er**, sredniy rodda **um, on** qo'shimchasini oladi, qaratqich kelishigida **i** qo'shimchasini oladi.

angulus, i, m	burchak	digitus, i, m	barmoq
tuberculum, i, n	do'mboqcha	acromion, i, n	kurak o'simtasi
brachium, i, n	yelka	humerus, i, m	yelka suyagi
cavum, i, n	bo'shliq	manubrium, i, n	tutqich, dasta
cranium, i, n	kalla(kalla suyagi)	radius, i, m	bilak suyagi
ligamentum, i, n	boylam	sternum, i, n	to'sh
musculus, i, m	- mushak	alveolus, i, m	alveola, yacheyka
septum, i, n	- to'siq	frenulum, i, n	yugan
sulcus, i, m	egat	jug'um, i, n	qavariq
tympanum, i, n	nog'ora parda	labium, i, n	lab
calcaneus, i, m	tovon suyagi	oculus, i, m	ko'z

**III turlanish** otlari bosh kelishikda turlicha qo'shimchalarni oladi, qaratqichkelishigida esa **“is”** qo'shimchasini uchala roddagi (m,f,n ) otlar oladi.

flos, floris m	gul	corpus, oris, n	tana
foramen, inis n	teshik	os, ossis, n	suyak
crus, cruris, n	oyoq, oyoqcha	pulmo, onis m	o'pka

**IV turlanish** otlariga mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Bosh kelishikda mujskoy rodda **“us”**, sredniy rodda **“u”** qo'shimchalarini, qaratqich kelishigida esa **“us”** qo'shimchasini oladi.

ductus, us, m	- oqim	genu, us, n	tizza
arcus, us, m	- yoy, ravoq	processus, us, m	-o'simta
cornu, us, n	- shox	sinus, us, n	- bo'shliq
plexus, us, m	- chigal	textus, us, m	- to'qima
meatus, us, m	- yo'l, yo'lak	manus, us, n	- qo'l
recessus, us, m	- chuqurlik, cho'ntak	tractus, us, m	- yo'l
hiatus, us, m	yoriq	gustus, us, m	ta'm

**V turlanishga** jenskiy rod otlari kirib, bosh kelishikda **“es”** qo'shimchasini, qaratqich kelishigida **“ei”** qo'shimchasini oladi.

facies, ei, f	- yuza	superficies, ei, f	- yuqori yuza
---------------	--------	--------------------	---------------

### ***OTLARNING LUG'AT SHAKLI***

**Otlarning lug'at shaklida** otlar qaratqich kelishigining (Genetivus Singularis) birlikdagi qo'shimchasi va rodi ko'rsatilgan holda birlikda bosh kelishik (Nominativus Singularis)da yoziladi:

planta, ae , f - o'simlik  
 sirupus, i , m - sharbat  
 liquor, oris , m - suyuqlik  
 fructus, us , m - meva  
 dies, ei, f - kun

Otlarni turlashda **negizini** aniqlay bilish lozim. Otlarning **negizini** aniqlash uchun Genetivus Singularis formasidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak.

<b>Nom . Sing.</b>	<b>Gen. Sing.</b>	<b>Negiz</b>
Betula	Betulae	Betul
sirupus	sirupi	sirup
liquor	liquoris	liquor
solutio	solutionis	solution
species	speciei	speci
homo	hominis	homin
pars	partis	part
nervus	nervi	nerv
costa	costae	cost

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

#### ***1. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.***

1. Qaysi kelishik qo'shimchasi yordamida turlanish tipi aniqlanadi?
2. Ot I turlanishida Genetivus Singularis qanday qo'shimchaga ega bo'ladi?
3. Ot II turlanishida Genetivus Singularis qanday qo'shimchaga ega bo'ladi?
4. Ot III turlanishida Genetivus Singularis qanday qo'shimchaga ega bo'ladi?
5. Ot IV turlanishida Genetivus Singularis qanday qo'shimchaga ega bo'ladi?
6. Ot V turlanishida Genetivus Singularis qanday qo'shimchaga ega bo'ladi?

#### ***2. Otlarning rod va turlanishini aniqlang.***

- |                     |                       |                     |
|---------------------|-----------------------|---------------------|
| 1) cranium, i , n   | 5) familia, ae, f     | 9) angulus, i, m    |
| 2) fibula, ae, f    | 6) basis, is, f       | 10) spiritus, us, m |
| 3) ligamentum, i, n | 7) manus, us, m       | 11) septum, i, n    |
| 4) species, ei, f   | 8) cartilago, onis, f | 12) cellula, ae, f  |

#### ***3. Otlarning IV turlanishini ko'rsating:***

- |                   |                  |                  |
|-------------------|------------------|------------------|
| 1) globulus, i, m | 3) sirupus, i, m | 5) exitus, us, m |
| 2) habitus, us, m | 4) morbus, i, m  | 6) succus, i, m  |

**4. Otlarning II turlanish sredniy rodini ko'rsating:**

- |                    |                   |                   |
|--------------------|-------------------|-------------------|
| 1) Magnolia, ae, f | 4) aegrotus, i, m | 7) ampulla, ae, f |
| 2) dies, ei, f     | 5) cornu, us, n   | 8) musculus, i, n |
| 3) Ferrum, i, n    | 6) decoctum, i, n | 9) ilium, i, n    |

**5. Quyidagi otlar Genetivus Singularis shaklida berilgan.**

Ularni o'qing, ko'chirib yozing, negizini ajrating va turlanishini ko'rsating.

- |             |              |
|-------------|--------------|
| 1) guttae   | 6) officinae |
| 2) ossis    | 7) humeri    |
| 3) tympani  | 8) gustus    |
| 4) corporis | 9) cranii    |
| 5) sulci    | 10) cordis   |

**6. Quyida berilgan otlardan so'zlar uyumini yasang:**

**a) turlanish bo'yicha**

- 1) lamina, ae, f
- 2) Iodum, i, n
- 3) tussis, is, f
- 4) herba, ae, f
- 5) instrumentum, i, n
- 6) caput, itis, n
- 7) scapula, ae, f
- 8) glacies, ei, f
- 9) auris, is, n
- 10) articulatio, onis, f

**b) rodlar bo'yicha**

- 11) lobus, i, m
- 12) spina, ae, f
- 13) arcus, us, f
- 14) remedium, i, n
- 15) musculus, i, m
- 16) acetum, i, n
- 17) dies, ei, f
- 18) meatus, us, m
- 19) systema, atis, n
- 20) species, ei, f

**MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN**

**LOTIN MAQOLLARI**

- |                             |                                      |
|-----------------------------|--------------------------------------|
| 1. Amat victoria curam      | <i>Intilganga tole yor.</i>          |
| 2. Alit lectio ingenium.    | <i>O'qish aqlni oziqlantiradi.</i>   |
| 3. Citius, altius, fortius. | <i>Tezroq, balandroq, kuchliroq.</i> |
| 4. Labor corpus firmat.     | <i>Mehnat tanani chiniqtiradi.</i>   |

**MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI**

Moslasmagan aniqlovchi qaratqich kelishik birlik yoki ko'plikdagi otdan ifodalanib, gapda aniqlanishdan keyingi o'rinda keladi.

Moslasmagan aniqlovchi o'zbek tiliga ot yoki sifat tarzida tarjima qilinadi.

Masalan:	sulcus nervi-	nerv egati
	crista tuberculi-	do'mboqcha qirradi
	os cranii-	kalla suyagi

Moslasmagan aniqlovchi o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilinganda ega birinchi o'rinda keladi, aniqlovchi o'zi aniqlagan otdan keyin keladi.

Masalan:	umurtqa tanasi-	corpus vertebrae
	Nima?- <b>tana</b> (b.k)	Nimaning?- <b>umurtqaning</b> (q.k)

## ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

### ***1. O'zbek tiliga tarjima qiling.***

spina scapulae, skeleton membri, ossa cranii, caput fibulae, angulus mandibulae, basis cranii, tuber maxillae, sulcus sinus, linea nuchae, septum nasi, vena portae, raphe palati, corpus tibiae, processus radii, fossa glandulae (lacrimalis), chorda tympani, os digiti, tuberositas ulnae, aquaeductus vestibuli, caput radii, ossa trunci, trochlea humeri, incisura acetabuli, canalis nervi, bulbus oculi, membrana sterni, ligamentum patellae, angulus sterni.

### ***2. Lotin tiliga tarjima qiling.***

umurtqa tanasi, qovurg'a boshchasi, aorta yoyi, kalla suyagi asosi, burun bo'shlig'i, kurak bo'yinchasi, burun yo'li, pastki jag' o'ymasi, yuqori jag' do'mbog'i, bo'yin muskuli, egar orqasi, to'sh dastasi, yelka suyagi boshchasi, kalla suyagi choki, nerv tarmog'i, tirsak o'simtasi chuqurchasi, nog'ora parda bo'shligi, bosh miya nervi, tizza qopqog'i asosi, til to'sig'i, burun uchi, suyak tanasi, burun yo'li, pastki jag' kesmasi, burun to'sig'i, o'simta plastinkasi, chig'anoq asosi

### ***3. Quyidagi otlarning lug'at shaklini yozing.***

concha; arcus; sulcus; bulbus; ganglion; septum; nasus; cornu; aditus; porus; collum; colon; fossa; musculus; ramus; lingua; digitus; fissura; corpus; dens; pars; ala; nodus; cartilago; margo; cervix; ligamentum; organon; articulatio

### ***4. Otlarning turlanishini aniqlang.***

lamina, ae f; facies,ei f; nervus, i m; ramus, i m; olecranon, i n; ligamentum, i n; dens, dentis m; foramen, inis n; tempus, orisn; recessus, us m; genu, us n; cartilago, inis f; tuber, eris n; articulatio,onis f; diaphragma, atis n; canalis,is m; margo, inis m; orbita, ae f, sulcus, i m; pars, partis f; gaster, tris f

**5. Quyidagi moslashmagan aniqlovchilarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

caput fibulae, caput costae, corpus linguae, corpus tibiae, corpus vesicae, corpus vertebrae, fascia prostatae, fossa vesicae, incisura mandibulae, ampulla tibiae (uterinae), commissura palpebrarum, concha auriculae, fascia nuchae, rima palpebrarum, spina scapulae, sutura calvariae, valva aortae, valvula venae.

**6. Otlarning turlanishiga qarab qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'ying**

<b>Nominativus</b>	<b>Genetivus</b>	<b>Turlanish</b>
<i>septum</i>	<i>sept...</i>	<i>II</i>
<i>zygoma</i>	<i>zygomat...</i>	<i>III</i>
<i>clavicula</i>	<i>clavicul...</i>	<i>I</i>
<i>facies</i>	<i>faci...</i>	<i>V</i>
<i>femur</i>	<i>femor...</i>	<i>III</i>
<i>ductus</i>	<i>duct...</i>	<i>IV</i>
<i>os</i>	<i>os...</i>	<i>III</i>
<i>fossa</i>	<i>foss...</i>	<i>I</i>
<i>genu</i>	<i>gen...</i>	<i>IV</i>
<i>tuberculum</i>	<i>tubercul...</i>	<i>II</i>
<i>musculus</i>	<i>muscul...</i>	<i>II</i>
<i>axis</i>	<i>ax...</i>	<i>III</i>
<i>dens</i>	<i>dent...</i>	<i>III</i>

**LEKSIK MINIMUM**

***I turlanish***


maxilla, ae f	yuqori jag'	tibia, ae f	katta boldir suyagi
mandibula, ae f	pastki jag'	fibula, ae f	kichik boldir suyagi
spina, ae f	qirra	pulpa, ae f	tish pulpasi, eti

***II turlanish***

bronchus, i m	bronx	nodus, i m	tugun
lobus, i m	bo'lak	oculus, i m	ko'z
nasus, i m	burun	ramus, i m	ravoq, yoy

***IV turlanish***

abscessus, us m	abtsess	manus, us m	qo'l
-----------------	---------	-------------	------



#### §4. SIFAT SO'Z TURKUMI VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI. SIFATLARNING IKKI GURUHI. LUG'AT SHAKLI. MOSLASHGAN ANIQLOVCHI.

**Maqsad.** Lotin tilida sifatning Grammatik kategoriyalari bilan tanishish; ikki guruh sifatlarning lug'at shaklini bilish va sifatlarni otlar bilan moslashtirish; moslashgan aniqlovchi bilan kelgan atamalarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila olish; leksik minimumni o'zlashtirish.

Predmetning belgisini bildirib, **qanday? qanaqa?** savollariga javob bo'lgan so'z turkimiga *sifat* deyiladi. Lotin tilida sifatlari rus tilidagi kabi rod, son va kelishiklarda o'zgarib o'zi aniqlagan ot bilan rodga, sonda va kelishikda moslashadi va rod qo'shimchalariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

I guruh - I va II guruhda turlanuvchi sifatlari.

II guruh - III guruhda turlanuvchi sifatlari.

Birinchi guruhda turlanuvchi sifatlari **Femininum** rodiga tegishli bo'lib, **Nom. Sing.** dagi qo'shimchasi **-a**, va **Masculinum** hamda **Neutrum** rodlariga tegishli bo'lib, **Masculinum Nom. Sing.** da **-us, -er** qo'shimchalariga va **Neutrum Nom. Sing.** da **-um** qo'shimchasiga ega bo'ladi

I guruh sifatlari – uchta qo'shimchaga ega: **us, er** (m); **a** (f); **um** (n);

longus, a, um- longus, longa, longum -uzun

dexter, tra, trum- dexter, dextra, dextrum- o'ng

liber, era, erum- liber, libera, liberum- erkin

ruber, bra, brum- ruber, rubra, rubrum- qizil

II guruh sifatlari – ikkita qo'shimchaga ega: **is** (m,f); **e** (n)

costalis, e- costalis, costale- qovurg'aga oid

vertebralis, e- vertebralis, vertebrale- umurtqaga oid

nasalis, e- nasalis, nasale- burunga oid

Bir qo'shimchali sifatlari ham II guruh sifatlari hisoblanadi:

simplex- oddiy, teres-aylana

#### **SIFATLARNING LUG'AT SHAKLI**

Lug'atda I guruh sifatlari mujskoy rod shaklida yoziladi va so'zning yonida jenskiy hamda sredniy rod qo'shimchasi ko'rsatiladi.



Masalan: albus, a, um-oq; rectus, a, um-to'g'ri; transversus, a, um- ko'ndalang; palatinus, a, um- tanglayga oid;

**-er** qo'shimchasi bilan tamomlanadigan ba'zi sifatlar jenskiy va sredniy rodlarni hosil qilishda - e harfini yo'qotadi, ba'zilari esa saqlab qoladi.

Masalan: niger, nigra, nigrum-qora; sinister, tra, trum; somnifer, somnifera, somniferum-uxlatadigan, liber, era, erum-erkin;

II guruh sifatlari, ya'ni mujskoy va jenskiy rodga bir xil qo'shimchaga ega bo'lgan sifatlarning lug'at shakli ikki komponentdan: mujskoy va jenskiy rodga bir xil shakldan va sredniy rod qo'shimchasidan iborat.

Masalan: vertebralis, e- umurtqaga oid, dentalis, e- tishga oid

### **SIFATLARNING TURLANISHI**

II turlanishdagi sifatlarga mujskoy rodga **-us** yoki **-er**, sredniy rodga **-um** qo'shimchasiga ega bo'lgan sifatlar, I turlanishdagi sifatlarga jenskiy rodga **-a** qo'shimchasiga ega bo'lgan sifatlar kiradi.

Masalan: II turlanish-*albus, album; dexter, dextrum*; I turlanish- *alba, dextra*; III turlanishdagi sifatlarda II guruh sifatlari kiradi.

Sifatlarning kelishiklar bo'yicha turlanishi

Mujskoy roddagi sifatlar II turlanish mujskoy rod va sredniy rod otlar singari, jenskiy roddagi sifatlar I turlanishdagi otlar singari turlanadi.

<b>Singularis</b>			
Rod	m f n	Lotincha so'z	Ma'nosi
Birinchi guruh	<b>us a um er</b>	medius, <b>a, um</b> dexter, <b>tra, trum</b>	o'rta o'ng
Ikkinchi guruh	<b>is is e</b>	lateralis, <b>e</b>	lateral
Qiyosiy daraja	<b>ior ior ius</b>	superior, <b>ius</b>	yuqori

### **MOSLASHGAN ANIQLOVCHI**

Lotin tilida sifat otdan keyin turadi va u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchili atamani lotin tiliga tarjima qilishda avval uning shartli tasvirini tuzamiz. qanaqa? Uzun mushak (Nom.) Atamani quyidagicha tarjima qilamiz.

1. Otni topib, uning roдини aniqlaymiz: musculus, i, m –mujskoy rod

2. Sifatning lug'at shaklini aytamiz va otga mos roдини tanlaymiz: longus, a, um; long**us** – mujskoy rod qo'shimchasi.

Atamaning tarjimasini Nom. da yozamiz: Nom. Sing.

musculus longus- uzun mushak  
vena longa- uzun vena  
os longum - uzun suyak

## ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

### ***1. Quyidagi sifatlarni rodlarga qo'yib o'qing***

amarus, flavus, siccus, grossus, purus, compositus, spissus, niger, ruber, dexter, sinister, palatinus, hyoideus, laryngeus, pharyngeus, hamatus, lunatus, albus, flavus

### ***2. Sifatni otga moslashtiring va atamalarini o'zbek tiliga tarjima qiling.***

flos (albus, a, um); aqua (purus, a, um); pulmo (dexter, tra, trum); extractum (fluidus, a, um); Amygdala (amarus, a, um); os (palatinum, a, um); os (sacrum, a, um); processus (transverses, a, um); massa (purus, a, um)

### ***3. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.***

ko'ndalang (egat, chiziq, boylam); umurtqaga oid (kanal, o'yma, teshik); so'rg'ichsimon (o'simta, qism, bo'shliq -antrum); venaga oid (yopqich, chigal, bo'shliq-sinus); tanglayga oid (o'simta, suyak, egat); yonoqqa oid (ravoq, suyak); peshonaga oid (burchak, chok, do'mboq); qanotsimon (mushak, chuqurcha); bo'g'imga oid (o'simta, yuza, do'mboqcha); g'alvirsimon (teshik, qirra, labirint);

### ***4. Berilgan sifatlarni otlar bilan moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling.***

palatinus, pelvinus, caninus, incisivus, conjunctivus, progressivus, auditivus, thoracicus, gastricus, zygomaticus, massetericus, papillaris, maxillaris, osseus, cartilagineus, laryngeus(yun.), pharyngeus(yun.), peroneus(yun.), pterygoideus, xiphoideus, sigmoideus, squamosus, fibrosus, petrosus, venosus, spinosus, hamatus, oblongatus, digitatus, alaris, angularis, alveolaris, premolaris, temporalis, cerebralis, cervicalis, buccalis, vertebralis, nasalis, occipitalis

### ***5. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring va tarjima qiling.***

concha (nasalis,e; superior,ius; medius,a,um); fissura (orbitalis,e; inferior,ius; superior,ius), meatus (acusticus,a,um; internus,a,um); foramen (stylomastoideus,a,um; jugularis,e; lacerus,a,um; ovalis,e; obturatus,a,um; caecus, a,um); os (cuboideus,a,um; navicularis,e); porus (acusticus,a,um; externus,a,um; internus,a,um); digitus (medius,a,um; anularis,e; minimus,a,um)

### ***6. Quyida berilgan lotincha so'zlarning o'zbekcha muqobilini topib o'z o'rniga qo'ying:***

- |                          |                  |
|--------------------------|------------------|
| 1) purpureus, a, um      | a) metilen ko'ki |
| 2) flavus, a, um         | b) sariq         |
| 3) purus, a, um          | c) ko'k          |
| 4) siccus, a, um         | d) quruq         |
| 5) albus, a, um          | e) to'q qizil    |
| 6) cinereus, a, um       | f) toza          |
| 7) luteus, a, um         | g) oq            |
| 8) fluidus, a, um        | h) qora          |
| 9) spissus, a, um        | i) kulrang       |
| 10) methylenum coeruleum | j) achchiq       |
| 11) liquidus, a, um      | k) suyuq         |
| 12) amarus, a, um        | l) quyuq         |

**7. Quyidagi sifatlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

albus, niger, purpureus, flavus, cinereus, coeruleus, purus, luteus, amarus, spissus, liquidus, siccus, frigidus, internus, cavus.

**8. Quyidagi sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling.**

oq, qora, to'qqizil, kulrang, zangori, sariq, achchiq, toza, suyuq, quruq, quyuq, sovuq, hid.


**9. Quyidagi savollarni o'qing va og'zaki javob bering**

1. Sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
2. Qaysi sifatlar I-II turlanishga kiradi?
3. Sifatlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
4. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
5. Moslashgan aniqlovchi deganda nimani tushunasiz?
6. I-II turlanishdagi sifatlar I, II turlanishdagi otlar bilan qanday moslashadi?

**MUSTAQIL O'QIB O'RGANISH UCHUN  
LOTIN MAQOLLARI**

- |                            |                                      |
|----------------------------|--------------------------------------|
| 1. Amat victoria curam     | <i>Intilganga tole yor.</i>          |
| 2. Alit lectio ingenium    | <i>O'qish aqlni oziqlantiradi.</i>   |
| 3. Citius, altius, fortius | <i>Tezroq, balandroq, kuchliroq.</i> |
| 4. Labor corpus firmat.    | <i>Mehnat tanani chiniqtiradi</i>    |

**Quyidagi rasmdagi moslashgan aniqlovchili terminlarni tarjima qiling**



**§5. SIFAT DARAJALARI. SIFATNING QIYOSIY DARAJASI.**

## LUG'AT SHAKLI VA NEGIZ. QIYOSIY DARAJADAGI SIFATLARINING TURLANISHI

**Maqsad.** Lotin tilida sifat darajalarini yasay bilish; ularning bosh kelishik shaklini yasash; qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni otlar bilan moslashtirib anatomik atamalarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilishda sifat darajalarining farqlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Lotin tilida sifat darajalari boshqa tillardagidek oddiy, qiyosiy va orttirma darajalarga bo'linadi:

Gradus Positivus	oddiy daraja
Gradus Comparativus	qiyosiy daraja
Gradus Superlativus	orttirma daraja

### **Qiyosiy daraja - Gradus comparativus**

Mujskoy va jenskiy rodga tegishli sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga **-ior**, sredniy rodga esa **-ius** qo'shimchasini qo'shish darkor. Masalan:

Gradus Positivus		Gradus Comparativus
Nominativus Singularis	Genetivus Singularis	Nominativus Singularis
albus	albi	albior albius
subtilis	subtilis	subtilior subtilius
simplex	simplic -is	simplicior simplicius

Qiyosiy darajadagi sifatlar uchunchi guruhda turlanuvchi otlar kabi turlanib, uchalla roddagi sifatlar Gen. Sing. da **-ior + is** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Qiyosiy darajali sifatlarning kelishiklarda turlanish namunasi:

Qiyosiy darajali sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

longior ( m, f ) ius ( n ) - uzunroq

purior, ius - tozaroq

subtilior, ius - maydaroq

“Katta” va “kichik” sifatlarining oddiy va qiyosiy darajalari turli xil o'zaklardan tashkil topgan.

#### **Oddiy daraja**

magnus, a, um - katta

parvus, a, um - kichik

#### **Qiyosiy daraja**

major, jus - kattaroq

minor, us - kichikroq

Katta va kichik sifatlarining qiyosiy darajasi tibbiy atamashunoslikda juft anatomik tuzilmalarda qo'llaniladi va o'zbek tiliga oddiy darajadek tarjima qilinadi. Masalan:

ala major - katta qanot  
ala minor - kichik qanot  
tuberculum majus - katta do'mboqcha

Agar gap juft bo'lmagan anatomik tuzilmalar haqida borsa, oddiy daraja ishlatiladi. Masalan :

foramen magnum - katta yoriq (teshik)

**Yuqorigi, pastki, oldingi, orqa** sifatlarining lotin tilida oddiy darajasi yo'q. Shuning uchun bu sifatning qiyosiy darajasi o'zbek tiliga oddiy darajadek tarjima qilinadi. Masalan:

superior, ius - yuqorigi anterior, ius - oldingi  
inferior, ius - pastki posterior, ius - orqa

Sifatlarining **“katta,” “kichik,” “yuqorigi,” “pastki,” “oldingi,” “orqa”** turlari so'zlik atamalarda bitta otga tegishli bo'ladi.

Masalan :

tuberculum thyreoideum superius- yuqori qalqonsimon do'mboqcha

Sifatlarining qiyosiy darajasi ham oddiy daraja sifatlaridek otlar bilan rod, sonda va kelishikda moslashadi. Masalan :

tuberculum **anterior** - oldingi do'mboqcha

Qiyosiy daraja sifatleri III turlanishi bo'yicha turlanadi. Ya'ni Gen.Sing.da- is qo'shimchasini oladi.

Nom. Sing. -ior, ius

Gen. Sing. -ioris, ioris

Qiyosiy daraja sifatlarining Gen. Sing. shakli barcha rodlar uchun bir xil bo'ladi. **Nom. Sing.** **Gen. Sing.**

major (m)

major (f)

majus (n) **majoris**

posterior (m)

posterior (f) **posterioris**

posterius (n)

**Esingizda saqlang ! Nota bene!**

1. Qiyosiy daraja sifatlarining o'zagi Gen. Sing. shaklidan aniqlanadi.
2. O'zak har uchala rod, sonda bir xil.
3. O'zak **m.** va **j.** rodning Nom. Sing. shakli bilan to'g'ri keladi.

## ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

### ***Testlarni yeching!***

1. Quyida berilgan javoblardan **dex...** so'ziga mos qo'shimchani tanlang.  
a) -us    b) -it    c) -ter    d) -a
2. Quyida berilgan javoblardan **fibu...** so'ziga mos qo'shimchani tanlang.  
a) -at    b) -si    c) -la    d) -i
3. Quyida berilgan javoblardan **ul...** so'ziga mos qo'shimchani tanlang.  
a) -na    b) -de    c) -ni    d) -re
4. Quyida berilgan javoblardan **cos...** so'ziga mos qo'shimchani tanlang.  
a) -en    b) -on    c) -a    d) -ta
5. Quyida berilgan javoblardan **au...** so'ziga mos qo'shimchani tanlang.  
a) -ris    b) -ei    c) -us    d) -ni
6. Quyida berilgan javoblardan **alaris** so'z ma'nosiga mosini tanlang.  
a) qanotga oid    b) miyaga oid    c) jigarga oid    d) etga oid

### ***1. Sifatlarning Gen. Sing. shaklini yasang va aniqlang:***

major, us, minor, us; inferior, ius; superior, ius; longior, ius; posterior, ius; anterior, ius; brevior, ius; simplicior, ius; latior, albior, ius; nigrior, ius.

### ***2. Quyidagi atamalarning Gen. Sing. shaklini yasang:***

caput majus; incisura superior; ala major; processus superior; arcus posterior; foramen superius; facies posterior; ligamentum posterius; sulcus major; ramus superior; cornu majus et minus; labium inferius; incisura ischiadica major; tuberculum obturatorium posterius.

### ***3. Har bir so'zning kelishigini aniqlab, atamalarni tarjima qiling:***

fovea articularis processus articularis superioris; caput superius musculi pterygoidei lateralis; musculus scalenus anterior; tuberculum musculi scaleni anterioris; processus articularis superior; cingulum membri superioris; tuberculum mediale processus posterioris tali; tendo musculi tibialis posterioris;

### ***4. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchani qo'yib to'ldiring:***

fissura orbital... inferi...; foramen ethmoidal... anteri... ; processus articular... inferi... ; ligamentum longitudinal... anteri... ; plexus

hypogastric... superi... ; spina tympanic... min... ; linea glute... anteri... ;  
tuberculum thyr(e)oid... superi.... ;

### **5. Atamalarini lug'at shaklini yozing:**

orbita, major, minor, anterior, posterior, superior, inferior, vertebra,  
concha, sinister, jugularis, ventralis, cerebrum, albus, genu, colon, ostium,  
vagina, bursa, juncture, corpus, dens.

## **LEKSIK MINIMUM**

### **I turlanish otlari**

bursa, ae, f - xalta  
pleura, ae, f - parda

valvula, ae, f - qopqoq  
vena portae - vena darvozasi

### **II turlanish otlari**

cerebellum, i, n - miyacha  
cerebrum, i, n - bosh miya  
encephalon, i, n - bosh miya  
ganglion, i, n - nerv tuguni

nervus, i, m - asab  
nodus, i, m - tugun  
oculus, i, m - ko'z  
ostium, i, n - teshik

### **I guruh sifatleri**

cavus, a, um - bo'sh, kovak  
laryndeus, a, um - tomoqqa oid  
pharyngeus, a, um - halqumga oid  
profundus, a, um - chuqur

cutaneus, a, um - teriga oid  
ischiodicus, a, um - quymichga oid  
latus, a, um - keng  
mastoideus, a, um - so'rg'ichsimon


### **II guruh sifatleri**

auricularis, e - quloqqa oid  
dorsalis, e - orqaga oid  
facialis, e - yuzaga oid  
superficialis, e - yuzaki  
distalis, e - tanadan uzoq  
lumbalis, e - belga oid  
temporalis, e - chakkaga oid  
maxillaris, e - yuqori jag'ga oid

lacrimalis, e - ko'z yoshiga oid  
lingualis, e - tilga oid  
ventralis, e - oldingi  
proximalis, e - tanaga yaqin  
horizontalis, e - gorizontal, eniga  
nasalis, e - burunga oid  
occipitalis, e - ensaga oid  
mandibularis, e - pastki jag'ga oid

## **§6. SIFAT DARAJALARI. SIFATLARNING ORTTIRMA DARAJASI. LUG'AT SHAKLI, NEGIZ VA TURLANISHI**





**Maqsad.** Lotin tilida sifat darajalarini yasay bilish; ularning bosh kelishik shaklini yasash; orttirma darajadagi sifatlarni otlar bilan moslashtirib anatomik atamalarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilishda sifat darajalarining farqlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga **-issim** va **-us, -a, -um** rod qo'shimchalari qo'shiladi:

pur – issimus, a, um - (eng) toza

long- issimus, a, um - (eng) uzun

simplic – issimus, a, um - (eng) oddiy

Masculinum rodga tegishli **-er** qo'shimchali sifatlarning orttirma darajasini hosil qilish uchun Nom. Sing. ga **-rim** suffiksi va **-us, -a, -um** rod qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

Nom. Sing. suffiks rod qo'shimchalari

ruber ( m ) ruberrimus

rubra ( f ) **- rim** ruberrima

rubrum ( n ) ruberrimum

Orttirma darajali sifatlari I va II guruhda turlanuvchi otlar kabi kelishiklarda turlanadi. Orttirma darajali sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

Purissimus, a, um - juda ham (eng) toza

Subtilissimus, a, um - juda ham (eng) mayda

Simplicissimus, a, um - juda ham (eng) oddiy

### *Har xil negizlardan yasalgan sifat darajalari*

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
parvus, a, um - kichik	minor, minus – kichikroq	minus, a, um - juda kichik
magnus, a, um – katta	major, majus – kattaroq	maximus, a, um – juda katta
multus, a, um – ko'p	plures, plura – ko'proq	plurimus, a, um – juda ko'p
bonus, a, um – yaxshi	melior, melius – yaxsiroq	optimus, a, um – juda yaxshi
malus, a, um - yomon	peior, peius - yomonroq	pessimus, a, um – judayomon

Orttirma darajadagi sifatlari ham ot bilan rodga, sonda, kelishikda moslashadi. Masalan :

musculus longissimus - -eng uzun mushak

linea longissima - -eng uzun chiziq

Orttirma darajadagi sifatlar I guruh sifatleri kabi, I va II turlanish otlari singari turlanadi. Masalan :

Nom. Sing. -us, -a, -um musculus longissimus, caput longum, musculi longissimi, capitis longi

### Quyidagi sifatlarni o'qing va yod oling!

anterior , ius	oldingi
posterior , ius	orqa
superior , ius	yuqorigi
inferior , ius	pastki
major , ius	katta
minor , minus	kichik
maximus, a, um	juda ham ( eng ) katta
minimus, a, um	juda ham ( eng ) kichik

## ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

### ***TESTLARNI YECHING!***

1. Quyida berilgan javoblardan **longior** so'z ma'nosini toping.  
a) qisqa b) uzun c) uzunroq d) kalta
2. Quyida berilgan javoblardan **purior** so'z ma'nosini toping.  
a) tozaroq b) toza c) iflos d) to'zib
3. Quyida berilgan javoblardan **subtilior** so'z ma'nosini toping.  
a) may b) mayda c) maydaroq d) maydon
4. Quyida berilgan javoblardan **simplicior** so'z ma'nosini toping  
a) murakkab b) oddiy c) oddiyroq d) oldi
5. Quyida berilgan javoblardan **anterior** so'z ma'nosini toping.  
a) old b) oldin c) oldingi d) oldinroq
6. Quyida berilgan javoblardan **posterior** so'z ma'nosini toping.  
a) orqangi b) orqa c) orqada d) orqadan
7. Quyida berilgan javoblardan **superior** so'z ma'nosini toping.  
a) yuqori b) yuqoridan c) yuqorigi d) yuqoriga
8. Quyida berilgan javoblardan **inferior** so'z ma'nosini toping.  
a) pastak b) past c) pastki d) pastdan
9. Quyida berilgan javoblardan **major** so'z ma'nosini toping.  
a) katta b) kattani c) kattaroq d) kattalik

10. Quyida berilgan javoblardan **minor** so'z ma'nosini toping.  
 a) kichik      b) kichkina      c) kichikroq      d) kichikni
11. Quyida berilgan javoblardan **maximus** so'z ma'nosini toping.  
 a) juda katta      b) katta      c) juda ham katta      d) kattalar
12. Quyida berilgan javoblardan **minimus** so'z ma'nosini toping.  
 a) kichkina      b) juda kichkina      c) juda ham kichik      d) mayda
13. Quyida berilgan javoblardan **optimus** so'z ma'nosini toping.  
 a) yaxshi      b) a'lo      c) juda ham yaxshi      d) yaxshilik

**1. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

systema lymphaticum, sinus occipitalis durae matris, glomus pulmonale, caput superius musculi pterygoidei, foramen palatinum majus, tegmen tympani, lobus anterior hypophysis, foramen venae cavae, crus anterius capsulae internae, hepar mobile, rete venosum, porta hepatis, cortex thyme, hilus lienis.

**2. Quyidagi atamalarning lug'at shaklini yasang va turlanishini aniqlang:**

declive, raphe, rete, diploe, systole, chole, diastole, zygorama, oedema, struma, trauma, bregma, platysma, chiasma, mamma, parenchyma, diastema, diaphragm.

**3. Quyidagi oddiy va qiyosiy daraja sifatlarining Gen. Pl. shaklini yasang:**

frontalis, e; anterior, ius; dentalis, e; orbitalis, e; posterior, ius; molaris, e; infraorbitalis, e; superior, ius; premolaris, e ; .

**LEKSIK MINIMUM**

**I turlanish otlari**

mucosa, ae, f - shilliq	flexura, ae, f - egilish
tunica, ae, f - qobiq, parda	corona, ae, f - tishga qoplama
conjunctiva, ae, f - ko'z shilliq pardasi	urethra, ae, f - siydik chiqarish kanali

**II turlanish otlari**

colon, i, n - pardali ichak	ventriculus, i, m - oshqozon
duodenum, i, n - 12 barmoq ichak	anus, i, m - orqa kanal
crassum, i, n - yo'g'on ichak	abdomen, inis n - qorin
intestinum, i, n - ichak	fundus, i, m - tub
oesophagus, i, m - qizil o'ngach	jejunum, i, n - ingichka ichak

peritonaenum, i, n - qorin bo'shlig'i  
rectum, i, n - to'g'ri ichak  
uterus, i, m - bachadon  
ileum, i n - yonbosh ichak

ovarium, i, n - tuxumdon  
perinaeum, i, n - oraliq  
truncus, i, m - gavda  
caecum, i n - ko'richak

### III turlanish otlari

dens, dentis, m - tish

pars, partis f - qism

### I guruh sifatleri

hyoideus, a, um - til osti (suyagi)

canninus, a, um - katta oziq  
tishga oid

hypoglossus, a, um - til osti (nervi)

submucosus, a, um - shilliq parda  
osti

iliacus, a, um - qovurg'a va qorin

geniohyoideus, a, um -iyak- til osti

stylohyoideus, a, um - til uchi osti

incisivus, a, um - kesuvchi

stylopharyngeus, a, um - halqum uchiga oid

infrahyoideus, a, um - til osti

serotinus, a, um - kechki

palatinus, a, um- tanglayga oid

### II guruh sifatleri

intestinalis, e - ichakka oid

tenuis, e - ingichka

simplex, icis - oddiy

triceps, itis - uch boshli

teres, etis - aylana

molaris, e - katta oziq tish

vaginalis, e - qinga oid

premolaris, e - kichik oziq tish

biceps, itis - ikki boshli

quadriceps, itis - to'rt boshli

brevis, e- qisqa

cranialis, e - kallaga oid

mollis, e - yumshoq

dentalis, e - tishga oid

cardialis, e - yurakka oid

pulmonalis, e - o'pkaga oid

renalis, e - buyrakka oid

abdominalis, e - qoringa oid

brachialis, e - yelkaga oid

humeralis, e - yelka suyagiga oid

radialis, e - bilakka oid

ulnaris, e - tirsakka oid



## §7. OTLARNING UCHUNCHI TURLANISHI. UCHINCHI TURLANISH MUJSKOY RODDAGI OTLAR

### VIII. Anatomik terminlarni lotin tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

musculus depressor septi nasi, paries ductus cochlearis, os hyoideum, cavitas medullaris, rima oris, basis crania externa, tuberositas phalanges distalis, processus articularis superior, medulla ossium flava, arcus palatoglossus, caput longum musculi tricipitis brachii, lobulus glandulae thyroideae, sulcus nervi petrosi.

musculus obliquus oculi, vena cerebri interna, nervus cutaneus bronchii, plicae tunicae mucosae nasi, nucleus nervi hypoglossi, sulcus venae cavae.


### IX. Quyidagi krossworddan vertikal va gorizontol holda 40 ta lotincha atama toping

S	P	I	N	A	L	I	S	I	N	I	S	T	E	R	N	U	M	A
U	R	I	N	A	V	I	C	U	L	A	R	I	S	V	I	N	U	B
T	E	M	P	U	S	L	Y	N	A	P	E	X	O	E	K	Y	L	D
U	M	B	I	L	I	C	U	S	R	E	S	P	I	R	A	T	I	O
R	A	D	I	X	N	A	Q	U	T	R	O	T	A	T	O	R	G	M
A	X	O	R	D	U	C	T	R	E	T	E	U	R	E	R	A	A	E
C	I	R	P	U	S	E	R	T	R	U	S	B	F	B	T	N	M	N
M	L	S	A	N	G	U	I	S	I	R	O	E	I	R	A	T	N	V
A	L	A	C	H	I	A	S	M	A	A	P	R	B	A	T	E	T	E
N	A	L	U	M	I	N	I	U	M	O	H	C	U	T	E	R	U	R
D	T	I	B	I	A	L	E	C	O	S	A	U	L	I	G	I	M	T
I	E	S	U	P	E	R	I	O	R	S	G	L	A	O	M	O	O	E
B	R	A	C	H	I	U	M	S	E	A	E	U	M	N	E	R	U	B
U	B	A	S	I	S	S	P	A	T	I	U	M	I	E	N	Y	B	R
L	I	N	E	A	U	R	I	S	M	O	S	A	Z	Y	G	O	M	A
A	P	U	L	M	O	L	I	G	A	M	E	N	T	U	M	R	P	A
R	O	T	U	N	D	U	S	Q	U	A	M	O	S	U	S	V	N	F

### X. Quyidagi terminlarini Gen. Sing, Nom.Pl. va Gen. Pl.ga qo'yib chiqing

Nom.Sing.	Gen. Sing	Rod	Nom. Plur.	Gen.Plur.
ganglion				

lobu				
neonatus				
ramus				
sternum				
pulmo				
flos				
apex				
cartilago				
margo				
tuberositas				
tuberculum				
articulatio				
pars				
auris				
foramen				
rete				
caput				
cavus				
ostium				
dens				
papilla				
dies				
recessus				



## **§16. KLINIK TERMINOLOGIYA-KLINIK TERMINLAR ASOSIDA.**

### **KLINIK ATAMALARNI YASASH USULLARI.**

### **SUFFIKSATSIYA.**

**Maqsad.** Klinik atamalarni tahlil qilish; soʻz yasash vositalari va usullari bilan tanishish; murakkab atamalarni tahlil qilish va yasash koʻnikma hamda malakalarini oʻstirish.

**Hurmatli boʻlgʻusi shifokor!** Tanlagan kasbingizning masuliyatini chuqur his etishingiz va nihoyatda sharafligini bilishingiz darkor. Buning uchun avvalo shifokor faoliyatida eng koʻp qoʻllaniladigan klinik terminlar, atama elementlar, va dubletlarning tub mohiyatini chuqur anglamogʻ, tushunmogʻ darkor. Shuning bilan bir qatorda klinik atamalarni tahlil qilish, soʻz yasash usullari va vositalari bilan tanishish hamda murakkab atamalarni ham tahlil qilaolishdek koʻnikma va malakaga yetarlicha ega boʻlmoq lozimligini aslo unitmang.

Boʻlajak shifokorni atamashunoslik (terminologik) jihatdan tayyorlash undan faqatgina atamalarni tushunishgina emas, balki ularni har tomonlama puxta oʻzlashtirib amaliyotda qoʻllash koʻnikmalarini shakillantirishni ham talab qiladi. Tibbiyot oʻquv yurtida tahsil davomida boʻlajak shifokor turli medico-biologik va klinik fanlarga oid atamalarga duch keladi. Bu esa boʻlgʻusi shifokor kasbining ilmiy-amaliy tilini mukammalroq egallashga yordam beradi. Klinik atamashunoslik anatomiyadan keyin, yaʼni talabalar lotin tili grammatikasining asosiy qoidalarini batamom oʻzlashtirib boʻlgach amalga oshiriladi.

Klinik atamashunoslikni oʻrganish atama elementdeb nomlanuvchi alohida komponentlarning tahliliga asoslanadi. Har qanday soʻz yasovchi element ( oʻzak, negiz, old qoʻshimcha prefiks, suffiks) atama element deb aytiladi. Atama elementlar muayyan maʼnoga ega. Shuning uchun bir necha atama elementlardan tuzilgan atamalarni tahlil qilishda asosiy maʼno tashuvchi atama elementlarga ilmiy-amaliy jihatdan yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, *procto rrhagia* atama elementlarni o'rganishda **proctorrhagia** atamasi beriladi – proktoragiya, to'g'ri ichakdan ko'p miqdorda qon aralash yiring ajralishidir. Ma'no tashuvchilar – to'g'ri ichak va qon aralash yiring ajralishi.

**Atama elementlar quyidagilarga bo'linadi :**

**Birinchi**dan Yunon o'zak atamaelementlari – lotincha anatomik nomlarning ekvivalentlari. Masalan:

Burun - rhin - nasus, i, m

Lab - cheil - labium, i, n

**Ikkinchi**dan So'z oxirida qo'llanuvchi atama element- organ va to'qimalardagi patologik o'zgarishlar, operatsiya turlari, diagnostic tekshirish yoki davolash usullarini ifodalaydi. Masalan: *ectomia* - organi butunlay olib tashlash, *scopia* - maxsus asbob yordamida organlarni ichki devori va yuzlarini tekshirish, *necrosis* - to'qima va organlarni o'lishi.

**Uchinchi**dan Affikslar ( prefiks va suffikslar ) - ma'no tashish jihatidan o'zak atama elementlarga teng. Masalan: *dys* - buzilish, biror bir funksiyaning izdan chiqishi; - *itis*, - *itidis* - biror narsaning yalig'lanishi. Masalan:

*dystonia* - tonusning buzilishi, *gastritis* - oshqozonning yallig'lanishi.

Atama elementlarni puxta o'zlashtirilishi talabalarga so'z boyligini oshirib dunyoqarashini kengaytirib tibbiyotga oid atamalarni bemalol tushunish imkonini beradi. Masalan:

*Arteria* - atama elementdan 50 ga yaqin, *haem* va *aemia* atama elementdan esa 150 dan ortiq atama yasalgan. *Oste* atama element esa 100 atama tarkibida uchraydi. Atama element ba'zan bir necha so'z yasovchi elementlar: o'zak + suffiks + qo'shimcha yoki prefiks + o'zak + suffiks + qo'shimchadan ifodalanishi mumkin.

Masalan: *sclera + os + is*, *ec-tom-i-a* atama elementlar asosan so'z boshida yoki so'z oxirida keluvchi komponentlarga bo'linadi.

Masalan: *hyper* - yuqori, normadan yuqori, usti; *steth* – ko'krak – boshlang'ich atama elementlar, *prhagia* – qon ketish, *oma* – o'sma, shish – oxirgi atama element va hokazo.

Lekin juda ko'p atama elementlar atamaning boshida ham, oxirida ham qo'llanishi mumkin. Masalan: *splenomegalia*, *ae f = megalosplenja*, *ae f* – taloqning kattalashuvi.

Ayrim mustaqil ma'noga ega bo'lgan s'zlar ham so'ng atama element sifatida qo'llanishi mumkin: *ptosis*, *is, f* – ptoz, ko'z qovog'ining tushishi; *gastroptosis*, *is, f* - gastroptoz, oshqozonning tushishi, pasayishi; *necrosis*, *is, f* - neroz -

to'qima yoki organning o'lishi, *osteonecrosis, is, f* - osteonekroz, suyak bo'limini o'lishi.

Klinik atamashunoslikni o'zlashtirish uslubiyoti alohida atama elementlarning ma'nosini tushunish va yasama yoki murakkab atamalar yasash usullarini nazarda tutadi. Klinik atamalar odatda yasama yoki qo'shma so'zlardan ifodalanadi. Yasama so'zlar prefiks + o'zak; prefiks + o'zak + suffiks; o'zak + suffiks: *nephritis* – nefrit, buyrakning yallig'lanishi; *para + neph + itis* – paranefrit, buyrak atrofi klechatkasining yallig'lanishi va hokazo.

Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan yasaladi. Yunoncha o'zaklardan qo'shma so'z yasalganda ko'pincha “o” interfiks qo'llanadi. Masalan: *gastr + o + scopia* – gastroscopiya, gastroscop yordamida oshqozon shilliq pardasini tekshirish; *ot + o + rhin + o + logia* – tibbiyotning quloq, burun, tomoq kasalliklarini davolash bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Lekin “o” unlisi tushib qolishi ham mumkin: tonsillectomia – tonzillektomiya – bodomchani to'la olib tashlash. Ko'pchilik yunon va lotin atamalari o'zbek tiliga (o'zbek tili grammatik qoidasiga asosan) tarjimasiz ko'chiriladi. Masalan: *chronicus, a, um* - xronik, surunkali; *infarctus, us, m* – infarkt. Ba'zi hollada atama bilan birga uning tarjimai ham berilishi mumkin. Masalan: *necrosis, is, f* - nekroz, o'lish; *transplantation, onis f* - ransplantatsiya, ko'chirib o'tkazish.

Bir so'zli atamalar yasash uchun o'zak va atama elementlarni bilish zarur. Tibbiyotda oid atamalarda urg'u qo'yish qiyinchilik keltirib chiqaradi. *-ia* qo'shimchasi bilan tugallanuvchi yunoncha klinik atamalarda urg'u so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inga, *logia* so'zida esa oxiridan uchinchi bo'g'inga qo'yiladi. Masalan: *nephrectomia, hemiplegia, biologia, physiologia, -pathia, -graphia, -phonia* atama elementlari tibbiyotga oid atamalarga qo'llanganda urg'u so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inga, boshqa sohalarga oid atamalarda esa so'z oxiridan uchinchi bo'g'inga tushadi.

### Qiyoslang!

mastopathia - sympathia  
cardiographia - photographia  
aphonia - symphonia

Lotin va yunon tillarining ixcham va mukammalligi o'zbek tilida bir nechta so'zda berilgan tushunchani bir so'zda ifodalash imkonini beradi. Masalan: stomatitis, is, f - og'iz bo'shlig'ining pardasining yallig'lanishi.

Ma'lumki, tibbiyot atamalarining ko'pchilik qismi lotin va yunon tillari asosida yaratilgan. Lotincha va yunoncha old qo'shimchalar hamda so'z yasovchi qo'shimchalar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

Masalan: **intra-** (lotincha), **endo** – (yunoncha) har ikkalasi ham bir “**ichki**” ma’noni anglatadi. Klinikada (tibbiy amaliyotda) ko’proq yunon so’zlarini ishlatamiz. Ko’p atamalar bog’lovchi unli harf yordamida hamda ikki negizni qo’shish orqali yasaladi (bog’lovchi unli lotincha so’zlarda -i-, yunonchada esa -o-) Masalan: psychotherapia - psixoterapiya; neuralgia - nerv og’rig’i.

Tibbiyotda murakkab so’zlar ham uchray turadi. Murakkab so’zlar ikki va undan ortiq negizdan iborat bo’lishi mumkin. Murakkab so’zlar ikki uslubda yasaladi: toza qo’shish yoki suffiksatsiya bilan birga qo’shish. Toza qo’shishda so’nggi, tayanch qism mustaqil so’z holida ifodalanadi. Mazkur qism so’zni grammatik jihatdan shakllantirib, ma’lum bir so’z turkumiga tegishliligi ma’lum bo’lganligi uchun tayanch qism deb aytiladi, masalan, **glossopharyngeus**: birinchi qism **glosso+** ikkinchi tayanch, qism **pharyngeus** ( I guruh sifati) ; rhinencephalon: birinchi **rhin** - + ikkinchi, tayanch, **encephalon** (II turlanishdagi ot).

### **SUFFIKSATSIIYA - SO’Z YASASH USULI**

Dunyo tillarida bo’lganidek, lotin tilida ham tibbiy klinik atama terminlaryasashda suffikslardan keng foydalaniladi. Suffikslar mustaqil qo’llanilmaydigan, ammo asos (o’zakka) ga qo’shib leksik va grammatik xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan har xil ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan qo’shimchalardir. Shunday qilib olingan yasama negiz suffiksali deyiladi. Suffikslar muhim tasniflash vazifasini o’taydi. Suffiksatsiyada so’z yasovchi negiz sifatida turli so’z turkumlari - ot, sifat, fe’ldan foydalaniladi. Ayrim suffikslar faqat ma’lum bir so’z turkumi negizi bilan qo’shiladi: Masalan, **-al, -ar** suffikslari ot negizi bilan; **-io, -or** suffikslari fe’l negizi bilan. Undosh harf bilan boshlanuvchi suffiksning so’z o’zagiga qo’shilishi yordamchi unli orqali sodir bo’ladi.: **-i-**, odatda, lotin so’zlarida va **-o-** yunon tilida o’zlashgan so’zlarda: Masalan, lot. **cruc-i-** formis-simon; tuberos **-i-** tas - do’mboqlik; yun. Bronch **-o-** genus – bronxogen.

So’z yasovchi elementlar yordamida keng ma’noga ega atamalar yasaladi.

#### **I. Kichraytirish ma’nosini anglatadigan so’z yasovchi qo’shimchalar**

Qo’shimchalar	Ot	Yasama ot
-ul ( us, a, um )	lob - s - shar ven - a - vena fren- um- tugun	glob – ulus- sharcha ven- ula -kichkina vena fren – ulum - tuguncha
-cul ( us, a, um )	canal – is - kanal, nay	canal- i –culus - kanalcha, naycha
-ol ( us, a, um )	aur – is - quloq	auricular – quloqcha

	are – a - maydon	are – ola – maydoncha
-ell ( us, a, um )	cerebrum – bosh miya	cereb – ellum – miyacha
- ill	mam(ma) – sut bezi	mam(m) – illa – so'rg'ich

## II. Harakat ta'sir ma'nosini ifodalovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Ot	Yasama fe'l
-io ( tio, sio, xio )	Flex - um - egilmoq	Flex – io - egilish
-or (tor, sor, xor )	adduct – um – yaqinlashtirmoq flex – um – egmoq extens – um - yoymoq	m.adductor – yaqinlashtiruvchi mushak. m. flex – or – eguvchi mushak. m. extens – or – yozuvchi mushak.

## III. Harakat natijasini ifodalovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

Sifat	Fe'l	Misol
ura( tura, sura, xura)	rupt – um – yormoq apert – um – ochmoq incis – um - kesmoq	rupt – ura – yoriq apert – ura – ochiq incis – ura - kesiq

## IV. Sifatlardagi so'z yasovchi qo'shimchalar

Suffiks	Ot	Yasama sifat
-osus ( a, um )	squam - a – tangacha fibr – a - tola infect – io – infeksiya	squam – osus – tangachasimon fibr – osus – tolasimon infecti – osus - infeksiyaga oid

## V. Taalluqlilik, oidlik ma'nosini ifodalovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

Suffiks	Ot	Yasama sifat
-ai ( is, e )	coron – a – toj	coron – alis – tojga oid
-ar ( is, e )	clavicul – a – o'mrov	clavicul – aris – o'mrovga oid
-ic ( us, a, um )	thorax, acis, - ko'krak qafasi	thorac – icus – ko'krak qafasiga oid
-e ( us, a, um )	perone – kichik bolder suyagi oesophag – us – qizilo'ngach	peron – eus – kichik boldir suyagiga oid oesophag – eus – qizilo'ngachga oid
-in ( us, a, um )	palat – um – tanglay	palat – imus – tanglayga oid



	pelv – is - chanoq	pelv – inus – chanoqqa oid
--	--------------------	----------------------------

## VI. O'xshashlik ma'nosini anglatuvchi so'z yasovchi qo'shimchalar

Suffiks	Ot	Yasama ot
-ide ( us, a, um )	rhombos - romb	rhombo – ides – rombsimon
- ides	delta - delta	delto – ideus - deltasimon
-from ( is, e )	crux, crucis	cruci – formis – krestsimon

Demak tibbiyotga oid atamalarni o'rganishda so'z yasash vositalari va usullarini bilish katta ahamiyatga ega.

## BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR

### I. O'zbek tiliga tarjima qiling:

tuberalis, tuberosus, tuberculum, tuberositas, tubercularis; tubus, tubulus, tuba, tubula, tubalis; bulla, bullosus; capitulum, capitalis; denticulus, dentalis; vesicular, vesiculais.

### II. Qo'shimchalarni belgilab, o'zbek tiliga tarjima qiling:

cuticula, tuberculum, mammilla, frenulum, glomerulum, ossiculum, ventriculus, corpusculum, lingula, lingualis, lingularis, radicular, ventralis, dorsalis, tympanicus, caninus, meningeus, cardiogenus, spongiosus, analis, femoralis, geniculum, maxillaries, mandibularis, mucosa, serosa, granulosis, alveolaris, gluteus, coccygeus, carpeus, parotideus, tarseus, phalangeus, caroticus,

### III. Qo'shimchalar ma'nosini ko'rsatib, o'zbek tiliga tarjima qiling:

papilla parotidea, ductus pancreaticus, fossa condylaris, fossula petrosa ossis temporalis, incisura fibularis, processus styloideus, ductus hepaticus, os scaphoideum, palatum osseum, vena gastric, artetia meningeal, ductuli prostatici, fossa canina maxillae, cavitas mendullaris, cornu sacrale, apex ossis sacri, tuber ischiadicum, systema nervosum central.

### IV. –or qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang:

constrictum – toraytirmoq; depressum – tushirmoq, bosmoq; injectum – ichiga tashlamoq; supinatum – to'ntarmoq, ag'darmoq; erectum – to'g'rilamoq; monitum – eslatmoq, nazorat qilmoq; excavatum – o'yib olmoq; acceptum – qabul qilmoq; receptum – olmoq; ordinatum – tartibga solmoq.

### V. –ura qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang:


Junctum – bog'lamoq; strictum – toraymoq; curvatum – egmoq; fissum – tilmoq, yormoq; comissum – biriktirmoq; sutum – tikmoq; fractum – sindirdimoq;

## VI. Klinik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qiling:

perforation appendicis, abscessus chronicus, abscessus hepatis ascaridosus, glaucoma malignum pigmentosum, glaucoma juvenile, polypus muucosus simplex, polypus fibrosus, cancer papillaris, eruption medicamentosa, ulcus angraenosum, cysta dentalis radicularis, cysta bronchogena, cysta palatena, cancer pulmonis.

### LEKSIK MINIMUM

abscessus, us m	abscess	acutus, a, um	o'tkir
benignus, a, um	yaxshi sifatli	cancer, cri m	saraton
caries, ei f	karies	colica, ae, f	sanchiq
coma, atis n	behush holat	cysta, ae f	pufak, kista
diabetes, ae, f	diabet	diabeticus, a, um	diabetga oid
diffuses, a, um	tarqalish	eczema, atis n	chilla yara
fractura, ae, f	sinish	gangraena, ae, f	qorason
gangraenosus, a, um	gangrenali	glaucoma, atis n	glaukoma
hernia, ae, f	churra	hernialis, e	churraga oid
icterus, i, m	sariqlik	ileus, i m	ichak tutilishi
infantilus, e	bolalarga xos	infectio, onis f	infesiya
infectiosus, a, um	yuqumli	inflammatio, onis f	yalig'lanish
juvenilis, e	o'spirinlarga xos	malignus, a, um	xavfli
morbus, i, m	kasallik	oedema, atis, n	shish
paralysis, is f	falaj, shal	paralyticus, a, um	shallikka oid
paresis, is, f	parez	pneumonia, ae, f	zotiljam
senilis, e	keksalikka xos	spasmus, i m	tirishish
spasticus, a, um	tirishishga oid	trauma, atis n	shikastlanish
traumaticus, a, um	travmaga oid	ulcus, eris n	yara
ulcerosus, a, um	yarali	varix, icis m, f	vena tuguni
volvulus, i m	ichaklarning buralib qolishi		



## §17. PREFIKSATSIYA - KLINIK ATAMA YASASH USULI

**Maqsad.** Prefikslar (old qo'shimcha) bilan klinik atamalarni yasash vositalari va usullari bilan tanishish; murakkab atamalarni tahlil qilish va yasash ko'nikma hamda malakalarini o'stirish.

Prefiks tilshunoslikda old qo'shimcha sifatida e'tirof etiladi. Prefikslar, odatda, vaqt, makon yoki inkorni ifodalaydi. Prefiks yakka holda kelsa, oxirida defis (-) qo'yiladi.

Prefiksatsiya - old qo'shimchani asosga (o'zakka) qo'shish, bunda ma'no o'zgarmaydi, balki ushbu tushuncha **ma'no kengayishini** (yuqori, quyi, orqa, oldingi), **yo'nalishni** (yaqinlashish, uzoqlashish), **kechishni** (ilgari, keyin), mavjudligi yoki inkor etishni ifodalab keladi.

Ba'zi prefikslarning o'z ma'nosi asosida **ikkilamchi, ko'chma** ma'nolar yuzaga kelgan. Shu tarzda yunon ko'makchisi **para** (atrof, yoni) da ko'chma ma'no "chekinish, og'ish, ma'lum hodisaning tashqiy namoyon mohiyatiga mos kelmaslk" rivojlangann, masalan: paranasalis – burun atrofi; paramnesia (yun. mnesia – xotira) – xotira buzilishi va yolg'on xotiraning yuzaga kelishi; Paratyphus – Salmonella avlodiga mansub ma'lum bakteriyalar tomonidan Qo'zg'atiluvchi odam yuqumli kasalliklar guruhining umumiy nomi bo'lib ich terlama (qorin tifi) alomatlariga o'xshash (!) ba'zi klinik ko'rinish bilan xarakterlanadi.

Morfologiya fani sohalarida qo'llaniladigan tushunchalarda AE –prefikslar o'z ma'nosiga ega. Patologik holatlar, kasalliklar, a'zo faoliyatining buzilishlarini ifodalovchi terminlarda esa AE - prefikslar ikkilamchi ma'nodda foydalaniladi, masalam **anat.** hypogastrium – qorin osti; **pat, fiziol.** Hypotonia - mushakning yoki kavak a'zo mushak qavatining tonusi tushishi.

Anatomik nomenklaturada lotin prefikslari, patologik anatomiya, fiziologiya, klinik fan sohalarida esa yunon prefikslari ustunlikka ega. Biroq istisnolar ham uchrab turadi: epicranialis - kalla usti, epifascialis – fassiya usti, endocervikali – bo'yin uchi.

So'z yasashda muhim o'rinni egallaydigan yunon – lotin prefikslari quyidagilar:

*Tibbiyotda eng ko'p qo'llaniladigan lotin –yunon prefikslari*

t.r	prefikslar		ma`nosi	misollar	tarjimasi
	lotin	yunon			
1	2	3	4	5	6
1	ad		yaqinlashtiruvchi	adductor	yaqinlashtiruvchi m.
2	ab	apo	uzoqlashtiruvchi	abductor apophysis	uzoqlashtiruvchi m. o'simta
3	intra intro	endo	tashqaridan ichkarigan harakat	intraabdominali s endoderma	qorin ichidagi pusht pardasining ichki varag'i
4	extra	ecto exo	Sirtqi ichkaridan tashqariga	extrauterinus exoglossia exoplasma	bachadondan tashqari tilning kattalashuvi protoplazmaning tashqi qavati
5	infra sub	hypo	ost, ostki normadan kam	infrascapularis hypogastricus hypotoniia	kurak osti qorin osti me'da oyi qon bosimining pasayishi
6	super supra	epi hyper	yuqorigi, ustki normadan ortiq	superior supraorbitalis epiphysis epigastricus	yuqorigi ko'z kosasi usti, uzun suyaklarning ikki uchi, me'da usti
7	ante prae	pro	Old	antebrachium anteuterinus pronephros	bilak bachadonning old qismi oldingi buyrak
8	post	meta	orqadagi boshqa qiyofaga kirish	posterior postoperativus metacarpus metabolismus	orqadagi, ortki operatsiyadan so'ng kaft modda almashuvi
9	inter	meso	oraliq, o'rta, aro	intervertebralis interscapularis interdentalis mesoderma	umurtqalararo qovurg'alararo tishlararo pushtning o'rta varag'i
10	cicu	peri	atrofida, aylanma,	circumferential	doira

	m	para	to`garak	periosteum parasternalis	suyak ustki pardasi to'sh yoni
11	trans	dia	ko`ndalang	transplantation transverses diathermia	ko'chirib o'tkazish ko'ndalang issiq o'tkazish
12	retro re	-	orqadan, qaytadan boshlanmoq, tiklash	retromandibulari s retroflexio reanimation reabilitatio	pastki jag'orqasidagi orqaga bukish jon kiritish, jonlash faoliyatni tiklash
13	con com	sym syn	bilan	compressor symbiosis synostosis  syndesmologia	qisish birga yashash ikki suyakning suyak qatlami bilan birikish boylamlar va bo'g'implar haqida ta'limot
14	contr a	anti	qarama-qarshi	contralateralis contraindication  antitoxia	bir-biriga qarshi turgan biror dori yoki davo lashning yoqmasligi, to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi zaharga qarshi
15	in im	en endo	tashqaridan, ichkariga harakat	internus injectio endoderma encephalon endocardium	ichkari dori yuborish pusht ardasi ichki bosh miya yurakning ichki pardasi
16	ex	ec	ichkaridan tashqariga harakat	externus extremitas ectropium  ectoderma	tashqari uchi, oxiri qovoqning tashqariga qayrilishi tashqi varaq
17	im in	a, an	-siz	impotentia impar analgia anorganicus	bequvvatlik, toq, og'riqni qoldirish, noorganik, organic bo'lmagan

18		dys	to`zg`ib ketish	dystonia dyspepsia	qon bosimining buzilishi ovqat hazm qilishning buzilishi
19		eu	normal faoliyat	eurhythmia eupnoe	normal, marom (ritm ) to`g`ri nafas olish
20	dis	dia	bo`lish taqsimlash	disseminatio diagnosis	tarqalib, sochilib ketmoq kasallikni aniqlash
21	de des	se	ajratib olish	desinfectio depressor	zararli mikroblardan tozalash tushiruvchi muskul

Ayrim yunon prefikslari birlamchi va ikkilamchi yoki ko'chma ma'noga ega. Birlamchi ma'noda ular ko'proq morfologik nomlarda, ko'chma ma'noda esa klinik atamalarda qo'llanadi. Shuningdek, lotin prefikslari lotincha negizga qo'shiladi. Ba'zan istisno so'zlar ham uchrashi mumkin.

**Misollar:** hypoglossus til osti suyagi  
internus ichki  
sublingualis til osti  
epicardium epikard  
**Istisno:** episternalis- to'sh usti,  
endocervicalis- bo'yin uchi

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

***I. Quyidagi atamalar uchun umumiy AE ( atama element ) ajrating va ularni tarjima qiling:***

- |                    |                 |                   |
|--------------------|-----------------|-------------------|
| 1) submandibularis | 2) episternalis | 3) transplantatio |
| supramandibularis  | parasternalis   | transfusio        |
| retromandibularis  | suprasternalis  | transversus       |
| 1) endoderma       | 5) atonia       |                   |
| dystonia           | ectoderma       |                   |
| hypertonia         | mesoderma       |                   |
| hypotonia          | epidermis       |                   |

***II. Berilgan AE lardan atamalar yasang. AE va atamalarning ma'nolarini solishtiring:***

- 1) inter ( costalis, muscularis, vertebralis)
- 2) contra ( tussim, lateralis, indication)

- 3) re ( construction, animation, spiratio)
- 4) ( a, dys, hyper, hypo ) trophia
- 5) ( meso, epi, hypo) gastrium

### **III. Quyida berilgan atamalarni tarkibiy qismlarga ajratib ma'nosini tushuntiring:**

extrapyramidalis, extramuralis (lat. *murus* - devor), paravesicalis, submandibularis, retrobuccalis, premolaris ( dentes ), subpleuralis, connectives (*textus* – to'qima: *necto* – to'qimoq, birlashtirmoq), adducens ( lot. *duco*- o'tkazmoq), abducens, abductio, praeglaucoma, praecancerosus, infraorbitalis, supraclavicularis, infratrochlearis, supratrochlearis, interclavicularis, interosseus, intralobularis, intramuscularis, parasternalis, episternalis, suprasternalis, subcorticalis, subduralis (miya pardasi), epitympanicus, endocervicalis, application ( *aplico* – yopishtirmoq), antenatalis ( lot. *natus* – tug'ilish), postnatalis, intertarsea, intranatalis, mesoduodenum, interalveolaris, subcutaneous, extrapulmonalis.

### **IV. Prefikslarni ajratib:**

Infraorbitalis, supraclavicularis, infratrochlearis, supratrochlearis, interclavicularis, interosseus, intralobularis, intramuscularis, parasternalis, episternalis, suprasternalis, subcorticalis, subduralis, epitympanicus, endocervicalis, application (aplico), antenatalis, (natus), postnatalis, intertarsea, intranatalis, mesoduodenum, interalveolaris, subcutaneous, extrapulmonalis, extrapyramidalis, extramuralis (murus), paravesicalis, submandibularis, retrobuccalis, premolaris (dentes), supleuralis, connectives, adducens, abducens, abduction, praeglaucoma, praecancerosus.

### **V. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang**

2. Aggravatio (gravis), exhumation (humus), adaptation (aptus), readaptatio; decompensatio, desactivatio, synphalangia, absorption (sorbeo), absorptio; reabilitatio (habilitas), praemorbibus (morbus), exenteratio seu eventratio; exarticulatio, extirpatio (stirps), dementia (mens, mentis), diastole, systole, diathermia (thermos), invasio (vado), dilatation (dilato), dissemination (semino), differentialis, endemia (demos).

### **VI. Sifatlarni tarjima qiling:**

Pastki jag' osti, ensa osti, til osti, bo'g'imlararo, muskullararo, to'sh orqasi, lunj orqasi, qorin tashqarisi, muskul ichi, qirg'oq tepasi, to'sh usti, (2 xil old

qo'shimcha bilan ), til osti, umurtqalararo, qorin orqasi, halqum orqasi, kapsula ichi, buyrak usti, ko'krak ichi.

## **VII. Quyida berilgan atamalarni lotincha yozing:**

Diagnoz, invalid, transplantatsiya, distoniya, gipoksiya, gipertrofiya, prognoz, bachadon, tuxumdon, ko'z kosasi, bilak suyagi, peshona.

### **BILIMLARINGIZNI TEKSHIRIB KO'RING - CHI !**

1. Lotin tilidagi **ad-** va **ab-** prefikslari qanday ma'nolarni ifodalashda qo'llaniladi ?
2. Yunoncha **endo-** prefiksi qanday harakatni ifodalaydi?  
**intra-** , **intro-** - otincha old qo'shimchalari-chi?
3. "old" ma'nosini bildiruvchi lotin – yunon prefikslarini ayting.
4. Lotincha **infra-**, **sub-** old qo'shimchalari qanday ma'nollarni anglatadi?  
Yunoncha **hypo-** chi ?
5. "**yuqorigi**", "**ustki**" ma'nolarni anglatuvchi old qo'shimchalarni bilasizmi?
6. Endoderma, mesoderma, ektoderma so'zlaridan qaysi biri terining ichki qavati hisoblanadi?
7. Lotin tilidagi qaysi **old qo'shimcha** o'zbek tilidagi "ko'chirib o'tkazish" ma'nosini beradi?
8. Qaysi prefiks ma'no jihatdan "**ad-**" prefiksiga qarama-qarshi?
9. **patiya**, **simpatiya**, **antipatiya** so'zlarining ma'nosini qanday tushunasiz?
10. Qorin ichi organlarining tutqichi ma'nosini ifodalovchi atamalar qaysi prefiks yordamida yasaladi?

## **§18. KLINIK ATAMALAR YASASHDA QO'LLANILADIGAN ATAMA ELEMENTLAR**

- I. **A'zo va tana qismlarini ifodalovchi yunon-lotin dubletlari va ta'lim, fan, diagnostik tekshirish usullari, davolash, kasallik, dardni ifodalovchi yunon yakka atama elementlar**



**Maqsad.** Quyida keltirilgan suffikslar, yunon-lotin dubletlari va yakka atama elementlarning ma’nosini puxtaroq o’rganish; murakkab so’zlarni amaliy – tahliliy o’rganish va yangi tibbiy klinik terminlar yasash ko’nikma hamda malakalarini rivojlantirish.

Tibbiyotda klinik atamalar yasashda eng ko’p qo’llaniladigan quyidagi “**a’zo va tana qismlarini ifodalovchi yunon-lotin dubletlari**”, ya’ni ikkala tilda takrorlanuvchi atama elementlar hamda yakka atama elementlarni shuningdek “**ta’lim, fan, diagnostic tekshirish usullari, davolash , kasallik, dardni ifodalovchi yunon yakka atama elementlar**”ini avvalo tanishib chiqib so’ng yozma – og’zaki yodlab olish bo’lg’usi shifokor uchun foydadan xoli emas.

### 1. A’zo va tana qismlarini ifodalovchi yunon-lotin dubletlari

Yunon AE	Lotincha so’zlar	Ma’nosi
A.kephalo-, cephalo-, -cephalia ( kephale )	caput, itis n	bosh
somato-, -soma (soma,atos)	corpus, oris	tana
osteo - (osteon)	os, ossis n	suyak
acro-, -acria (akron)	membrum, i n	qo’l, oyoq
stetho ( stethos)	pectus, oris n thorax, acis m /yun /	ko’krak
spondylo- (spondylos)	vertebra, ae f	umurtqa
cardio-, -cardium (kardia)	cor, cordis n ostium cardiacum ( PNA)	yurak
arthro-, ( arthron )	articulatio, onis f	bo’g’im
stomato- (stoma, stomatos)	os, oris n	og’iz
gloss-, -glossia (glossa)	lingua, ae f	til
rhino- (rhis, rhinos)	nasus, i m	burun
odonto-, odontia ( odus, odontos)	dens, dentis m	tish
<b>B.</b> cheiro-, chiro-, cheiria, -chiria ( cheir)	manus, us f	qo’l

### II. Ta’limot, fan, diagnostik tekshirish usullari, davolash, kasallik, dardni ifodalovchi yunon yakka atama elementlari

Yunon AE	Ma'nosi
-logia ( logos )	fan, ta'limot
-logo- ( logia )	nutq
-scopia ( skopeo )	asbob yordamida tekshirish
-metria, -metr-( metreo) ( metrom )	o'lchash
-graphia ( grapho )	grafik tasvirlash
-gramma ( gramma )	yozish
-therapia ( therapeia )	davolash
-noso- ( nosos )	dard, kasallik
-patho-, -pathia ( pathos )	istirob, kayfiyat
alg-, -algia, -algisia	og'riq
-odynia ( odyne )	

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

**1. Quyida berilgan atamalar uchun umumiy AE ni ajrating va atamalarni tarjima qiling:**

- |                 |                     |            |
|-----------------|---------------------|------------|
| 1. logopaedia   | 2. odontalgia       | 3. apathia |
| logotherapia    | acralgia            | sympathia  |
| logopathia      | arthralgia          | antipathia |
| cephalalgia     | cardiopathia        |            |
| 4. somatoscopia | 5. cardiologia      |            |
| stomatoscopia   | cardialgia          |            |
| rhinoscopia     | cardioscopia        |            |
| stethoscopia    | elektrocardiogramma |            |

**2. Berilgan AE lardan atamalar yasang va ma'nosini tushuntirib bering:**

- a) arthro (pathia, graphia, metria, algia), stheto (gramma, scopia, scopus, metria);  
b) (stomato, cardio, osteo, arthro) logia, (spondylo, acro, glosso, rhachi) odynia.

**3. Quyidagi atamalarni AE larga ajrating va ma'nosini tushuntiring:**

A. Osteologia, osteoarthropathia, somatologia, somatoscopia, acralgia, spondylodynia, arthropathia, stomatologia, pathologia, sthometria, cardiographia, hormonotherapia, vasoconstriction, nosologia, brachialgia, logopathia, spondylographia, rhinologia, periosteum, osteogenus, hepatogenus, glossalgia,

odontalgia, panceatodynia, ilaeocaecalis, ileocollicus, iliofemoralis, lymphonodus, thyreoglossus, ischiococcygeus, thyreogenus.

**B.** Podalgia, acheiria, chiroscopia, gonalgia, apodia, chirospasmus, macropodia, brachicephalicus.

#### **4. Berilgan atamalarni lotincha yozing:**

Ensefalometriya, kardiografiya, spondilodiniya, logopatiya, patogen, artrologiya, stetoskop, elektroterapiya, gonalgia, osteologiya, xirurgiya

#### **5. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

Yurak xastaligi bilan umurtqa pog'onasidagi og'riq, tishlarni davolash ko'krak qafasidagi og'riq, boshni o'lchash, og'izni asbob yordamida tekshirish, burun (devorlarini) asbob yordamida ko'rish, bosh miyani roentgen yordamida tekshirish, qo'l va oyoq xastaligi, tishlar xastaligi, bosh miya xastaligi, tish og'rig'i, burun xastaligi, bo'g'imlar xastaligi, yurak xastaligi.

#### **6. Quyidagi terminlarni o'zbek tiliga tarjima qiling**

Adenoma hypophysis mixtum. Adenoma hepatis malignum. Dermatitis pustulosa chronica. Keratitis superficialis marginalis. Lymphangiitis carcinomatosa. Osteomyelitis primaria (chronica). Otitis media catarrhalis acuta. Pancreatitis haemorrhagica. Pleuritis sicca benigna. Adenoma glandulae thyroideae toxicum. Laryngitis necrotica. Phlebitis allergica migrans. Encephalitis primaria allergica acuta. Septicogranulomatosis neonatorum. Myelosis erythraemica acuta. Necrobiosis lipoidea diabetica. Necrosis lipoidea neonatorum. Granuloma faciei malignum. Meningitis abdominotyphosa. Xanthomatosis cutis. Appendicitis ulcerophlegmonosa. Nephrosis congenita. Oedema cutis recurrens cum necrobiosi. Anamnesis vitae (morbi). Prognosis optima (pessima). Status praesens aegroti. Diagnosis bona – curatio bona.

#### **Terminlarni ma'nosini yozing:**

odontalgia, vulnus, nephrosis, somatometria, neuroma, polyarthritis, metrohaemorrhagia, odontorrhagia, arthralgia, spondylodynia, osteopathia, gastrorrhagia, macrocephalia, acrophobia, osteoarthropathia, acardia, stomatoscopia, glossoptosis, acheiria, macropodia, phthisiatria, hyperaesthesia.

### **MUSTAQIL O'QIB O'RGANISH UCHUN LOTIN MAQOLLARI**

1. Omne vivum ex cellulae

*Barcha tirik mavjudot hujayradan*

2. Homo locum ornate, non hominem locus *iborat.*  
*O'rin insonni emas, inson o'rinni bezaydi.*
3. Optimum medicamentum quies est *Osoyishtalik eng yaxshi doridir.*

### **§19. ORGANLAR VA TO'QIMALARDAGI PATOLOGIK O'ZGARISHLARNI, TERAPEVTIK HAMDA XIRURGIK USULLARNI IFODALOVCHI YUNON ATAMA ELEMENTLARI**

**Maqsad.** Quyida keltirilgan suffikslar, yunon-lotin dubletlari va yakka atama elementlarning ma'nosini puxtaroq o'rganish; murakkab so'zlarni amaliy – tahliliy o'rganish va yangi tibbiy klinik terminlar yasash ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirish.

<b>Suffikslar</b>	<b>Ma'nosi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Ma'nosi</b>
<b>-osis</b> <b>-iasis</b>	Yalig'lanishdan tashqari kasallik, hujayralar miqdorining ortib ketishi, patologik jarayon va uning natijasi	stenosis	torayish
		sclerosis	Zichlanish qattiqlanish
		toxicosis	Zaharlanish
		lithiasis	Tosh hosil bo'lishi
		psoriasis	Terining toshmali Kasalliklari
<b>-ismus</b>	O'zakma'nosi bilan bog'liq patologik holat yoki ko'rinish	infantilismus	jismoniy yoki aqliy jihatdan bola yoshi darajasida qolish
		virilismus	Ayollarda erkaklarda xos belgilarning paydo bo'lishi
<b>-itis</b>	Yallig'lanish	arthritis	Bo'g'implarning yallig'lanishi
		stomatitis	og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishi
<b>-oma</b>	O'sma, shish	osteoma	Suyak to'qimalaridan hosil bo'lgan o'sma

### **YUNON-LOTIN DUBLETLARI VA YAKKA ATAMA ELEMENTLARI**

<b>Yunon AE</b>	<b>Lotincha so'zlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
splanchno- (splanchna pl)	viscera, pl	ichki a'zolar
gastro-, gastria (gaster, gastros)	ventriculus, i, n	me'da, oshqozon
entero- (enteron, entera pl)	intestinum, i, n intestina, pl intestinum tenue	ichak ingichka ichak
laparo-(lapare)	abdomen, inis n venter, ntris m	qorin
procto-(proktos)	anus, i m rectum, n	orqa chiqaruv teshigi to'g'ri ichak
pneumo-, pneumono- (pneumon)	pulmo, onis m	o'pka
nephro- (nephros)	ren, renis m	Buyrak
spleno- (spleen)	lien, ensi m	Taloq
pyelo-(pielos)	pelvis renalis	buyrak jomchasi
cysto- (kystis)	vesica, ae f vesica urinaria	pufak siydik pufagi
cholecysto- (chole- doche)	ductus choledochus	o't oqimi
metro-,metra,-metrium (metra) hystero-(hustera)	uterus, i m	Bachadon
omphalo-(omphalos)	umbilicus, i m funiculus umbilicalis	kindik
typhlo-(typhlon)	c (a) ecum, i n	ko'r ichak
dicryosysto- (dacryon+kystis)	saccus lacrimalis	ko'z yoshi qopchasi
colpo (kolpos)	vagina, ae f	Qin
oophoro-(oophoron)	ovarium, i n	Tuxumdon
oo - (oon)	ovum, i n	Tuxum
salpingo (salpinx, salpingos)	tuba uterine tuba auditiva	bachadon nayi eshitish nayi
trachelo- (trachelos)	cervix, icis f (uteri)	bachadon bo'yinchasi
orchi-, orchid-, orchidia, -orchia	testis, is m	moyak

(orchis; orchidion)		
---------------------	--	--

**ORGANLARDAGI VA TO'QIMALARDAGI PATOLOGIK O'ZGARISHLARNI,  
TERAPEVTIK HAMDA XIRURGIK USULLARNI IFODALOVCHI YUNON  
ATAMA ELEMENTLAR**

<b>Yunon AE</b>	<b>Ma'nosi</b>
A -iatria, -iater (iatria, iatros)	davolash, vrach
-ectasia, -ectasis (ektasis)	Kengayish
-ptosis (ptosis)	pasayish, tushish
steno-, -stenosis (stenos, stenosis)	tor, torayish
sclera, -sclerosis)	qattiqlash, zichlashish
-malacia (malakos, malakia)	yumshab ketish
-lysis, -lyt (lysis)	Parchalanish
-plastica (plastike, plasso)	nafis operatsiyasi, qayta tiklash
-tomia (tome)	kesib organni ochish
-tomo 9tomos)	qatlam, kesma
-ectomy (ektome)	olib tashlash
-stomia (stoma, stomatos)	suniy teshik ochish
-pexia (pexis)	biriktirish, mustahkamlash
B. schisis	Parchalanish
-rhexis	Yorilish
-desis	Mustahkamlash
-eurysis (eurys)	kengaytirish usuli
-eurynter (euryno)	kengaytiruvchi asbob
-clasia (klasis)	Buzish
-centesis (kentesis)	igna sanchish
-privus	organni olib tashlash bilan bog'liq

**BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR**

**1. Quyidagi atamalarni tarkibiy qismlarga ajratib ma'nosini tushuntiring:**

A. Acidosis (acidum –kislota), coniosis (yun. konia- chang), pneumoconiosis, ascaridosis, mycosis (yun. Mycos – zamburug'), fibrosis (tolali biriktiruvchi to'qimaning ortib ketishi), osteofibrosis, tuberculosis, lymphologia, lymphocytus, lymphocytosis, lymphocytoma, lymphoma, morphinismus, mercurialismus (simobdan surunkali zaharlanish), prostatismus (sindrom), arthrosis (surunkali kasallik), arthritis, nephrosis, nephritis, hepatitis, thrombocytosis, cholangiitis,

spondylosis ( distrofik o'zgarish), spondylitis, thrombocytosis, cretinismus ( fr. Cretin – kretin), amoebiasis, pyelitis, helminthosis, silicosis (silicium – kemniy).

**B.** Omphalitis, typhlitis, dacryocystitis, trachelitis, cervicitis, salpingitis, orchitis, gonarthrosis, sigmoiditis, thyreocytus, gigantismus, ureteritis.

Splanchnologia, gastroenterologia, intestinoplastica, laparotomia, gastroectasia, bronchoectasis, vagotomia, enteroptosis, hydrotherapia, stenocardia, colostomia, tomographia, nephrostomia, chondromalacia, metroplastica.

## **2. Berilgan AE lardan atamalar yasang va ma'nosini tushuntiring:**

- 1) **-itis** (gastr - , enter-, cholecyst-, nephr- )
- 2) **-oma** ( odont-, osteo-, lip-, epiteli-)
- 3) **-pneumo-** ( -ectasia, -ectomia, -malacia, -pexia)
- 4) **-cysto-** ( -tomia, -stomia, -scopia, -graphia)
- 5) **-plastica** ( rhino-, glosso-, gnatho-, choledocho-)
- 6) **-rhapsia** ( laparo-, hystero-, procto-, cheilo- )

## **3. Quyida berilgan ma'nolarni ifodalovchi lotincha atamalar yasang:**

**A.** Umurtqa pog'onasidagi og'riq, bachadonning tushishi, bachadonni olib tashlash, buyrakka sun'iy teshikochish, chamber ichakni (ochish) kesish, tish shishi, yo'g'on ichak spazmi, suyak sinishi, suyak, tog'ay, bosh miya, plastik operatsiyasi, o'pkaning kengayishi, tish travmasi

**B.** Qin, sigmasimon ichak, bo'shliq yalig'lanishi, qin va chot plastinkasi, qin yorilishi, kindikni kesish, ko'z yosh xaltachasining yalig'lanishi, bachadon naylarining rentgenografiyasi, bachadon naylari va tuxumdonning yallig'lanishi, qin kengayishi, suyak sinishi, umurtqani parchalanishi.

## **4. Quyidagi atamalarni lotincha yozing:**

Rinoplastika, nefrit, osteomalasiya, stenokardiya, enterestomiya, gisteroptoz, tomografiya, proktotenozi, ensefalit, litiaz, pediateriya, odontoma,

## **5. Quyidagi atamalarni o'zbekcha yozing:**

Epiphysis, facies articularis, metaphysis, lamina externa, lamina interna, apophysis, tuberculum, foramina nutricia, medulla osseum rubra, corpus vertebrae, arcus vertebrae, foramen vertebrae, processus articularis superior, foramen intervertebrale, tuberculum caroticum, arcus anterior

**§20. TO'QIMALAR, ORGANLAR, SUYUQLIKLAR, SEKRETLAR, JINS VA YOSHNI IFODALOVCHI YUNON-LOTIN DUBLETLARI. FUNKSIONAL VA PATOLOGIK HOLAT HAMDA JARAYONLARNI IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLAR**

*Maqsad.* Yangi yunon-lotin atama elementlarning ma'nolarini bilib olish; turli ma'nolarni ifodalovchi klinik atamalar yasash va ularni tarkibiy qismlarga bo'lib tahlil qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

*Quyida berilgan yunon-lotin dubletlari va yakka atama elementlarni yod oling*

<b>Yunon AE</b>	<b>Lotincha so'zlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
a. haemo-, haemato-, aemia	sanguis , inis m	qon
histo-, histio-	textus, us, m	to'qima
myo-, -mysium	musculus, i, m	muskul
cyto-, cytus (kytos)	cellula, ae, f	hujayra
chondro- (chondros)	cartilago, inis , f	tog'ay
cele ( kele )	hernia, ae, f	churra
neuro-, neuro- (neuron)	nervus, i m	nerv, asab
adeno- (aden)	glandula, ae, f nodus lymphaticus	Bez limfa tuguni
angio (angeion)	vas, vasis n	tomir
blasto-, blastus (blastos)	germen, inis n	pusht
phlebo- (phleps, phlebos)	vena, ae f	tomir
teno- (tenon)	tendo, inis, m	pay
dermo-, dermat-, derma	cutis, is , f	teri
uro-, -uresis, -uia (uron)	urina, ae, f	siydik
chole-, -chohia (chole)	fel, fellis n bilis, is f	o't , safro
chylo-, chylia (chylos)	lympa, ae, f	limfa
pyo (pyon)	pus, puris n	yiring
hidro- (hidros)	sudor, oris, m	Ter
hydro-, (hydor, hydratos)	aqua, ae, f	Suv
tox-, toxico-, toxi-(toxon)	venenum, i, n	zahar
litho-, -lithiasis (lithos)	calculus, i, m	tosh
onco, (oncos, oncoma)	tumor, oris m	shish
myelo-, -myelia (myelos)	medulla spinalis	orqa miya



	medulla ossium	suyak ko'migi
masto- (mastos)	mamma, ae, f	sut bezi
oto-, -otia (us, otos)	auris, is, f	quloq
ophthalmo-, ophthalmia (ophtalmos)	oculus, i m	ko'z
sphygmo-, sphygmia	pulsus, us, m	tomir urishi
gyno-, gynaeco-(hyne )	femina, ae, f	ayol
andro-, - andria(ander, andros)	mas, maris m	erkak
paedio-, paedo- (pais, paidos, paedion) paedia(paidea)	infans, ntis, m, f puer, eri m	bola davolash usuli
geri-, gero-, geronto-(geron)	senex, senis m, senilis, e	keksa
topo- (topos )	locus, i m	o'rin
pharmaco- (pharmacon)	medicamentum, i n	dori
b.tricho-, trichia	papillus, i m	soch
onycho-, -onychia	unguis, is m	tirnoq
dacryo-(dacryon)	lacrima, ae, f	ko'z yoshi
sialo-, -sialia (sialon)	saliva, ae, f	so'lak
copro-, (kopros)	faeces, ium f (pl) stercus, oris n	axlat, najas
galacto- (gala, galactos)	lac, lactis n	Sut
lipo- (lipos)	adeps, ipis m	yog'
op-, opt-, optico-, opia, -opsia (ops, opos0)	visus, us m visio, onis f	ko'rish
phaco-, -phakia (phacos)	lens, lentis f	ko'z gavhari
blepharo- (blepharon)	palpebra, ae, f	qovoq
kerato- (keras, atos por)	cornea, ae f	shox parda
phono-, -phonia (phone)	vox, vocis f sonus, i, m	tovush

***FUNKSIONAL VA PATOLOGIK HOLAT HAMDA JARAYONLARNI  
IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLAR***

<b>Yunon atama elementlari</b>	<b>Ma'nosi</b>
bio – (bios)	Hayot
pnoe, -pmoe (pnoe; pnoia)	nafas
geno-, -genesis, -genia (genos, genesis)	tug'ilish, rivojlanish
aesthesio-, aesthesia (aesthesis)	Sezish

astheno (asthenes,asthenos,asthenia)	kuchsizlik, toliqish
spiro- (spiro, spiratum)	nafas olish
pneumo-, pneumat (pneuma,atos)	organdagi havo, gaz
aero- (aer, aeros; aer, aeris)	Havo
kinesia, kinemato-,kineto-(kinesis) kinema- ( kinesis)	Harakat
crin-, -crinia ( krino)	ajralib chiqish
cytosis ( sytus osis)	hujayra miqdorining ortishi
penia ( penia)	yetishmaslik
rhoea (rhoia, rhoe)	oqish
rhagia (rhagos, haemorrhagia)	qon ketishi
stasis (stasis)	to'xtash
tono-, -tonia (tonos, tonus)	tonus, bosim
plasia (plasis)	shakllanish
tension (tension)	gidrosttik bosim
tropho-, -trphia ( tropho)	oziqlanish
oxy-, oxia (oxys, oxygenium)	kislorod
phago-, -phagia ( phagein)	yutish
philo-, philia (phielo, philia)	moyillik
phobo-, phobia (phobos)	qo'rqish
tropo-, tropia (tropos, trope)	yo'nalish
psycho-, psychia (psyche)	ruh, ruhiyat
A. -plegia ( plege)	falaj
aetio- (aitia)	Sabab
athero- (athere)	yog'simon modda
morpho-, -morph- (morphe)	yuzilish
ergo-, -ergia, urgia (argo)	faoliyat
dynamo-, -dynamia (dynamis)	kuch
gnosis-, -gnosia (gnosis)	Bilish
po(i)esis, -po(i)et (poiesis)	ishlab chiqarish
mnesia (mnesis)	Xotira
phreno-, -phrenia (phren)	aql, idrok, es, hush
phrenico- (nervus phrenicus)	diafragma o'ld

### Eslatma:

1. **“pneumo”** boshlang'ich atama elementi organ nomi bilan birikma holda qo'llanganda, shu organda havo borligini bildiradi. Agar atamada **“graphia”**

atama elementi bo'lsa **“pneumo”** contrast rentgenographiya maqsadida organda gaz yuborilishini ifodalaydi. **“o’pka”** tushunchasi odatda **“pneumon”** bilan, ba’zi hollarda esa **“pneum”** negizi bilan ifodalanadi.

2.”**haemo”** yoki **“haemato”** boshlang’ich atama element organ nomi bilan birikmada kelsa, shu organ bo’shlig’iga qon quyilishini bildiradi. Bunda organ nomi qoidaga binoan bosh kelishikda suffikssiz qo’llanadi ( haematocolpos). Organ bo’shlig’ida suyuqlik yoki yiring to’plinishini ifodalovchi atamalar ham shu yo’sinda yasaladi (hydrometra – bachadonda suyuqlik bo’lishi).

## ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

### ***I.Berilgan atamalarni tarkibiy qisimlarga ajratib ma’nosini tushuntiring:***

A.1)Haemolysis, haemotherapia, haemostasis, empyema, haemangioma, haemangiomatosis, haemarthrosis, haematologia, haematoma, haematonephrosis, azotaemia, cholaemia, uraemia, haematuria, urohaematoma, ureteritis, vasoresectio, vasotomia, ectopia, vasoconstriction, myoma, myoblastus, thymocytus, myoblastoma, perimysium, endomysium, acrohidrosis.

2) Myocardium, myometrium, carcinosarcoma, cytopenia, hydraemia, hymphocytus, lympho(cyto)penia, hydrarthrosis, chondroblastus, chondroblastoma, chondrogenesis, perivasculitis, epicranium, epipharynx, gastrocele, meningocele, anaemia, toxaemia, myasthenia.

3)Neurosis, neuritis, neuroma, neurolysis, angioneurosis, adenotomia, lymphadenitis, lymphangiitis, hyperaemia, lymphadenoma, lymphangiadenographia, hidradenitis, anhidrosis, aesthesiologia.

4) Angiectasia, phlebectasia, anaesthesia, hypaesthesia, phlebosclerosis, erythroblastus, ovocytus, dermatosis, dermatographia, mesoderma, periderma, dermatitis, dermatostomatitis, sphygmographia, ureterolysis, pneumolysis, pneumomalacia, lithotomia, lithiasis, cholelithiasis, urolithiasis, broncholitus, broncholithiasis, dysfunction, chylothorax, chyluria, chylocele.

5) Pyodermia, pyaemia, pyorrhea, pyothorax, pyuria, pyometra, dyscrinia, secretio, incretion, endocrinologia, haemorrhagia, gastrorrhagia, odontorrhagia, oncogenesis, oncogramma.

6)Synostosis, myelopathia, aplasia, hyperplasia, dysplasia, metaplasia, myelodysplasia, mesoduodenum, myelosis, osteomyelitis, mastoptosis, hydrocephalia, otoneurologia, otitis, ophthalmologia, cholekinesis, hypopituitarismus, ductus bilifer, vesica biliaris, vesica fellea, gynaecologia, paediatra, logopaedia, chondrocytus, haemocytus, perontologia, hydrophilia, hydrophobia.

7) Aphoe, hypopnoe, pnneumocephalia, tenorrhaphia, aerohaemotherapia, pneumographia, respiration, inspiration, atrophia, dystrophia, hypertrophia, vagotropus, anoxia, hypoxia, haemophilia, aerophagia, arotherapia, ophthalmorheographia.

8) Anergia, synergia, asynergia, gypergia, chirurgia, chondrodysplasia, tenodesia, atrichia, anonychia, dacryoadenitis, dacryolithus, hyperdinamia, hypodynamia, amnesia, sialoadenitis, coprostasia, galactostasia, lipoma, dysmorphosis, pyovarium, morphologia, phacomalacia, keratoma, keratosis, biopsia.

9) Cardioplegia, ophthalmoplegia, hypertrichia, aphonia, aethiologia, phrenicotomia, paraphrenia, hacoma, phacomatosis, dystrophia, dacryocystographia, dacryocystorhinostomia.

## **II. *Quyidagi ma'nolarni igodalovchi atamalar yasang:***

1. Ter bezlarida hosil bo'ladigan o'sma, siydikda gemoglobin bo'lishi, qon tarkibida safroning bo'lishi, tomirdagi tosh, yog' bezlaridagi o'sma, yutishning qiyinlashuvi, muskul kuchsizligi, qon haqidagi fan, hujayralar patologiyasi, teriing yallig'lanishi, rivojlanishning buzilishi, limfa tomirlarining yallig'lanishi, lifa tugunlarining yallig'lanishi, qon bilan davolash.

2. Sut bezining, (oshqozon osti bezining, vena tashqi qavatining, vena ichki qavatining, oshqozon osti bezi atrofining) yallig'lanishi.

3. Limfasitlar miqdorining ortishi, o'tning to'xtashi, qonning to'xtashi, harakatning buzilishi, bachadondan qon ketishi, hujayradan tashqari, oziqlanishning buzilishi, sezuvchanlikning buzilishi, tomirlarning torayishi, qon bosimining pasayishi, nafas olishning pasayishi.

## **§21. TURLI FIZIK XUSUSIYATLAR, SIFAT, MUNOSABAT VA BOSHQA BELGILARNI IFODALOVCHI YAKKA ATAMA ELEMENTLAR**

**Maqsad.** Turli - tuman fizik xususiyatlar, sifat, munosabat va boshqa belgilarni ifodalovchi yangi yunon-latin atama elementlarni bir-biridan farqlay olish va ularni tarkibiy qisimlarga ajrata olish; Har xil ma'no ifodalovchi klinik atamalar ysay olish malakalarini o'stirish.

**Quyida berilgan atama elementlarni o'qing va yod oling:**

<b>Yunon AE</b>	<b>Ma'nosi</b>
auto ( autos )	o'z, xususiy
allo ( allos )	Boshqa
Hetero ( heteros )	Har xil
Homeo, homo ( homonos )	Bir xil
Iso- ( isos )	Teng
Aniso ( anisos, an+isos )	Noting, teng emas
Neo- ( neos )	Yangi
Tele-, teleo-, teleo-(tele, telos)	Olis, vfsafada
Pseudo- ( pseudo )	Soxta, yolg'on
Ortho- ( orthos )	To'g'ri
Xero- ( xeros )	Quruq
Cryo- ( kryos )	Muzdek, o'ta sovuq
Thermos-, -thermia (therme, thermos)	Issiq, yuqori harorat
Pyr-, pyro-, pyreto-(pyr, pyretos)	O't, olov
Macro- ( macros )	Yirik
Micro- ( micros )	Kichik
Megalo-, megalia (megas, megalu)	Kattalashgan
oligo – (oligos)	Yetishmas, kam
poly – (poly, polys)	ko'p, ortiq
pan-, panto- ( pan, pantos )	to'la, bari
brachy- ( brachys )	qisqa
brady- ( bradys )	sekin
tachy-, tacho- ( tahys, tachos )	tez
chromo-, chromate-, chromia	rang, bo'yoq
leuco- ( leucos )	oq
erythro- ( erythros )	qizil
cyano- ( kyanos )	ko'k
melano- ( melas, melanos )	qora, to'q
glycol-, gluco- ( glycys )	shakar, shirin
<b>B.</b> pachy- ( pachus )	Zich
lepto- ( leptos )	nozik, nafis
dolichos- ( dolicos )	uzun
bary-, baro- ( barys, baros )	og'ir
bathy-, batho- ( bathys, bathos )	chuqur

platy- ( platys )	yassi
hemi- ( yun.), semi- ( lot.)	yarim,birtomonlama
chloro- ( chloros )	yashil
xantho- ( xanthos )	sariq
polio- ( polios )	Kulrang
necro- ( necros )	o'lik

**Eslatma** -: **auto-**, **allo-**, **xeno** boshlang'ich AE lari **-plastica** va **trans-** (ko'chirib o'tkazish) komponentlari bilan kelgan birikmada quyidagi ma'noga ega: **auto-** organizmning o'zidagi organ yoki to'qimalardan foydalanish, **allo-** boshqa odamning organ yoki to'qimalaridan foydalanish, **xeno** – hayvon organlari yoki to'qimalaridan foydalanish.

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

**I. Quyidagi atamalar uchun umumiy AE ni aniqlang, atamalarning ma'nosini tushintirib bering:**

- |                 |                  |
|-----------------|------------------|
| 1. hyperthermia | 2. glucosuria    |
| hypothermia     | glycaemia        |
| diathermia      | hyperglycaemia   |
| isothermia      | hypoglycaemia    |
| anisothermia    |                  |
| 3. hemialgia    | 4. panarthritus  |
| hemianopsia     | panhysterotomia  |
| hemiatrophia    | panalgia         |
| hemiplegia      | pancarditis      |
| hemicrinia      |                  |
| 5. leucopenia   | 6. polyuria      |
| leucopoesis     | polydactylia     |
| leucocytosis    | polyneuritis     |
| leucosis        | polyavitaminosis |
| leucocyturia    |                  |
| 7. macroglossia | 8. tachycardia   |
| macrocephalia   | tachyphagia      |
| macromastia     | tachysphygmia    |
| macropodia      |                  |

**II. Nuqtalar o'rnini to'ldiring:**

sekin yutish - ....phagia

yassi bosh	- ....cephalia
uzun barmoq	- ....dactylia
qizil qon tanachasi	- ....cytus
siydik bilan melanin ajralib chiqishi	- ....uria
jigarning kattalashuvi	-....hepato
terining quruqlab ketishi	-....dermia
tishning yetishmasligi	-....odontia
murdadan qo'rqish	-....phobia
o'z qoni bilan davolash	-....hemotherapia
soxta torayish	-....stenosis
qisqa nafas	-....pnoe
Chuqur nafas	-....pnoe

### **III. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:**

Keksalar haqidagi fan, sut bezini olib tashlash, sut bezi sohasidagi og'riq, havoni yutish, qonda innsulinning kam bo'lishi, qonda kaliyning kamayishi, hamma arteriyalarning yallig'lanishi, siydik ajratishninh buzilishi, nafas olishning buzilishi, oziqlanishning buzilishi, jigarning kattalashuvi, ko'richakning kengayishi, qonda kislorod miqdorining kamayishi, yurak qisqarishining tezlashuvi, siydik pufagini tekshirish, bachadonning tushishi, bachadonni olib tashlash, siydikning ko'p ajralishi, pastki jag'ning kichik bo'lishi, yuqori jag'ning kichik bo'lishi.

### **IV. Berilgan atamalarni lotincha yozing:**

Angiografiya, endokrinologiya, pioderma, poliomyelit, braxidaktiliya, oftalmoplegiya, taxikardiya, gipertrofiya, termofiliya, krioxirurgiya, telepatiya, sianoz, giperqlikemiya, gipertoniya, mikroskopiya, antipatiya, flyuroografiya, geriotriya, kinologiya, giperesteziya

### **MAQOL VA HIKMATLI SO'ZLARNI O'QING VA YOD OLING!**

- |                            |                                     |
|----------------------------|-------------------------------------|
| 1. In observatione.        | <i>Kuzatish davomida.</i>           |
| 2. Ars longa, vita brevis. | <i>Umr qisqa, san'at abadiydir.</i> |
| 3. Homo est mundi pars.    | <i>Inson dunyoning bir qismi.</i>   |

## **§22. KLINIK ATAMASHUNOSLIK BO'LIMI BO'YICHA YAKUNIY DARS**

### **Metodik ko'rsatmalar**

1. Dubletlar, yakka AE lar, yunon – lotin prefiks va suffikslarini takrorlang.
2. Tibbiy atamashunoslikda ko'p ma'noli yoki bir-biriga o'xshash yangi ma'noli AE larga alohida e'tibor bering.
3. Ma'lum ma'nodagi atamalar yasash ancha murakkab bo'lgani uchun, bu sohaga mustaqil ish davomida ko'proq vaqt ajratish masadga muvofiqdir.

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

#### ***I. Atama elementlarning ma'nosini og'zaki tushuntiring:***

##### **A 1.uskunalar**

audio-  
barestezio-  
bato-  
gemosito-  
kalori-  
mioestezio-  
oksigemo-  
tono-  
uro-  
algezi-     +**-metr**rekto  
piro-  
pnevmotaxo-  
psixro-  
pulsotaxo-  
ezofago-  
gastroduodeno-  
torako- steto-

##### **A 2. uskunalar**

endo-  
amnio-  
ano-  
kerato-  
laparo-  
laringo-  
oto-  
oftalmo-+ **-skop**  
fotosisto-  
  
fonendo-  
telebato-  
uretro  
xoledoxo-  
aerosisto-  
gastro-

**A 3.** arthr-  
cephal-  
encephal-  
ot-           + **-algia**  
gloss-  
my-  
neur-     cholecysto  
neph-  
cyst-  
cardi-  
gastr-     + **-algia**  
rhin-

**A 4** cysto-  
oesophago-  
deno-  
thoraco-+ **-tonia**  
laparo-  
phlebo-  
  
tonsillo  
tracheo-  
spondylo-  
osteo-+ **-tonia**  
gastro-



lumb-  
odont-

entero-

<b>A 5.-</b> plasia	<b>A6.-</b> pexia
-topia	-pathia
-uria	-ptosis
-crinia	-tonia
<b>Dys</b> +-pepsia	<b>colo</b> +- - stasis
-tonia	-stomia
-cholia	-kinesia
-hidrosis	-plastica

B1 Chole-	<b>B2.-</b> eurisis
Homeo-	-itis
Chylo-	<b>colp(o)+</b> -pexia
Sialo- + <b>-stasis</b> -tomia	
Copro-	-scopia
Uro-	-rhaphia

<b>B 3.</b> otia	<b>B 4.-</b> emiya	
podiya		-artrit
<b>makr(o)+</b> xeyriya		-daktiliya
sefaliya		-kineziya
daktiliya	<b>olig</b> +	-pnoye
		-steatoz
		-freniya
		-uriya

## II. Quyidagi ma'nolarni ifodalovchi atamalar yasang:

Miya pardasining chuqurchasi, nervni kesish, nervni tikish, nerv kasalligi, bo'g'implarning yallig'lanishi, limfa bezlarining yalig'lanishi, tovushning yo'qligi, bronxlarning torayishi, bachadonni olib tashlash, buyrakning pasayishi, oshqozondan qon ketishi, suv bilan davolash, so'lak oqishi, soch to'kilishi, qon to'xtashi, bir tomonlama og'riq, yurakning tez urishi, taloqning kattalashuvi, burunni tekshiradigan asbob, xotiraning yo'qligi, muskullarningtoliqishi, o'ta sezuvchanlik.

## III. Quyidagi nomlarning yunon-lotin dubletlarini ayting:

A.o'pka, muskul, bosh, nerv, tomir, vena, taloq, og'iz, suyak, tog'ay, suyak ko'migi, orqa miya, to'qima, hujayra, bez, limfa tuguni, ko'krak, bo'g'im, me'da, yo'g'on ichak, ingichka ichak, to'g'ri ichak, qorin, qon, umurtqa, yurak, ko'z, quloq, burun, tish, buyrak, sut bezi, bachadon, barmoq.

B.Qin, tuxumdon, bachadon nayi, kindik, oyoq, ko'rsatkich barmoq, ko'r ichak, siydik pufagi, o't pufagi, o'pka, bilak, ko'z kosasi, kaft.

#### ***IV. Quyidagi atamalarni AE ga ajratib ma'nosini tushuntiring:***

Haematomyelia, splanchomegalia, xenogenus, cholangioenterostomia, polyotia, chilothorax, anhidrosis, hypathesia, endophitus ( a, um ), exophitus ( a, um ), autopyotherapia, osteoarthritis, osteogenesis, lymphadenitis, lymphoma



## FARMATSEVTIKA-BIOLOGIK VA KIMYOVIY TERMINLAR ASOSIDA

### FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIKKA KIRISH

### DORIVOR MODDALARNING TRIVIAL NOMLARI VA SO'Z YASOVCHI TRIVIAL NOMLAR. PREPARAT NOMLARIDA DORI SHAKLINING IFODALANISHI

**Maqsad.** *Farmatsevtika haqida boshlang'ich tushunchaga ega bo'lish; farmatsevtik atamalar yasash usullarini bilib olish; "farmatsiya" atamasi bilan bog'liq va dori-darmonlarning tipik guruhlarini bir-biridan ajrata olish; dori-darmon nomlari va ular bilan bog'liq tarkibiy qismlarning o'ziga xos bog'lanish xususiyatlari bilan tanishish; dorivor moddalarning ilmiy nomlanishi haqida tushunchaga ega bo'lish; trivial nomlarni yasash uslublarini bilib olish; trivial nomlardagi tarkibiy qismlarni va ularning ma'nosini o'rganish; farmakologik axborot beruvchi asosiy tarkibiy qismlarni yodlab olish; preparat nomlarida dori shakllarining ifodalanishini bilish.*

Ma'lumki, dunyo tibbiyotiga oid inovtsiyalar,( yangiliklar ), dori-darmonlarning nomi mana bir necha asr davomida lotin, yunon tillarida o'z ifodasini topgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi. Bilamizki, lotin tili dunyo tibbiyotining tili deb tan olingan. Odamlar bu tilda so'zlashmaydi, shuning uchun ham "o'lik til" sifatida qaraladi. Ammo hozirgi kunda nafaqat tibbiyotda va hollanki uning asosi bo'lgan biologiya, kimyo, fiziologiya va ko'plab boshqa fanlarda ham undan o'rinli, keng foydalaniladi.

Tibbiyotning muqim lotin tili mana bir necha asrdirkim shifokor bilan dorixona xodimi o'rtasidagi iliq munosabatlarni retsept orqali mustahkam bog'lab kelaypti. Resept varaqasidan dori nomlari va dorixona xodimiga shifokor tomonidan dori tayyorlash haqidagi ko'rsatmalar birdanbir lotin tilida yoziladi.

**Dorivor ashyolarning nomenklaturasi** bu hozirgi biz yashayotgan davrda ham qo'llanilayotgan barcha dorivor vositalar nomining yig'indisidir.

**Dorivor vosita** - bu mamlakatning shunday vakolatga ega bo'lgan idorasining odam yoki hayvonlarni kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida belgilanadigan tartida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir.

**Dorivor vositalarning hozirgi zamon nomenklaturasi** tabiiy paydo bo'lgan va qat'iy tuzilish qoidasiga ega emas. Nomlar ixtiyoriy ravishda o'ylab topiladi. Dorivor vositalar nomenklaturasiga faqat vatanimizda ishlab chiqarilgan emas, balki chet eldan keltirilgan vositalarning nomi ham kiradi.

Dorivor vositalar nomenklaturasidan ularning tarkibiga kirgan nomlar uchun umumiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi tipik guruhlarni ajratish mumkin:

**I.**O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari.

**II.**O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari.

**III.** Kimyoviy organik moddalarning eskirgan nomlari.

**IV.** Ma'lum dori shaklini bildiradigan dorivor preparatlarning nomlari, kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlarning nomlari, vitaminlar, garmonlar, fermentlarning nomlari.

**V.** Vaktsinalar, zardoblar, anatoktsinlar nomlari.

**VI.** Farmakopeylik ximiyaviy nomenklatura ( kislotalar, oksidlar, tuzlar nomlari ).

**VII.** Murakkab dori-darmonlar - bir dori shaklida belgilangan dozalarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dori-darmonlar.

O'simlik mahsulotlariga o'simliklar organlari ( yer ustki qismi, barg, ildiz, meva, gul va b. ) kiradi.

I - tipik guruhdagi nomlar ikki otdan iborat bo'lgan so'z birikmalaridir.

Birinchi ot o'simlik organi yoki mahsulotining nomini ko'rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

**Masalan:** Oleum Helianthi ( tincture Valerianae ) Folium Sennae

**I.** Zavodlarda ma'lum belgilangan standartlar bo'yicha tayorlanadigan dorivor preparatlarning nomlari. Ularga quyidagilar kiradi:

**Bular -nastoykalar, ekstraktlar, sharbatlar.** Bunomlarda mahsulot turi korsatilmaydi. Ular ikki otdan iborat bo'lgan so'z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko'rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o'simlik nomini ko'rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

**Masalan:** tinctura Valerianae - valeriananing nastoykasi

sirupus Glycyrrhizae - shirin miyaning siropi

Extractum Crataegi - do'lananing ekstrakt

**II.** Damlama va qaynatma nomlari.

Bularda mahsulot turi ko'rsatiladi.

Ular uchta otdan iborat bo'lgan so'z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko'rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchisi – o'simlik organini ko'rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

**Masalan:**

Decoctum herbae Hyperici - qizilpoycha o'simligining qaynatmasi

Infusum foliorum Sennae - senne barglarining damlamasi

### ***DORIVOR MODDALARNING TRIVIAL NOMLARI VA SO'Z YASOVCHI TRIVIAL NOMLAR***

Tibbiyotda dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar ikki xil nom bilan ataladi:

1. Ilmiy yoki tizimli nom.
2. Trivial (lot. *trivialis* – odatdagi ) nom.

Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Lekin o'zining murakkabligi, qiyinligi bilan retseptlarda, yorliqlarda, dorixona savdosida qo'llash uchun noqulay hisoblanadi.

Trivial nomlar esa o'zining ixcham qisqa va soddaligi bilan amalda qo'llashga qulaydir.

<b>Trivial nomlar</b>	<b>Ilmiy nomlar</b>
Analgin	1-fenil-2,3-dimetil-4-metilaminapirazolon-5-metansulfanat natriya
Fenasetin	1-etoksi-4-asetaminobenzol trano-9, 13-dimetil-7
Retinol (vitamin A)	1,1,5-trimetilsiklogeksen-5-il-6/ Nonatetrayen-7,9.11,13-o

Dori-darmonlarning trivial nomi turli so'z yasovchi tarkibga ega. Uning asosini lotin yoki yunon tiliga mansub o'zaklar tashkil etadi. Bundan tashqari trivial nomlarni yasashda boshqa so'z yasash vositalari ishtirok etadi. Shunga ko'ra, trivial nomlar oddiy, yasama, qo'shma va qisqartma so'zlardan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan: Mentholum, Analginum, Papaverinum, Apisarthronum, Dimexidum, Sulfadimezinum.

Trivial nomlar yasashda eng ko'p qo'llaniladigan so'z yasash usuli abbreviatsiyadir (qisqartirish). Bunda ilmiy nom qisqartiriladi.

<b>Trivial nomlar/ abbreviatura</b>	<b>Ilmiy nomlar</b>
Dimexidum dimeksid	Dimetilsulfaksid
Aethacridinum etakridin	Laktat-2-etoksin-6,9-dinaminoakridin
Phenaminum fenamin	Sulfat d, 1-fenil 2-aminopropana N-fenilkarbomoid-3 (B-fenilizopropil)
Sydnocarbum sidnokarb	Sidnonimin

**1.Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar taxminan anatomik, fiziologik va terapevtik xarakterdagi axborotni berishi mumkin.**

Lotincha	O'zbekcha	Ma'nosi
-cor-, card-	-kor-, -kard	yurak va uning tonusiga ta'sir etuvchi toj tomirlarni kengaytiruvchi
-vas-, -angi-	-vaz-, -angi-	qon tomirlarni kengaytiruvchi spazmolitik
-sept-	-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptic
-dol-, -alg-	-dol-, -alg-	og'riqsizlantiruvchi, analgetik
-pers(s)-, -ten(s)-	-pers(s)-, ten(s)-	qon bosimini tushiruvchi
-sed-	-sed-	tinchlantiruvchi, sedative
-pyr-	-pir-	haroratni tushiruvchi, antipiretik
-aesthes-	-estez-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik
-test-, -vir-	-test-, -vir-	erkak jinsiy garmonlaridan tayorlangan
-andr-	-andr-	Androgen
-thyr-	-tir-	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi
-myco-	-miko-	zaburug'larga qarshi
-chol-	-xol-	o't haydovchi
-cid-(lot.occidere o'ldirmoq)	-sid-	mikrobgga qarshi

**Masalan:**

Corvalolum, Cardiovalenum, Valosedan, Apressinum, Angiotensinamidum, Promedolum, Sedalgin, Antipyrinum, Anaesthesinum, Testosteronum, Agovirin, Androfort, Thyrotropinum, Cholosasum, Streptocidum, Mycoseptinum, Enteroseptolum.

**2.Farmakologik axborot beruvchi tarkibiy qismlar:**

Lotincha	O'zbekcha	Farmakologiyaga mansubligi
-sulfa-	-sulfa-	Antimikrob sulfanilamidlar
-cillin-	-sillin-	Antibiotik penitsillinlar
-mycin-	-misin-	Mikrobgga qarshi antibiotiklar
-cyclin-	-siklin-	Tetratsiklin hosilalari antibiotiklar
-barb-	-barb-	Uxlatuvchi-barbituratlar, barbiturate Kislota hosilalari

-cain-	-kain-	Mahalliy og'riq qoldiruvchi
-cort-	-kort-	Kortikosteroidlar- buyrak usti bezi po'stlog'i Garmonlari va ularning sintetik analoglari
-oestr-	-estr-	Estrogenlar –ayol jinsiy garmonlari va ularning Sitetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar
-andr- -ster-	-andr- -ster-	Androgen steroidlar-erkak jinsiy garmonlari va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar

**Masalan:** Sulfadimezinum, Penicillinum, Streptomycinum, Tetracyclinum, Barbamylum, Novocainum, Corticotropinum, Oestradiolum, Methandrostenolonum.

### ***DORI SHAKLLARINING NOMLANISHINI O'QING VA YOD OLING !***

Aerosolum, i n - aerosol

Granulum, i n - granula

Pulvis, eris m - kukun

Gutta , ae f -tomchi

Tabuletta, ae f - tabletka

Unguentum, i n - surtma

Tabuletta obducta-po'st qoplangan tabletka

Linimentum, i n - suyuq surtma

Solutio, onis, f - eritma

Emplastrum , i n - malham

Emulsum, i, n - emulsiya

Pilula, ae, f - hab dori

Tinctura, ae, f nastoyka

Suppositorium, i n- shamcha

Gelum, i n - gel

### **DORI SHAKLLARI TO'G'RISIDA TO'LIQROQ MA'LUMOT**

#### **Tabuletta, ae,f - tabletka**

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan, dorivor moddalarni presslab olingan, dozalangan qattiq dori turi.

#### **Tinctura, ae,f – nastoyka**

Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining qizdirilmagan va spirtli, spirt-suvli, spirt-efirli tiniq ajratmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turi.

#### **Gutta, ae,f – tomchi (guttae - tomchilar)**

Tomchi holida ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan suyuq dori turi.

#### **Capsula, ae,f – kapsula**

Ichish uchun mo'ljallangan ichiga dorivor vosita solingan g'ilofcha(jelatin, kraxmal yoki boshqa polimerlardan tayyorlangan)dan iborat bo'lgan dozalangan dori turi.

**Pilula, ae,f – habdori**

Ichishga mo'ljallangan, tarkibida dorivor vosita va yordamchi moddalar bo'lgan bir xil plastik massadan tayyorlangan sharcha holdagi dozalangan qattiq dori turi.

**Pasta, ae,f – pasta**

Tarkibida 20-25 % dan ortiq kukun holdagi moddalar bo'lgan surtma.

**Sirupus, i,m – sharbat**

Ichish uchun mo'ljallangan, qandning suvdagi konsentrlangan eritmasidagi dorivor moddalarning eritmasidan iborat suyuq dori turi.

**Infusum, i,n – damlama va decoctum, i,n – qaynatma**

Ichish yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan dorivor o'simlik mahsulotining suvli ajratmasi yoki shu maqsad uchun maxsus tayyorlangan konsentrant eritmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turlari

Damlama va qaynatma bir-biridan tayyorlash usuli (olov ustida yoki suv hammomida qizdirish va keyinchalik damlash vaqti) bo'yicha farq qiladi.

**Extractum, i,n – ekstrakt**

Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan , dorivor o'simlik mahsulotining konsentrlangan ajratmasidan iborat bo'lgan dori turi.

**Emulsum, i,n – emulsiya**

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'yeksiya qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro aralashmaydigan suyuqliklardan iborat dispers sistemadan tashkil topgan suyuq dori turi.

**Unguentum, i,n – surtma**

Sirdan ishlatishga mo'ljallangan yopishqoq konsistensiyali yumshoq dori turi.

**Linimentum, i,n – liniment** Suyuq surtma

**Suppositorium, i,n – shamcha**

Tana bo'shlig'iga yuborish uchun mo'ljallangan, uy haroratida qattiq va tana haroratida eriydigan dori turi.

**Emplastrum, i,n – malham**

Sirdan ishlatishga mo'ljallangan, tana haroratida yumshash va teriga yopishish qobiliyatiga ega bo'lgan plastik massa holdagi yoki yassi narsa ustiga surtilgan o'sha plastik massa holdagi dori turi.

**Granulum, i,n – granula**

Ichish uchun mo'ljallangan, yumshoq, silindrsimon yoki boshqacha shaklli bir xil bo'lakchalar (zarrachalar, donachalar) dan tashkil topgan qattiq dori turi.

**Aërosolum, i,n – aerosol**



Gaz yoki gazlar aralashmasidan iborat dispers muhitdan, qattiq modda zarrachasi yoki suyuqlikdan iborat dispers fazadan tashkil topgan, maxsus qolip yordamida olinadigan dispers sistemali dori turi.

**Briquetum, i,n – briket**

Presslash yuli bilan yirik maydalangan ma'lum miqdordagi dorivor o'simlik mahsulotidan tayyorlangan dozalangan dori turi.

**Pulvis, eris,m – kukun**

Ichish, sirtidan ishlatish yoki in'yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan kukun holdagi qattiq dori turi

**Solutio, onis,f – eritma**

In'yeksiya qilish, ichish yoki sirtidan ishlatish uchun mo'ljallangan bitta yoki bir nechta dorivor moddalarni eritish yo'li bilan olingan suyuq dori turi.

**Charta (ae) sinapina (ae) –xantal qog'ozi (gorchichnik)**

Yog'sizlantirilgan xantal urug'ining kukuni bilan yupqa qilib qoplangan qog'oz varag'i.

**Dragee –draje**

Ichish uchun ishlatiladigan, granula ustiga dorivor vosita va qo'shimcha moddalarni qavat-qavat qilib surtish yuli bilan olinadigan dozalangan qattiq dori turi.

**Species, ei - yig'ma**

Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan damlamalar va qaynatmalar tayyorlash uchun qo'llaniladigan maydalangan yoki butun bir necha tur dorivor o'simlik mahsulotining va ba'zan dorivor vositalar qo'shilgan aralashmasi.



## §24. PREPARAT NOMLARIDA DORI SHAKLINING IFODALANISHI

Agar dori shakli preparat nomi bilan ifodalansa birinchi o'rinda dori shaklining nomi, ikkinchi o'rinda esa qaratqich kelishigiga dori- darmonning nomi qo'llanadi.

**Masalan:** Unguentum Streptotsidi - Streptotsid surtmasi

Solutio Novocaini - Novokain eritmasi

Tabulettae Analgini - Analgin tabletkalari

Murakkab dori-darmon nomlari dori shaklining nomiga ilova tarzida bosh kelishikda qo'shtirnoq ichida beriladi.

**Masalan:** Unguentum "Calendula" - "Kalendula" surtmasi

Tabulettae "Urosalum" - "Urosal" tabletkalari

Dori shaklini belgilovchi moslashgan aniqlovchi preparat nomida oxirgi o'rinda qo'llanadi va dori shakli bilan moslashadi.

**Masalan:** Unguentum Hydrargyri cinereum - Simobning kulrang surtmasi

Extractum belladonnae spissum - Belladonnaaning quyuq ekstrakti

Qaynatma va damlama nomlarida xomashiyo nomi dori shakli hamda o'simlik nomlari o'rtasida qaratqich kelishigida qo'llanadi.

**Masalan:** Infusum radicis Valerianae - Valeriana ildizining damlamasi.

Decoctum rhizomatis Tormentillae - g'ozpanja ildizpoyasining qaynatmasi.

### *BILIMLIARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR*

**I. Dorivor moddalar va preparatlar nomini o'qing, Sizga tanish bo'lgan tarkibiy qismlarni AE qo'shimchalarini ajrating.**

1. Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcolysinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolom, Oestronum, Aevitum, Valosedan, Chlorophthalmum, Methicillinum, Kanamycinum.

2. Rifamycinum, Sulfacidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolom, Urodanum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Panangin.

3. Synoestrolom, Gentamycinum, Phenobarbitalum, Laevomycetinum, Mycoseptinum, Myelosanum, Glycerinum, Glucosum, Hydrocortisonum.

**II. Dorivor moddalar nomini lotincha transkripsiyada yozing.**

1. Streptotsid, geparin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, Dikloksatsilin, dikain, korvalol, insulin, nitrogliserin, rezorzin, validol, akvizin, Neodikumarin, papaverin, antotsit, angiotenzinamid.

2. Tetratsiklin, penitsillin, xinin, bruneomitsin, olivomisin, amidopirin, piromekain, kardiovalen, oraza, rutin.

### **III. O'qing, tarjima qiling, preparat nomlarining grammatik tuzilishini tushuntiring.**

1. Solutio Strophanthini, tabulettae Prednisoloni, granula Orasi, tabulettae Octoestrolu, tabulettae Pantocrini, unguentum "Psoriasinum", Solutio Camphorae Oleosa, Solutio Streptocidi solubilis.

2. Suspensio "Cindolum", suppositoria vaginalia "Osarbonum", tabulettae Mycoseptini obductae, species cholagogae, linimentum "Sanitas", Tabulettae "Cholenzymum", tabulettae "Praegoestrolum", flores Calendulae

3. Extractum placentae, tabulettae olei Menthae, folium Farfarae, radix Althaeae, sirupus Althaeae, solutio Dicaini, cortex Frangulae, emplastrum Plumbi compositum, tabulettae Barbamyli, extractum Leonuri fluidum, Tabulettae "Belasthesinum", tabulettae Aloes obductae, fructus Crataegi.

### **IV. Tarjima qiling.**

1. Sharbatlar, ekstraktlar, eritmalar, yog'lar, damlamalar va qaynatmalar, shamchalar, murakkab kukunlar, urug'lar, gullar, ildizlar, oq ildizpoya, po'stloq, tomchilar, rutin tabletkalari, promeran tabletkalari, vazelin moyi, Monomitsin tabletkalari, moychechak gullari, dibiomitsin ko'z surtmasi.

2. "Flakarbin" granulari, arpabodiyon yog'i, novokain eritmasi, Arpabodiyon mevasi, streptotsidning suyuq surtmasi, geparin surtmasi, Arslonquyruq nastoykasi, eman po'stlog'ining qaynatmasi.

**Quyidagi dorivor o'simliklarning mos nomini toping**

Soxta kashtan	<i>Calendula officinalis</i>
Chayono't	<i>Fragaria vesca</i>
Baland bo'yli sigirquyruq	<i>Aesculus hippocastanum</i>
Dorivor qashqarbeda	<i>Quercus robur</i>
Dorivor tirnoqgul	<i>Urtica dioica</i>
Kalanxoe	<i>Melilotus officinalis</i>
O'rmon qulupnayi	<i>Sambucus nigra</i>
Dalachoy, qizilpoycha	<i>Kalanchoe pinnata</i>
Oddiy eman	<i>Verbascum thapsiforme</i>
Ilonsimon toron	<i>Polygonum bistorta</i>
Dorivor veronica	<i>Belladonna</i>
Belladonna	<i>Althaea officinalis</i>
Qora marjondaraxt	<i>Eucalyptus globulus</i>
Dorivor gulxayri	<i>Hypericum perforatum</i>
Oddiy qizilmiya	<i>Veronica officinalis</i>
Jag'-jag'	<i>Chelidonium majus</i>
Sharsimon evkalipt	<i>Capsella bursa-pastoris</i>
Otquloq	<i>Salvia officinalis</i>
Dorivor mavrak	<i>Glycyrrhiza</i>
Qoncho'p	<i>Bidens tripartita</i>
Ittikanak	<i>Valeriana officinalis</i>
Arslonquyruq	<i>Rumex confertus</i>
Dorivor valeriana	<i>Leonurus</i>

**§25. FE'L SO'Z TURKUMI. GRAMMATIK KATEGORIYASI. LUG'AT SHAKLI. ANIQLIK, BUYRUQ VA SHART MAYLLARI**

Predmetning ish – harakati yoki holatini bildirib **“nima qildi?,nima qilayapti ? , nima qilmoqchi ? “** so'roqlariga javob beradigan so'z turkumi fe'l deb ataladi. Lotin tilida fe'llar shaxs , son va zamonda o'zgaradi . Fe'l 3 ta shaxs , 2 ta son ( birlik va ko'plik ),6 ta zamon , 4 ta mayl , 4 ta tuslanishga ega.

Lotin tilida fe'l o'zbek tilidagidek shaxs – son , zamon va mayl bilan tuslanadi . Ushbu tilda fe'llarning tuslanishi o'zakdagi so'nggi unli bilan bir – biridan farq qiladi.

I tuslanish	II tuslanish	III tuslanish	IVtuslaniish
- a	- e	undosh yoki - u	- i

### *Fe'lning lug'at shakli*

Fe'lning lug'at shaklida yozilishiga e'tibor bering.

1. Fe'lhozirgi zamon I shaxsda - o qo'shimchasi bilan to'liqyoziladi.
2. Fe'l noaniq shaklining oxiriga 3 ta harf yoziladi.
3. Fe'lning tuslanishi raqam bilan ko'rsatiladi.

Masalan:

Lug'atshakli	Tuslanish	Infinitiv	Olib tashlang	Negiz
do , dare	I	Dare	Re	Da
habeo, ere	II	Habere	Re	Habe
addo , ere	III	Addere	Ere	add
diluo , ere	III	Diluere	Ere	dlu
finio , ire	IV	Finire	Re	fini

Lotin tilida fe'llar xuddi o'zbek tilidagidek birlik (singularis) , ko'plik(pluralis)da tuslanadi. Lotin tilida fe'lning uchta mayli bor :

- I Indicativus - aniqlik mayli
- II Conjunctivus - shart mayli
- III Imperativus - buyruq mayli

### *Aniqlik mayli*

**Aniqlik mayli** ish – harakati yoki holatining aniqligini ko'rsatadi .  
Masalan: Medicus aegrotam curat - “ Shifokor bemorni davolayapti”.

### *Buyruq mayli*

**Buyruq mayli** buyurish, so'rash, iltimos kabi ma'nolarni ifodalab odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq mayli birlik sonini hosil qilish uchun fe'lning noaniq shaklidan “ – re “ qo'shimchasini olib tashlash kerak bo'ladi. Masalan :

Tuslanish	Fe'lning noaniq Shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik soni
I	Dare - bermoq	Da	Da - ber !
II	Miscere – aralashtirmoq	Misce	Misce – aralashtir !

III	Solvere – eritmoq	Solv	Solve – erit !
IV	Audire – eshitmoq	Audi	Audi - eshit !

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun fe'ning buyruq mayli birlik soniga “-te” faqat uchinchi tuslanish fe'l negiziga “-ite” qo'shimchasini qo'shish kerak. Masalan :

Tuslanish	Fe'ning noaniq Shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko'plik soni
I	Dare - bermoq	Da	Date - bering !
II	Miscere - aralash-Tirmoq	Misce	Miscete - aralash-tiring !
III	Solvere - eritmoq	Solv	solvite - eriting !
IV	Audire – eshitmoq	Audi	Audite - eshiting !

### *Shart mayli*

Shart mayli ish – harakatining ma'lum bir sharoitda bo'lishi mumkin ekanligini bildiradi . Masalan :

**Misceatur** - Aralashtirilsin ! Aralashtirilgan bo'lsin !

**Signetur** - Bildirilsin ! Bildirilgan bo'lsin !

**Detur** - Berilsin ! Berilgan bo'lsin !

Retseptlarda shart mayli uchinchi shaxs birlik va ko'plik sonlarida ishlatiladi.

Masalan :

Dividatur in partes aequales - teng qismlarga bo'linsin !

Dentur tales doses numero ... - shunday miqdor ( son ) ...da berilsin.

Lotin tilida fe'llarning ikkita nisbati bor :

aniqlik nisbati ( Activum )

majhullik nisbati ( Passivum )

Aniqlik nisbatidagi fe'lda ish – harakati shaxs tomonidan bajariladi , to'ldiruvchi esa harakatning ob'yekti bo'ladi . Aniqlik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga - **t** , ko'plik sonini hosil qilish uchun esa - **nt** qo'shimchasini qo'shish darkor. Masalan : Medicus aegrotam curat - “ Shifokor bemorni davolayapti “.

Majhullik nisbatida harakat to'ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib, haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Majhullik nisbati uchinchi shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga -**tur** , ko'plik sonida esa -**ntur** qo'shimchasini qo'shish darkor.

Masalan : Aegrotus ab medicis curantur - “Bemor shifokorlar tomonidan davolansin “.

### **I tuslanish**

Dare - bermoq (negizi - da)

*Activum*

Uchichi shaxs birlik soni Dat - u berayapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni Dant - ular berishayapti

*Passivum*

Uchinchi shaxs birlik soni datur - berilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni dantur - berilsin

### **II tuslanish**

Miscere - aralashtirmoq (negiz - misce)

*Activum*

Uchinchi shaxs birlik soni misceat - u aralashtirayapti

Uchichi shaxs ko'plik soni misent - ular arallashtirishayapti

*Passivum*

Uchinchi shaxs birlik soni miscetur - aralashtirilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni miscentur - aralashtirilsin

### **III tuslanish**

Fe'l negiziga birlik sonda -i, ko'plikda -u unli harflari qo'shiladi.

Solvere - eritmoq (negizi solv)

*Activum*

Uchinchi shaxs birlik soni solvit - u eritayapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni solvunt ular erishayapti

*Passivum*

Uchichi shaxs birlik soni solvitur - eritilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni solvuntur - eritilsin

### **IV tuslanish**

Audire - eshitmoq (negizi audi)

*Activum*

Uchinchi shaxs birlik soni audit - u eshitayapti

Uchinchi shaxs ko'plik soni audiunt ular eshitishayapti

*Passivum*

Uchinchi shaxs birlik soni auditor - eshitilsin

Uchinchi shaxs ko'plik soni audiuntur - eshitilsin

**Esse** - bor bo'lmoq, yordamchi fe'lining hozirgi zamon uchinch shaxsda tuslanishi :

**Birlik**

**Ko'plik**

	<b>Singularis</b>	<b>Pluralis</b>
est	- u bor	sunt - ular borlar
<b>III shaxs</b>		
Masalan:		
Zincum metallum	est - rux	- metaldir
Argentum et Zincum metalla	sunt - kumush	va rux metallardir

### **O'qing va yod oling !**

#### **Buyruq mayli ( Imperatives )**

Misce. Da. Singa.	-	Aralashtir. Ber. Belgila.
Sterilisa.	-	Steriliatsiya qil.
Repete.	-	Takrorla.
Da tales doses.	-	Shunday dozalarda ber.
Adde.	-	Qo'sh.

#### **Shart mayli ( Coniunctivus )**

Misceatur.	-	Aralashtirilsin.
Detur.	-	Berilsin.
Signetur	-	Belgilansin.
Sterilisetur.	-	Sterilizatsiya qilinsin.
Repetatur.	-	Takrorlansin.
Dentur tales doses.	-	Shunday dozalarda berilsin.

### **FIO, FIERI FE'LINING RETSEPTURADA IFODALANISHI**

**fio, fieri** fe'li o'zbek tiliga "hosil bo'lmoq" deb tarjima qilinadi. Uning shart mayli quyidagicha hosil bo'ladi. "fi" negiziga suffiks "a" qo'shiladi va III shaxs birlikda **fiat** shaklig ega bo'ladi, III shaxs ko'plikda **fiant** shakliga ega. Bu shakillar retsepturada ko'p qo'llaniladi.

Masalan :

#### **Birlikda**

Misce , fiat pulvis.	Aralashtirib kukun hosil qilinsin
Misce , fiat unguentum.	Aralashtirib ko'z uchun tomchi hosil qilinsin
Misce , fiat pilulae.	Aralashtirib hab dori tayorlansin .
Misce, fiat pasta.	Aralashtirib yig'malar hosil qilinsin
Misce, fiat emulsum.	Aralashtir, emulsiya hosil bo'lsin

#### **Gapda so'z tartibi**

Gaplardagi so'zlar tartibi lotin tilida ma'lum darajada erkin bo'ladi. Shunga qaramay so'zlarning gaplarda joylashish Grammatik tartibga rioya



qilish tavsiya etiladi. Unga ko'ra gaplarda ega birinchi o'rinda, kesim oxirida, kesim to'ldiruvchisi kesimdan oldin, aniqlovchi esa aniqlanuvchi so'zdan so'ng joylashishi lozim

Masalan: Aegrota tabulettam sumit - bemor tabletka ichayapti.

***Quyidagi fe'llarni o'qing va yod oling !***

addere	- qo'shmoq	adhibere	- ishlatmoq
agitare	- chayqatmoq	audire	- eshitmoq
auscultare	- eshitib ko'rmoq	colare	- suzmoq
concidere	- kesmoq	consperdere	- sepmoq
contundere	- yanchmoq	coquere	- pishirmoq
curare	- davolamoq	dare	- bermoq
diluere	- suyultirmoq	dignoscere	- aniqlamoq
dividere	- bo'lmoq	exsiccare	- quritmoq
extendere	- surtmoq	extrimere	- siqmoq
formare	- shaklantirmoq	finire	- tugatmoq
infundere	- ivitmoq	miscere	- aralash-tirmoq
obducere	-qoplamoq	palpare	- paypaslamoq
praeparare	-tayorlamoq	recipere	- olmoq
refrigerare	- sovitmoq	repetere	- takrorlamoq
salvere	-salom bermoq	valere	- sog' bo'lmoq
servare	-saqlamoq	solvere	- eritmoq
signare	- belgilamoq	sterilisare	- qaynatib tuzlamoq
sumere	- qabul qilmoq	terere	- qirg'ichdan o'tkazmoq

***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOCHI MASHQLAR***

***1. Quyidagi fe'llarni tuslanishiga ko'ra guruhlarga ajrating!***

Audire, colare, miscere, obducere, palpare, coquere, curare, dare, dividere, recipere, salvere, sumere, vertere, solvere, repetere, praeparare, conspergere, finire, terere, signare, obducere, extrimere, diluere, curare.

***2. Lotin til fe'llarining negizini aniqlang!***

Addere, aqitare, filtrare, finire, macerare, servare, extendere, valere, signare, terere, vertere, concidere, sumere, repetere, dare.

**Namuna :**

<b>Fe'l</b>	<b>Tuslanish</b>	<b>Negiz</b>
Addere	III	add

**3. Quyidagi lotincha fe'llarning o'zbekcha muqobilinio'z o'rniga qo'ying**

addere - chayqatmoq	agitare - qo'shmoq
audire - suzmoq	colare - eshitmoq
conspergere -qaynatmoq	cquere - sepmoq
curare - qo'shmoq	diluere - davolamoq
dividere - surtmoq	extendere - bo'lmoq
extrimere -tugatmoq	ivitmoq - siqmoq
palpare -tayorlamoq	recipere - paypaslamoq
repetere -sog' bo'lmoq	solver - belgilamoq

**4. Jadvaldan foydalanib, quyida berilgan fe'llarning buyruq shaklini yasang va o'zbek tiliga tarjima qiling.**

Agitare, auscultare, concidere, contundere, curare, diluere, dignoscere, exsiccare, extrahere, finire, mecerare, obducere, preparare, salvere, valere, servare, solvere, signare, sterilisare, sumere, terere, vertere.

Namuna :

Fe'l	Tuslanish	Negiz	Buyruq mayli	
			birlik	ko'plik
audire	Iv	Audi	audi-eshit	audite-eshiting

**Quyidagi fe'llarni o'qing va yod oling !**

destillare - distillyatsiya qilmoq	servare - saqlamoq
parare - tayorlamoq	refrigerare - sovutmoq
continere - saqlamoq	concidere - qirqmoq
coquere - qaynatmoq	ponere - solmoq
sumere - dori ichmoq	dividere - ajratmoq
contundere to'yimoq	extrahere - ajratib olmoq

**DORIVOR O'SIMLIKLARNING, DORILARNING NOMLARINI O'QING VA YOD OLING**

Convallaria, ae, f - marvaridgul	Eucalyptus, I, f - evkalipt
Salvia, ae, f - mavrak	Valeriana, ae, f - valeriana

**Dorilarning nomlari**

Adrenalinum, i, n - adrenalin	Amidopyrinum, i, n - amidopirin
Dibazolum, i, n - dibazol	Ichthyolum, i, n - ixtiol
Norsulfazolum, i, n -norsulfazol	Novocainum, i, n - novokain
Oleum(i, n) Ricini - kanakunjut moyi	Papaverinum, i, n - papaverin

Solutio Ammonii - navshadil sprit      Sulfadimezinum, i, n - sulfadimezin  
 Synthomycinum, i, n - sintomitsin      Xeroforminum, i, n -kseroform

**5. Quyidagi lotincha fe'llarning o'zbekcha muqobilini o'z o'rniga qo'ying :**

distillare	- saqlamoq	continere	- qirqmoq
concidere	- qaynatmoq	servare	- tayorlamoq
refrigerare	- distillyatsiya qilmoq	ponere	- kesmoq
parare	- sovutmoq	repetere	- qaytlamoq
coquere	- solmoq		

**§26. LOTIN TILIDA PREDLOGLAR VA BOG'LOVCHILAR**

**Maqsad.** Lotin tilidagi predlog va bog'lovchilarni bilib olish; ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Predlog(ko'makchi) ayrim ot yoki otlarni ikkinchi bir so'z bilan bog'lab, ularning orasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Har qaysi predlog faqat ma'lum kelishik bilan birga ishlatiladi. Predloglar o'zlari bog'lanib kelgan otlarning oldida va ayrim yoziladi.

***Tushum kelishigida ishlatiladigan predloglar :***

Masalan :

<b>ante</b> - oldida	ad aegrotam	- kasal uchun
<b>ad</b> - uchun , - gacha , - da (retsepda)	intra ventriculum	- me'da ichida
<b>contra</b> - qarshi	per vaginam	- qin orqali
<b>intra</b> - ichida	post partum	- tuqqandan keyin
<b>per</b> - orqali	ante operationem	- operatsiya oldidan
<b>post</b> - keyin , so'ng	contra scabies	- qichimaga qarshi

***Chiqish kelishigida qo'llaniladigan predloglar :***

Masalan :

<b>cum</b> -bilan	cum aqua	- suv bilan
<b>de</b> - haqida	de morbo	- kasallik haqida
<b>ex</b> - dan	ex officinal	- dorixonadan
<b>sine</b> - siz	sine colore	- rangsiz
<b>pro</b> - uchun	pro aegrota	- bemor uchun

### ***Tushum va chiqish kelishiklarida qo'llaniladigan predloglar :***

Masalan :

**in** - ga , - da in aquam - suvga , sub linguam - til ostiga  
**sub** - ostida in aqua - suvda sub lingua - til ostida

#### ***Bog'lovchilar***

Tibbiy atamalarni bir – biri bilan bog'lash vazifasini bajarib ,  
turlanmaydigan so'z **bog'lovch** deb ataladi.

**et** - va , bilan  
**aut** - yoki  
**ut fiat** - hosil bo'lguncha  
**seu** - yoki  
**sed** - lekin

Masalan :

Amidopyrinum aut Analginum - amidopirin yoki analgin Analginum  
costa et vertebra - qovurg'a va umurtqa  
miscel , ut fiat pulvis - kukun hosil bo'lguncha aralashtir  
capsula seu ampula - kapsula yoki ampula

### ***BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR***

#### ***1. Quyidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling***

Da in capsulis amyloaceis, da in ampulis, da in charta cerata, da in  
tabulettis, da in scatula, da in oblati, solve in aqua, inlunde aquam in  
ollam, forma pilulas, ex massa pilularum, pone tabulettam sub linguam.

#### ***2. Quyidagi atamalarni lotin tiliga tarjima qiling***

Kapsulalarda ber, qog'ozda ( o'ralgan holda ) ber , tugmachasimon dori  
shaklida ber.

Tugmachasimon dorini suvda erit, hab dorilarni qutichada ( ichiga solib) ber  
valeriananing spirtli eritmasini shisha idishga quy, qayin kurtagidan spirtli eritma  
tayyorla valeriananing spirtli eritmasini marvaridgulning spirtli eritmasi  
bilan aralashtir .

#### ***3. O'zbek tiliga tarjima qiling***

spina scapulae, skeleton membri, ossa cranii, crista tuberculi, caput fibulae, angulus  
mandibulae, basis crania, tuber maxillae, sulcus sinus, linea nuchae,  
septum nasi, vena portae, raphe palati

#### ***4. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering***

1. Ot deb nimaga ataladi ?
2. Otlarda qanday rodlar bor ?
3. Otlar qanday sonlarga bo'linadi ?
4. Lotin tilida qaysi kelishik qo'shimchasiga qarab otlarning guruhi aniqlanadi ?
5. Otlarning lug'at shaklini tushuntirib bering.
6. Lug'atda otlarning rod belgisi haqida gapiring.
7. Birinchi guruh otlari qaysi rodga tegishli va ular Nominativus hamda Genetivusda qanday qo'shimchalarga ega ?
8. Lotin tilida aniqlovchi nechiga bo'linadi ?
9. Moslashmagan aniqlovchi bilan aniqlanuvchi atamani turlaganda qanday o'zgarish ro'y beradi ?
10. Lotin tilida predloglar qanday vazifani bajaradi ?
11. Lotin tilida predloglar qaysi kelishiklarda ishlatiladi ?
12. Accusativus va Ablativus kelishilarida qanday predloglar qo'llaniladi ?
13. Lotin tilida bog'lovchilar qanday vazifani o'taydi
14. Lotincha -yunoncha ma'nodosh atamalarni yoddan aytib bering .

***MUSTAQIL O'QIB O'RGANISH UCHUN LOTIN  
MAQOLLARI VA HIKMATLI SO'ZLAR***

Ars longa, vita brevis.	<b>Hayot qisqa, san'at esa abadiydir.</b>
Vita sine literis mors est.	<b>Ilmsiz hayot - o'limdir.</b>
Amat victoria curam.	<b>Talabalik tirishqoqlikni talab qiladi</b>
Carpe diem.	<b>Bugungi ishni ertaga qoldirma.</b>
Domus propria - domus optima.	<b>Mehmondorchilik yaxshi, uy undan ham yaxshi.</b>

***Quyidagi I turlanish otlarini o'qing va yod oling !***

axungia, ae f - yog', moy	colla, ae f - yelim
cella, ae f - hujayra	cellula, ae, f - hujayracha
Terebinthina, ae f - terpentin	Scopolia, ae f - skopolia
Frangula, ae f - frangula	Polygala, ae f - istod
Oliva, ae f - zaytun	Sanguisorba, ae f - zangvizorba
Rosa, ae f - na'matak	Passiflora, ae f - passiflora
Leuzea, ae f - levzeyra	Bistorta, ae f - ilonsoron toron

***Quyidagi grekcha otlarni yod oling !***

Aloe , es , f -aloe

Hippophae , es , f - chakanda

Kalanchoe , es , f - kalanxoe

chole , es , f - o't , safro

**1. Lotin tilidagi otlarning o'zbekcha muqobilini o'z o'rniga qo'ying.**

- |                 |                    |
|-----------------|--------------------|
| 1) axungia      | a) skopolia        |
| 2) cellula      | b) yelim           |
| 3) Scopolia     | c) zangvizorba     |
| 4) Passiflora   | d) istod           |
| 5) colla        | e) hujayracha      |
| 6) Teribinthina | f) passiflora      |
| 7) Frangula     | g) frangula        |
| 8) Sanguisorba  | h) hujayra         |
| 9) Leuzea       | i) ilonsimon toron |
| 10) cella       | j) yog' , moy      |
| 11) Poligala    | k) terpentin       |
| 12) Oliva       | l) levezeya        |
| 13) Bistorta    | m) na'matak        |
| 14) Aloe        | n) kalanxoe        |
| 15) Chole       | o) chakonda        |
| 16) Hippophae   | p) o't , safro     |
| 17) Kalanchoe   | q) aloe            |
| 18) Rosa        | r) olivka          |

**Quyidagi iboralarni o'qing va yod oling!**

Da in capsulis -kapsula shaklida berDa in scatula - qutichhada

Da in tabulettis - tabletka shaklida berDa in charta - qog'ozda ber

Da in ampulis - ampulada ber

**2. Tablitsadan foydalanib , quyidagi otlarni Nom. Sing., Gen. Sing . , Nom. Plur. , Gen. Plur. larda tarjima qiling :**

buyrak, yuqori jag', o't, o'simlik, vena, tomizg'i (kapliya), tarkibida temiri bo'lgan dori.

**N a m u n a**

Nom.Sing.	Tur.	Rod	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen. Plur
materia – modda	I	F	Materiae modda	materiae moddalar	materiarum- moddalarning

## §27. KO'MAKCHILAR VA ULAR BILAN QO'LLANILADIGAN RETSEPTURA FORMULIROVKALARI

**Maqsad.** Lotin tilidagi ko'makchilar va ular bilan retsepturada qo'llaniladigan iboralarni bilib olish; ularni faoliyatda qo'llay olish malakalarini shakillantirish.

Lotin tilida ko'makchilar ikkita kelishik : Akkuzativ va Ablyativda ishlatiladi . Quyidagi ko'makchilarni Sizlar old qo'shimcha sifatida o'rganib oldingiz.

### *1. Akkuzativda qo'llanadigan ko'makchilar :*

ad ( gacha , uchun , ichida ) 20 , 0	- 20,0 gacha
ad usum internum	- ichkarida qo'llash uchun
in vitrum nigrum	- qora shishada
contra ( qarshi ) – contra tussim	- yo'talga qarshi
per ( orqali ) – per os	- og'iz orqali
per inhalationem	- ingalyatsiya yordamida
post	- keyin
post mortem	- o'limdan so'ng

### *2. Ablativus bilan qo'llanadigan ko'makchilar*

com ( bilan ) - com extracto	- ekstrakt bilan
ex ( -dan ) - ex aqua	- suvdan
pro ( uchun ) - pro injectionibus	- ineksiya uchun

### **Retsepturada eng ko'p qo'llaniladigan iboralarni o'qing va yod oling!**

ex tempore - keragicha	in ampullis - ampulalarda
in capsulis -kapsulalarda	in oblatis - g'ilofchalarda
in spritz-tubulis - shpris-tyubiklarda	in tabulettis - tabletkalarda
obductis - g'ilofchali tabletkalarda	in vitro - shishada
in vitro nigro - qora shishada	in vivo - tirik mavjudotda
per inhalationem - ingalyatsiya orqali	per os - og'iz orqali
per rectum - to'g'ri ichak orqali	per se - toza holda
pro die - sutkalik dozasi	pro dosi - bir marta ichish uchun
pro infantibus - bolalar uchun	pro inhalation ingalyatsiya uchun
pro injectionibus - inheksiya uchun	pro narcosi - narkoz uchun
pro r(o) entgeno - rentgen uchun	

## **BILIMLARINGIZNI MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR**

### **1. Nuqtalar o'rnini kerakli ko'makchilar bilan to'ldiring:**

methylenum coeruleum in capsul ... , solution Oestradioli oleosum in ampull ... , Collargolum in vitr ... nigr ... , rhisoma cum radic ... , suppositoria cum extract ... Belladonnae , suppositoria cum Euphyllin..., tabulettae contra tuss ..., tabulettae Dimedroli pro infan ..., aqua pro injection ..., oleum pro inalation ..., praepara ex tempor ..., solution iodi ad us ... intern ..., Chloroformi pro narcos..., remedium pro dos..., pulvis pro suspension ..., solutio Dimedroli in spritz- tubul ... .

### **2. Quyidagilarni lotin tiliga tarjima qiling :**

Dibazol eritmasi inyeksiya uchun, valeriana ildizpoyasi ildizlari bilan, shamchalar dimedrol bilan bolalar uchun, yo'talga qarshi tabletkalar, furatsilin eritmasi tashqaridan qo'llash uchun, diprofillin eritmasi ampulalarda, dimedrol eritmasi shpris tyubiklarda, kapsulalardagi kanakunjut moyi toza holda, narkoz uchun efir, validol tabletkalarda, amidopirin va fenatsetin tengma–teng 0,25, ampitsillin kukini suspenziya uchun .

